

# O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar





Hisobot

Birlashgan Millatlar Tashkiloti  
Bolalar Jamg'armasi (UNICEF)  
ning O'zbekistondagi  
vakolatxonasi

2020 yil

### **UNICEF O'zbekiston**

“Poytaxt” Biznes Markazi,  
Sharaf Rashidov ko'chasi  
16 bino, Toshkent - 100029  
O'zbekiston

# O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar



# Minnatdorchilik izhori

UNICEF O'zbekiston Yoshlar ittifoqi bilan qo'shma ish rejasi va "Yuksalish" umummilliy harakati bilan sheriklik shartnomasi doirasida 2018-2020 yillar davomida "O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar" nomli milliy tadqiqotini o'tkazdi. Yoshlar milliy tadqiqotining asosiy maqsadi ularning kundalik hayotidagi muhim sohalarini o'z ichiga olgan holda, O'zbekistondagi yoshlarning ahvolini har tomonlama ko'rib chiqish, yoshlarga oid milliy siyosatdan xabardor qilish va yoshlar farovonligiga ta'sir qiladigan masalalar bo'yicha qarorlarni samaradorligini oshirishdan iborat edi.

Tadqiqot quyidagi manfaatdor tomonlarning bebaho hissalarini tufayli amalga oshirildi:

- "Yuksalish" umummilliy harakati tadqiqotni qo'llab-quvvatladi va kerakli ma'lumotlarni yig'ish uchun aholi bilan muloqot qilishga ko'maklashdi, vositalar va tadqiqot natijalari bo'yicha sharh va takliflarni berdi;
- O'zbekiston Yoshlar ittifoqi hamda yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash Instituti tadqiqot mavzularini, metodologiyasini aniqlashga hissa qo'shdi va yakuniy hisobot bo'yicha sharh va takliflarni taqdim etdi;
- Bandalik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va ommaviy axborot vositalari vakillari tadqiqot vositalarini ishlab chiqish
- va metodologiyani o'rganish vositalarini ishlab chiqish va uni mukammallashtirish uchun qo'llanilgan qimmatli ekspert xulosalarini taqdim etdilar;
- "Ekspert Fikri" tadqiqot agentligi birlamchi miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni yig'di;
- UNICEFning monitoring va baholash (M&E) bo'yicha mutaxassislari, xususan Zokir Nazarov va Komolaxon Raxmanova, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish, sifat va axloqiy tamoyillarga rioya qilishni ta'minlash uchun ma'lumotlar yig'ish jarayonini kuzatishda katta yordam ko'rsatdilar va hisobotni qayta ko'rib chiqdilar;
- UNICEF mutaxassislari, xususan Yuliya Oleynik, Umid Aliyev, Dipa Sankar va Sufang Guo tadqiqotning metodologiyasi va vositalarini ishlab chiqish, ekspert baholashni o'tkazish va hisobotni yakunlashda katta yordam ko'rsatdilar;
- Dizayn va ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish dizayner Mardiya Aleksandra Miller tomonidan ishlab chiqilgan;
- Ma'lumotlarning miqdoriy tahlili, shu jumladan omillar tahlili Rauf Salaxodjeyev tomonidan o'tkazildi.
- Hisobot mualliflari – maslahatchilar Filipp Shroder va Inna Volfson, UNICEF.

# Qisqacha umumiy ma'lumot


## Kirish

Hozirgi O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar aholining 60 foizini tashkil qiladi. 15-20 yil ichida ular O'zbekiston tarixida birinchi marta eng yirik ishchi kuchiga aylanib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi darajasiga ko'tarish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadilar. Dalillarga va yoshlarning qarashlariga asoslangan holda, yoshlarni rivojlantirish bo'yicha strategik uzoq muddatli istiqbolni ishlab chiqish mavjud demografik dividenddan samarali foydalanishga yordam beradi.


O'zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollari" tadqiqoti UNICEF, "Yuksalish" umummilliy harakati va O'zbekiston Yoshlar ittifoqining birgalikdagi sa'y-harakatlari bo'lib, yoshlarning nuqtai nazari va ularning batafsil

xulosalari, va amaliy tavsiyalari asosida yoshlar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni kuchaytirishga qaratilgan.

2018-2020 yillarda o'tkazilgan ushbu tadqiqot O'zbekistonning 12 viloyati, poytaxti Toshkent va Qoraqalpog'iston avtonom Respublikasi bo'ylab 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni qamrab oldi. Ma'lumotlarni yig'ish maqsadida o'tkazilgan ushbu tadbirda 4,458 respondent ishtirok etgan miqdoriy so'rov va jami 24 ta Fokus guruhi muhokamalaridan iborat sifatli so'rovdan tashkil topgan aralash yondashuv qo'llanildi.



# Natijalar



## Ta'lim va o'qitish

Butun O'zbekiston bo'ylab turli o'quv yurtlari talabarlari hozirgi ta'lim infratuzilmasidan (masalan, yaratilgan muhit, o'qitish, o'quv materiallari) qoniqishni izhor qilishadi. Biroq, ular shahar markazlariga qaraganda, qishloq joylarda vaziyatni unchalik qulay bo'lmagan holda tasvirlashadi. O'quv muhitiga kelsak, talabalar/o'quvchilar o'quv muhitini yanada ijobiy asoslashni, amaliyotga yo'naltirilgan va sifatli ta'lim berishlarini istashadi. Xususan, talabalar/o'quvchilar til ko'nikmalarini, o'zlarining biznes savodxonligini oshirish va kasbiy hayotga o'tishga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishni xohlashadi.

Ko'plab talabalar/o'quvchilar uchun ta'lim harajatlari stress va umidsizlikni keltirib chiqaradi. Bunday harajatlar qatoriga yoshlar oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun xususiy saboq olish (repetitorlik) uchun to'lovlarni to'lash, pora berish va qimmat to'lovlarni amalga oshirish zarurligini kiritishdi.

## Kasbiy hayot va iqtisodiy imkoniyatlar


19-30 yoshli respondentlar orasida ta'limni, kasbiy tayyorgarlikni davom ettirmaydigan va ishlamaydiganlarning (NEET) ulushi 54,6 foizni tashkil qiladi. Yosh ayollar uchun NEET ko'rsatqichi ushbu yosh guruhidagi yigitlarga nisbatan doimiy ravishda yuqori bo'lib, 24,8 foizga nisbatan 74,0 foizni tashkil etdi. Ularning kelgusi ishlariga kelsak, O'zbekistonlik yoshlar uchun kasbiy sohasi ularning "shaxsiy tanlovi" (ota-onalarining emas) bo'lishi muhimdir. Bundan tashqari, ish "munosib daromad" ni va yosh shaxsga yoshlarni qo'llab-quvvatlaydigan va doimiy ravishda o'rganishga imkon beradigan hamkasblarining ijobiy "jamoasi" doirasida bo'lishiga imkon berishi lozim.



Yosh ayollarga o'z daromadlarini topish istagiga to'sqinlik qiluvchi omillar - bu uy sharoitida va oilada g'amxo'rlik qilish vazifalari va iqtisodiy imkoniyatlarni izlab, ko'chib ketish imkoniyatining pastligidir. Shahar markazlarida yashaydigan tengdoshlari bilan taqqoslaganda, qishloq yoshlari o'qishni davom ettirish yoki ish bilan ta'minlanish uchun kamroq imkoniyatlarga ega bo'lganligi sababli, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga qiziqish bildirmoqdalar. Umuman olg'anda, mamlakat bo'ylab yoshlar o'z ijtimoiy harakatchanligini oshirishda mavjud aloqalar (va oilalilik), oilaning iqtisodiy imkoniyatlari naqadar muhimligini ta'kidlaydilar.

## Ijtimoiy integratsiya

O'zbekiston yoshlari deyarli mutloq ravishda faqat ota-onalariga ishonadilar va ularga tayanadilar. Do'stlik tushunchasiga ko'pchilik tanqidiy munosabatda, ularning fikriga ko'ra do'stlik rishtalari aksariyat hollarda qo'llab-quvvatlash yetishmasligi, maxfiylikni buzish va ijtimoiy tamg'alash sababli buzilib ketadi. Keksa avlod bilan munosabat haqida gapiradigan bo'lsak, yoshlar, ayniqsa, o'z jamoalarida (mahallalarida) "itoatkor" bo'lishlari kerak, degan fikrni ta'kidlaydilar. Yoshlar pul topishni boshlaganlarida yoki oila qurganlarida, ularning mustaqillik tuyg'usi kuchayadi, lekin bu ayollarga emas, ko'proq erkaklarga taalluqli. Gender munosabatlarning bugungi kuni va kelajagi yoshlar tomonidan teng huquqlar tomon o'zgaradi deb emas (ko'proq ayollar nuqtai nazari), konservativ patriarxat saqlanib qoladi (ko'proq erkaklarning nuqtai nazari) deb baholanmoqda. Nikoh haqida gap ketganda, yangi sherik axloqiy, amaliy va moddiy yordam manbai sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga, turmush qurgan yoshlar katta oila (odatda erting ota-onasi) davrasida er-xotin bo'lib oilaviy hayotni boshlash ko'pincha qiyin kechishini ta'kidlaydi.



## Yashash joyi va mobillik

O'zbekistondagi yoshlar o'zlarining tug'ilgan qishloqlari va shaharlariga daxldorlik tuyg'usini namoyish etadilar va ularning ko'chib ketmaslikka doir motivatsiyasi mamlakat ichida ham (80,3 foiz), va chet ellarga ko'chib ketish bo'yicha ham (77,3 foiz) yuqoridir. Tanish bo'lgan geografik va ijtimoiy muhitdagi qulay turmush tarzi o'zgarishini yoqtirmaslik, noma'lum yoki salbiy migratsiya tajribasidan qo'rqishdan kelib chiqqan. Yoshlar orasida, agar oila tinch, sog'lom va osoyishta hayot kechirishi mumkin bo'lgan asosiy shartlarga javob bersa, qishloq ham, shahar ham "yashash uchun yaxshi joy" bo'lishi mumkin, degan fikr keng tarqalgan.




## Jamoatchilik ta'siri

Yosh avlod "siyosiy yangiliklar"ga katta qiziqish bildirmoqda va o'z fikrlarini jamoatchilikka bildirishda o'zlarini "erkin" his qiladi. Biroq, faqat kam sonli yoshlar jamoat yoki siyosiy tashkilotlarda faol qatnashadilar.

Yoshlar, "kattalar yaxshi biladi" degan ijtimoiy tasavvurga asoslanib, o'zlarini qaror qabul qilish va mahalliy (mahalla) darajadagi faoliyat yuritish jarayonidan chetlatilgan, degan fikrga ega. Shuning uchun ular o'zlari va katta avlod o'rtasidagi muloqotni o'zgartirish fikrini qo'llab-quvvatlaydilar va yoshlar uchun ularning hayotiy tajribasiga jiddiy qiziqish paydo bo'lishi va ular bilan faol hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar tashkilotlari, xususan, Yoshlar ittifoqi haqida gap ketganda, yoshlar, tashkilot o'z faoliyatini ko'nikmalarni oshirishga hamda ta'lim va kasbiy muvaffaqiyatga tegishli mavzular bo'yicha axborot oqimini yaxshilashga yo'naltirishini taklif qiladilar.





## Raqamli hayot va Internet

O'zbekistondagi yoshlar kompyuterlar haqida ko'proq ma'lumot olishga (86,9 foiz) juda katta qiziqish bildirayotgan bo'lsalar-da, hanuzgacha ayollar va qishloq yoshlaridan tashkil topgan, kompyuter bilan shug'ullanish ko'nikmalariga ega bo'lmagan muhim guruh (37,8 foiz) mavjud. Bundan tashqari, Internetdan "hech qachon" foydalanmaydiganlar (asosan, qishloq joylaridagi yoshlar va ayollar) soni (53,9 foiz) bilan, undan "kundalik" tarzda foydalanadiganlar soni (25,4 foiz) (asosan shahar aholisi va erkaklar) orasida katta farq sezilmoqda. Internetning o'zini yoshlar, ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish va o'qish yoki ish maqsadlari uchun teng darajada "foydali" vosita sifatida ifodalaydi, shuningdek, "vaqtni yo'qotish" yoki "yomon ta'sirlarga" duchor bo'lish uchun chindan xavfli bo'lishi mumkin bo'lgan joy (bu, qoralanishdan/tamg'alanishdan qo'rqadigan ayollar uchun nomutanosib ravishdagi cheklovdir) deb biladi.



## Muammolar, bo'sh vaqt va yoshlikni tugashi

O'zbekistondagi yoshlar odatda o'zlarini "baxtli" deb bilsalar-da, muntazam ravishda "xafa bo'lishlari yoki tushkunlikka tushishlarini" tan oladiganlar soni ham kam emas (haftasiga kamida bir marta 26,5 foiz). O'z salomatligining sub'yektiv baholanishi umuman olg'anda yuqori darajada (79,7 foiz hech bo'lmaganda "yaxshi") bo'lsa-da, yoshlar orasida sog'liqni saqlash tizimi to'g'risida qishloq joylarda talab darajasida bo'lmagan sharoitlar va sifatli davolanish, yoki dori-darmonlarning yuqori harajatlari to'g'risida tanqidiy fikrlar mavjud.

Yoshlar yaxshilanishi zarur bo'lgan deb hisoblaydigan asosiy sohalarga sifatliroq ta'lim va kasbiy o'qitish, yoshlarning ishsizligi va kam daromadlariga qarshi samarali choralar, shuningdek, erta turmush qurish / ajrashish va keksa avlod bilan yosh avlod o'rtasidagi uzilishlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish qiradi.

Bo'sh vaqt haqida gap ketganda, qishloqda va ayollar orasida fermer xo'jaliklari, uy xo'jaliklari va oila a'zolarini parvarish qilish ishlarining ortishi sababli salohiyat pastroqdir. Va nihoyat, yoshlarning yoshlik qachon tugashi borasidagi fikrlari ma'lum bir yoshni belgilashdan (60 yoshgacha) oila qurish yoki ota-ona maqomiga erishishga qadar, deb farqlanadi.

# Tavsiyalar

Tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida asosiy yo'nalishlarda quyidagi tavsiyalar taqdim etilmoqda:

1. Eng nochor yoshlarga e'tiborni qaratgan holda, qo'llab-quvvatlash va ijobiy motivatsiya tomon yoshlar bilan ishlash yondashuvlarini qayta anglab yetish
  - Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida eng nochor yoshlarga e'tibor qaratib, yoshlar bilan ishlash amaliyotini tizimlashtirish;
  - Oila va maktab darajasida qaror qabul qilish ob'yekti emas, sub'yekti sifatida yoshlarga nisbatan ijobiy asoslanish va munosabatlarni kuchaytirish;
2. Maktabdan ishga muvaffaqiyatli o'tish uchun barcha yoshlarning fundamental, hayotiy, texnik, raqamli, innovatsion va tadbirkorlik ko'nikmalarini o'zlashtirib olish imkoniyatlarini kengaytirish talab qilinadi.
  - NEET orasida bo'lish xavfi yuqori bo'lgan yoshlarga, shu jumladan yosh ayollarga, chekka qishloqlarda yashovchi yoshlarga, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan, imkoniyati cheklangan yoshlarga va boshqa zaif guruhlarga e'tibor qaratgan holda, hayotiy, texnik, innovatsion va tadbirkorlik ko'nikmalari sohasida rasmiy va norasmiy ta'limni yaxshilash;
  - Internetning funksionalligini yaxshilash va, ayniqsa, qishloq joylarda va yosh ayollarni kompyuterda ishlash ko'nikmalariga o'rgatish.
3. Yoshlar uchun o'z muammolari va intilishlari haqida gapirish, o'z fikrlarini bildirish va mahalliy, hamda milliy darajadagi qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish uchun barqaror platformalarni yaratish.
  - Yoshlarning mahalliy va milliy darajadagi hayotiga ta'sir etuvchi masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda ishtirok etishlari uchun barqaror institutsional platformalarni yaratish;
  - Yoshlarga yigit-qizlar bilan muloqot qilishi uchun platformalar yaratishda va yoshlarning raqamli faolligini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash;
4. Yosh ayollar uchun ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish
  - Yosh ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faol ishtirokini targ'ib qilish;
  - Bolalarga g'amxo'rlik qilish va mehnat sharoitlarining moslashuvchanligini ta'minlash orqali ayollarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalardagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash;
5. Yoshlar va ularning oilalari uchun muhim xizmatlarni ko'rsatish uchun sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish
  - Yoshlar uchun zarur tibbiy xizmatlarni qoplaydigan majburiy tibbiy sug'urtani joriy qilish;
  - Tibbiy kadrlardan iborat resurslarni kuchaytirish (ularning salohiyati va miqdorini), ayniqsa qishloq joylarda;
6. Yoshlarga oid ilmiy asoslangan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun O'zbekistonda yoshlarning ahvoli to'g'risida kelgusi ochiq tadqiqotlarni o'tkazish.



# Qisqartmalar va glossariy

**MGM(lar)**

**Mahalla**

**NEET**

**Tanish-bilish**

**Maqsadli guruhlardagi muhokamalar**

**Mahalliy hamjamiyat**

**Ta'lim olmaydi, kasbiy tayyorgarlikdan o'tmaydi va**

**So'zma-so'z: "tanish-taniqli", ya'ni norasmiy ravishda ma'lum resurs-lardan foydalanish uchun ishlatiladigan ijtimoiy aloqalar (oilaviy rishtalarning bir qismi sifatida)**

**AQSh dollari**

**Doll**

# Mundarija

- 4 Minnatdorchilik izhori
- 5 Qisqacha umumiy ma'lumot
- 6 Natijalar
- 10 Tavsiyalar
- 11 Qisqartmalar va glossariy
- 14 Kirish**
- 18 Konseptual asos**
- 22 Tadqiqotning metodologiyasi va jarayoni**
- 23 Maqsadli auditoriya
- 24 Ma'lumot yig'ish usullari va vositalari
- 25 Respondentlarning profili
- 29 Vositalarni dastlabki sinovdan o'tkazish, tadqiqot guruhlarining o'qitilishi va dala ishlari sinovi
- 30 Ma'lumotlar yig'ilishini nazorat qilish
- 30 Ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish
- 32 Cheklovlar
- 34 Natijalar**
- 35 Ta'lim va o'qitish**
- 35 Asosiy hulosalar
- 37 Tegishlilik (mansublik) hissi
- 37 Moddiy sharoitlar
- 38 O'qitish sifati va zarur ko'nikmalar
- 43 O'qishning turli manbalari
- 46 Kasbiy hayot va iqtisodiy imkoniyatlar**
- 55 Mansab yo'lidagi to'siqlar
- 66 Ijtimoiy integratsiya**
- 66 Asosiy hulosalar
- 66 Ishonch
- 74 Mustaqillik / qaramlilik
- 78 Gender munosabatlari
- 83 Nikohdan (turmush qurganidan) keyingi hayot



## 86 Yashash joyi va mobillik

86 Asosiy hulosalar

87 “Ideal joy” va uyga tegishlilik

93 Qishloq va shahar joylari

## 98 Jamoatchilik ta'siri

98 Asosiy hulosalar

99 Siyosiy qiziqish, erkinlik va faollik

102 Siyosiy va jamoatchilik qarorlariga ta'sir

106 Yoshlarning hayotiy tajribasini jiddiy qabul qilish

108 Ideal yoshlar harakati

## 112 Raqamli hayot va Internet

112 Asosiy hulosalar

113 Kompyuter ko'nikmalari va Internetdan foydalanish

116 Internet foydali va xavfli joy sifatida

118 Raqamli hayotda qishloq va shahar hududlari orasidagi farqlar

121 Gender va Internet

123 Internetsiz hayot

## 124 Tashvishlar, bo'sh vaqt va yoshlikni tugashi

124 Asosiy hulosalar

125 Baxt va sog'liq

128 Asosiy muammolar: ta'lim / o'qish, bandlik / daromad, ishonch / ko'rsatma

132 Dam olishning to'g'ri miqdori

134 Yoshlikni tugashi

## 136 Tavsiyalar

## 144 Bibliografiya

## 145 Ilova



# 1

## Kirish

O'zbekiston muhim demografik bosqichda turibdi. So'nggi yigirma yil ichida mamlakatda yuz bergan barqaror demografik o'tish natijasida, boshqalar qaramog'ida bo'lganlarning (15 yoshgacha bo'lgan bolalar va 65 yoshdan oshganlar) umumiy aholi tarkibidagi ulushi qamaydi va qolgan qismida aholi o'sishi barqarorlashdi.

## Dastlabki ma'lumotlar<sup>1</sup>

O'zbekiston muhim demografik bosqichda turibdi. So'nggi yigirma yil ichida mamlakatda yuz bergan barqaror demografik o'tish natijasida, boshqalar qaramog'ida bo'lganlarning (15 yoshgacha bo'lgan bolalar va 65 yoshdan oshganlar) umumiy aholi tarkibidagi ulushi qamaydi va qolgan qismida aholi o'sishi barqarorlashdi. Bunday demografik vaziyat "erta demografik dividend" bosqichi deb tasniflanadi.


Aholining mehnatga layoqatli ulushi o'sib borayotganda va boshqalar qaramog'idagi kishilarning ulushi o'rtacha darajada bo'lganda O'zbekistonda demografik dividend deb ataladigan o'sish sur'atlari uchun qulay demografik sharoitlar yaratilib, ular real daromadlarni sezilarli darajada oshirishi va qashshoqlikni kamaytirishga yordam

berishi mumkin. Biroq demografik dividend kafolatlanmagan. Dividendga erishish uzoq muddatli rejalashtirishni va hozirgi paytda bolalar va yoshlar bo'lgan fuqarolarning salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilishni talab qiladi, chunki ular 2048 yilga kelib O'zbekiston tarixidagi eng birinchi eng katta ishchi kuchini tashkil etadi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi bolalar va yoshlarning farovonligiga yetarlicha sarmoya kiritmaslik qimmatli demografik dividendni yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Ushbu yo'qotish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatni yo'qotibgina qolmay, balki yoshlarning ishsizligi, umidsizlik va huquqsizligiga olib keladi, bu esa o'z navbatida norozilik, siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlar uchun zamin yaratishi mumkin.

### 1-RASM.

Keng doiradagi yosh guruhlari bo'yicha umumiy aholi soni, 1950-2100



Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha boshqarmasi, aholishunoslik jamg'armasi, dunyo aholisining istiqbollari. 2017 yildagi tahrir, birlashgan

## Mantiqiy asos

O'zbekiston Prezidenti va Hukumati har doim yoshlarning ijobiy rivojlanishi va o'zini amalda namoyon qilishini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berib kelgan. Yoshlar siyosati 1991 yilda erishilgan respublika mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlab amalga oshirilmoqda. 2016 yildagi siyosiy o'tish bilan yoshlar siyosatining ahamiyati keskin ortdi. Huquqlarga asoslangan yondashuv siyosatini joriy etgan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi 406-sonli qonunga va Prezidentning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 510-sonli Farmoniga qo'shimcha ravishda, Hukumatning 2017-2021 yillar uchun umumiy Harakatlar strategiyasida yoshlar davlat siyosatini ishlab chiqishning beshta ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Bu kabi yuqori e'tibor yoshlarni rivojlantirishga zudlik bilan sarmoya kiritish qanchalik muhimligini anglatadi. Prezidentning radikal islohotlar va yoshlarga oid siyosatni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida yaqinda qabul qilingan 6017-sonli Farmonida yoshlar oldida turgan muammolarni samarali hal etish zarurligi, Umumjahon yoshlar strategiyasini ishlab chiqish, uni amalga oshirilishini nazorat qilish va yoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida Yoshlar ishlari bo'yicha agentlikni tashkil etish to'g'risida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, yoshlar siyosati Hukumat va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) o'rtasidagi hamkorlikning 2017-2020 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi doirasidagi hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.





## Maqsad

Yoshlar siyosati ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilganligiga qaramasdan, ushbu siyosatni va yoshlarning muammolarini hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish haligacha izchil va ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligidan aziyat chekishda davom etmoqda. Shuning uchun ushbu sohada qarorlar qabul qilish asosan yoshlarning dolzarb ehtiyojlari to'g'risidagi dalillarga tayanish o'rniga, asosan siyosiy fikr va umumiy taxminlarga asoslangan jarayon bo'lib qolmoqda. Yoshlar siyosatini amalga oshirilayotgan radikal islohotlarning dalillarga asoslangan bazasini ta'minlash uchun va uni ishlab chiqilishi va tatbiq qilinishini samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, "Yuksalish" umummilliy harakati va UNICEF umummilliy yoshlar tadqiqotini o'tkazishga kelishib oldilar.

Tadqiqotning maqsadi – **O'zbekistonda yoshlar o'z hayotining muhim sohalarida duch keladigan muammo va istiqbollar haqida o'z nuqtai nazari va o'z ovozi bilan umumiy ma'lumot berishlaridan iborat.**

Tadqiqot natijalari, ayniqsa, yoshlarning rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash va yoshlarni rivojlantirish milliy indeksini ishlab chiqishni maqsad qilgan

yangi tashkil etilgan Yoshlar ishlari bo'yicha agentligi faoliyati uchun ayniqsa foydali bo'lishi kutilmoqda. Bundan tashqari, olingan natijalar Xalq ta'limi vazirligi, O'rta maxsus va oliy ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va qambag'allikni kamaytirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa manfaatdor tomonlar olib boradigan keyingi islohotlar bo'yicha qarorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu bobda tadqiqot taqdim etiladi, mamlakatdagi sharoitlar va tadqiqotning asoslari va maqsadlari muhokama qilinadi. Hisobotning 2-bobida tadqiqotning yondashuvlariga asoslangan konseptual asoslarning muhokamasi keltiriladi. 3-bobda tadqiqotning ikki komponentining metodologiyasi va tadqiqotning axloqiy tamoyillari ta'riflangan. 4-bobda ta'lim va o'qitish, kasbiy hayot va iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy inklyuziya, yashash joyi va mobillik, ijtimoiy ta'sir, raqamli hayot, Internet va bo'sh vaqt kabi asosiy mavzuli tadqiqot sohalari bo'yicha natijalar keltirilgan. 5-bob hisobotni tavsiyalar bilan yakunlaydi.



# 2

## Konseptual asos

Yoshlar milliy tadqiqotining asosiy maqsadi hozirgi paytda O'zbekistondagi yoshlarning o'tish davri yoshlarning o'zini nuqtai nazari bilan ko'rib chiqilayotgani va bu o'zgarishlar ularning hozirgi va kelgusi hayotidagi rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganishdir.

**“Yoshlarning mavqeini oshirish, ularga o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatini taqdim etish. Bu ularga o‘z mamlakatlarida faol fuqarolar sifatida to‘liq ishtirok etishlarini ta‘minlab, siyosiy barqaror, iqtisodiy jihatdan foydali va qonuniy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadigan muhitda o‘z hissalarini qo‘shish va foyda olishlariga imkon beradi.”**

Yoshlar siyosati, yoshlar tadqiqotlari va yoshlar bilan ishlash, alohida tarzda ham, shuningdek o‘zaro bog‘liqlikda ham, nisbatan tezroq va dunyo bo‘ylab turli ustuvorliklarga ega bo‘lgan, rivojlanayotgan fanlardir.

Tadqiqotda ishlatiladigan asosiy atama va tushunchalardan biri bu yoshlardir. BMT ta‘rifiga ko‘ra, yoshlar 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan odamlarni qamrab oladigan yosh guruhidir. Biroq, ushbu tadqiqot uchun 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan barcha fuqarolarni qamrab oladigan 2016 yilgi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi milliy qonunda nazarda tutilgan yoshlar ta‘rifidan foydalaniladi.

Amaldagi yana bir konsepsiya - yoshlarning rivojlanishidir. Yoshlar rivojlanishining nufuzli ta‘rifi mavjud bo‘lmasa-da, tadqiqot uchun 2016 yilgi Yoshlar rivojlanishi indeksiga oid hisobotda ko‘rsatilgan keng qamrovli ta‘rifdan foydalaniladi:

*“Yoshlarning mavqeini oshirish, ularga o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatini taqdim etish. Bu ularga o‘z mamlakatlarida faol fuqarolar sifatida to‘liq ishtirok etishlarini ta‘minlab, siyosiy barqaror, iqtisodiy jihatdan foydali va qonuniy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadigan muhitda o‘z hissalarini qo‘shish va foyda olishlariga imkon beradi.”<sup>2</sup>*



Yoshlarga odatda o'tish bosqichi sifatida qaraladi, ya'ni: ta'limni tugatish va ishga joylashish; yashash uchun o'z joyini topish va mustaqil hayotga o'tish; o'z oilasiga o'tish-keng ma'noda, qaramlikdan avtonomiyaga o'tish. Ushbu o'tishlar, tadqiqotlarning aksariyati ko'rsatganidek, dunyodagi ko'plab yoshlar uchun tobora murakkab va ko'p qirrali bo'lib qoldi.

Ushbu tadqiqot uchun O'zbekistondagi o'tish bosqichlarining aniq tabiati, davomiyligi, intensivligi va ta'siri to'g'risida hech qanday taxminlar qilinmagan. Yoshlarni o'rganish bo'yicha milliy tadqiqotning asosiy maqsadi-hozirgi paytda O'zbekistonda yoshlarga oid o'tishlar yoshlarning o'zlari ko'rib turganidek qanday yuz berayotganini va bu o'zgarishlar ularning hozirgi va kelajakdagi hayotlarida ularning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganishdir.

Boshqa mamlakatlarda yoshlarning kattalar hayotiga o'tishini kuzatish asosida O'zbekiston yoshlari o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishi va alohida kamsitish, va istisnolarga duchor bo'lishlari, va ularning huquqlari yetarlicha himoya qilinmasligi kutilmoqda. Biroq, ushbu tadqiqot maqsadida yoshlar huquqlari buzilishi mumkinligi to'g'risida hech qanday taxminlar qilinmaydi. Tadqiqot betaraf tarzda, ochiq fikr bilan yoshlar qaysi huquqlarni qadrlashini, qaysi huquqlardan foydalana olmasliklari va buning sabablari nimada bo'lishi mumkinligini o'rganadi.

Tadqiqot doirasi va yondashuvlari, odatda, yoshlarning rivojlanishida inson huquqlariga asoslangan yondashuvni, xususan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini va bolalar va yoshlarning huquqlarini turkumlashini asoslaydigan tushunchalarga asoslanadi:

1. Yetakchi tamoyillar, shu jumladan kamsitilmaslik; bolaning eng yaxshi manfaatlariga rioya qilish; yashash, omon qolish va rivojlanish huquqi; va ishtirok etish huquqi. Bular amalga oshiriladigan har qanday va barcha huquqlarning asosiy talablarini anglatadi.
2. Omon qolish va rivojlanish huquqlari: Bular bolaning omon qolishi va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslarga, ko'nikmalarga va hissalariga bo'lgan huquqlardir. Ular yetarli oziq-ovqat, yashash joyi, toza suv, rasmiy ta'lim, boshlang'ich tibbiy yordam, bo'sh vaqt va dam olish, madaniy tadbirlar va o'z huquqlari to'g'risida ma'lumot olish huquqlarini o'z ichiga oladi. Ushbu huquqlar nafaqat huquqlar ni bajarish vositalarining mavjudligini, balki ulardan foydalanish huquqi mavjud bo'lishini ham talab qiladi.
3. Himoyalash huquqlari: Ushbu huquqlarga bolalarga nisbatan zo'ravonlik, qarovsiz qoldirish, ekspluatatsiya va shafqatsizlikning barcha turlaridan himoya qilinish, shu jumladan urush paytida maxsus himoya qilinish huquqi va jinoiy sud tizimida suiiste'mol qilinishdan himoya qilish qiradi.
4. Ishtirok etish huquqlari: bolalar o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, diniy, madaniy va siyosiy hayotiga ta'sir etadigan masalalarda o'z fikrlarini bildirish va so'z erkinligi huquqiga ega. Ishtirok etish huquqlariga fikr bildirish va tinglash huquqi, axborot olish huquqi va birlashish erkinligi qiradi. Voyaga yetganida ushbu huquqlardan foydalanish bolalarga barcha huquqlarini amalga oshirishda yordam beradi va ularni jamiyatda faol bo'lishga tayyorlaydi.<sup>3</sup>

## Yoshlar siyosatining asosiy qoidalari

Hozirda O'zbekistonda yoshlar farovonligini o'lchaydigan va yoshlar o'tish davrini har tomonlama ko'rib chiqadigan milliy ko'rsatqichlar mavjud emas. Ushbu tadqiqot ikkita xalqaro ko'rsatqichlarga asoslanadi – Yoshlar rivojlanishining xalqaro indeksi (YORXI) va Yoshlar farovonligi indeksi (YOFI).

YORXI beshta sohadagi 18 ta ko'rsatkich bo'yicha ommaga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga asoslangan: ta'lim, sog'liqni saqlash va farovonlik, bandlik va imkoniyat, siyosiy va fuqarolik ishtiroki. 2016 yilda YORXI O'zbekistonda yoshlarning rivojlanishini baholash uchun ham hisoblab chiqilgan. O'zbekiston maksimal hisoblangan 1 balldan 0,683 ballni to'pladi va dunyoda 183 mamlakat orasida 53-o'rinni egalladi. Markaziy Osiyo bo'ylab O'zbekiston qo'shni davlatlarni ortda qoldirdi: Qozog'iston 61-o'ringa (0,668), Qirg'iziston 64-o'ringa (0,664), Tojikiston 98-o'ringa (0,614), Turkmaniston 122-o'ringa (0,566). Biroq, O'zbekiston ta'lim sohasi (90-daraja) va bandlik va imkoniyatlar darajasi (81-daraja) bo'yicha nisbatan past ballarga ega bo'ldi.

Yoshlarning farovonlik indeksi statistik ma'lumotlardan tashqari yoshlarning his-tuyg'ulari, tashvishlari va intilishlarini o'rganadi. Bunday keng yondashuv yoshlarning hayotga qanday qarashlari va tajribalarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Yoshlarning farovonlik indeksi yettita sohada, jumladan, gender tengligi, iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, fuqarolarning ishtiroki va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'lchanadi. Yoshlarning farovonlik indeksi dunyodagi yoshlar aholisining qariyb 70 foizini tashkil etadigan eng yuqori yoshlar soni bo'lgan 30 mamlakat uchun hisoblanadi. Ammo YOFI Markaziy Osiyodagi biron bir mamlakatni qamrab olmaydi va

sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari orasida faqat Rossiyani o'z ichiga oladi.

Yoshlar rivojlanishining xalqaro indeksi tomonidan ham va yoshlar farovonligi indeksi tomonidan ham tavsiya etilgan yondashuvlar va mavzularga asoslanib, ushbu tadqiqotda empirik ma'lumotlarga ishlov berishda induktiv yondashuv qo'llanildi va O'zbekistonning zamonaviy yoshlari uchun eng dolzarb hisoblangan quyidagi tematik toifalar belgilandi:

- Ta'lim va o'rganish
- Iqtisodiy imkoniyatlar va professional hayot
- Ijtimoiy integratsiya
- Yashash va mobillik
- Ijtimoiy ta'sir
- Raqamli hayot va Internet
- Muammolar, bo'sh vaqt va yoshlikning tugashi



# 3

## Tadqiqotning metodologiyasi va jarayoni

Tadqiqotda 12 ta viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan 14-30 yoshdagi 4500 dan ortiq yoshlar miqdoriy va sifatli so'rovlar orqali qatnashdilar.



## Maqsadli auditoriya

Tadqiqotning maqsadli auditoriyasi mamlakatning 12 viloyatida, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashovchi, yoshi 14 yoshdan 30 yoshgacha oraliqda bo‘lgan yoshlardir. Ushbu keng aniqlangan yosh guruhining ehtiyoj va intilishlaridagi farqlarni hisobga olgan holda, tadqiqot davomida respondentlar tor yosh guruhlariga bo‘linishiga qaror qilindi, ya‘ni ular 14-18, 19-24 va 25-30 yosh guruhlariga taqsimlandi. Birinchi yosh guruhi odatda (14-18 yosh) o‘rta ta‘limga qatnaydigan o‘spirin va yoshlarni anglatadi. Ikkinchi yosh guruhi (19-24 yosh) o‘rta (oliy yoki kasb- hunar) o‘quv yurtlarida o‘qiydigan yoshlarni ifodalaydi. Uchinchi yosh guruhi odatda mehnat bozorida tajribaga ega bo‘lgan yoshlarni (25-30 yosh) nazarda tutadi.

Shaxsiy tarjimai hollarning haqiqiy xilma- xilligini aks ettirish uchun respondentlardan yoshi, shuningdek, hozirgi ta‘lim yoki ish bilan bog‘liq holatini ko‘rsatib o‘tish so‘raldi. Masalan, “endigina” 18 yoshga to‘lgan, ammo allaqachon o‘rta ma‘lumotni tamomlagan respondent talabalar yoki ishchilar guruhiga kiritilishi mumkin. Ushbu mantiqdan kelib chiqqan holda, tadqiqotda yoshidan qat‘i nazar, “ta‘lim olmaydi, ishlamaydi yoki kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmaydi”gan yoshlarni (NEET) o‘z ichiga olgan to‘rtinchi strata tadqiqotga kiritildi

## Ma'lumot yig'ish usullari va vositalari

Yoshlarning milliy tadqiqotida izchil, aralash yondashuv qo'llanilib, ikkita asosiy tarkibiy qismdan tashkil topgan: birinchi navbatda, planshetlar yordamida individual intervyular (TAPI) orqali o'tkazilgan miqdoriy so'rov va nozik masalalarga aloqador savollar uchun planshet yordamida mustaqil ravishda anketalarni to'ldirish (TASI); ikkinchidan, miqdoriy so'rovga qo'shimcha ravishda asosiy g'oyalarni namoyish etish, tasdiqlash, aniqlashtirish va chuqurlashtirish uchun bir qator maqsadli guruh munozaralaridan (MGM) sifatli ma'lumotlar olindi.

### Miqdoriy so'rov

#### Tadqiqot namunasi

Miqdoriy so'rov namunasi tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlov sifatida shakllandi. Uning tarkibiga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar kiritilgan. Tadqiqotga jami 4458 respondent, shu jumladan 14-18 yoshdagi 1464 respondent, 19-24 yoshdagi 1521 respondent va 25-30 yoshdagi 1473 respondent jalb qilindi.

14 yoshdan 30 yoshgacha so'rovda qatnashganlarning 38,4 foizi maktabda yoki litseyda, (kasb-hunar) kollejida yoki universitetda ta'lim olayotganlardir. Qo'shimcha ravishda, "ishchilar" toifasiga mansub respondentlar ham bor edi (24,5 foiz, 1093) va ishlamaydigan (na rasmiy, na norasmiy), ta'lim yoki o'qish bilan band bo'lmaganligini bildirganlar (NEET, 37,1 foiz, 1653) ham bor edi.

Respondentlarning etnik ko'rsatkichi quyidagicha:

- Respondentlarning 90,6 foizi o'zini o'zbek deb ta'riflagan
- Muayyan joylarda ko'p sonli ozchilik guruhlari mavjud edi: Qoraqalpog'istondagi respondentlarning 41,5 foizi o'zini qoraqalpog' deb tanishtirdi. Tojik respondentlar Jizzaxda (6,1 foiz), Toshkent viloyatida (8,2 foiz) va

Surxondaryoda (11,2 foiz) ro'yxatga olingan. Qozoq respondentlar Toshkent viloyatida (9,3 foiz) va Qoraqalpog'istonda (10,3 foiz) ro'yxatdan o'tkazilgan. Qirg'iz respondentlar Jizzaxda ro'yxatdan o'tgan (13,6 foiz).

### Tanlab olishning 1- bosqichi. Aholi turar joylarini / mahallalarni tanlash

Dastlabki tanlov birliklari yashash joylarida "mahalla" (mahalla jamoalari) deb nomlanuvchi kichik hududiy birliklardir. Butun mamlakat bo'ylab mahallalar ro'yxati Mahalla jamg'armasidan (barcha mahallalarning Markaziy qo'mitasi) olingan. Har bir yirik aholi punktida yakka mahallalar aniq chegaralangan va ular taxminan teng miqdordagi uy xo'jaliklari va aholining umumiy sonidan iborat.


Dastlabki tanlov birliklari / mahallalar ehtimolli usulda tanlab olingan. Dastlabki tanlov birliklari / mahallalar soni tanlab olingan uy xo'jaliklarining umumiy sonini 25 ga bo'lish orqali aniqlandi, natijada O'zbekistonning 12 viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi (68 qishloq mahallasi va 68 shahar mahallasini qamrab olgan) 136 mahalla bo'ylab tashrif buyurildi.

### Tanlab olishning 2-bosqichi. Uy xo'jaliklarini tanlash

Har bir mahallada 2019 yil boshida yangilangan uy xo'jaliklari ro'yxati olindi. Ro'yxatdagi uy xo'jaliklari intervyu o'tkazuvchilar tomonidan 1 dan n gacha bo'lgan tartibda (har bir mahalladagi uy xo'jaliklarining umumiy soni) raqamlangan. So'ngra tadqiqotda qatnashadigan har bir xonadonni tanlash muntazam ravishda tasodifiy tanlov orqali amalga oshirildi. Boshlang'ich tasodifiy raqam intervyu o'tkazuvchilarga milliy tadqiqot agentligi koordinatori tomonidan taqdim etildi.



## Respondentlarning profili



### GENDER

Respondentlarning 57,9 foizi (2,581) ayollar, 42,1 foizi erkaklar.

		Chastota	Foiz	Haqiqiy foiz
Haqiqiy	Erkaklar	1877	42.1	42.1
	Ayollar	2581	57.9	57.9
	Hamma	4458	100.0	100.0

### TURAR JOY TURI

Respondentlarning 48,2% (2,148) shahar hududida, 51,8% (2,310) esa qishloq hududida istiqomat qiladi.

		Chastota	Foiz	Haqiqiy foiz
Haqiqiy	Shahar hududi	2148	48.2	48.2
	Qishloq hududi	2310	51.8	51.8
	Jami	4458	100.0	100.0

### BANDLIK

14 yoshdan 30 yoshgacha so'rovda qatnashganlarning 38,4 foizi maktabda yoki litseyda, (kasb-hunar) kollejida yoki universitetda ta'lim olayotganlardir. Qo'shimcha ravishda, "ishchilar" toifasiga mansub respondentlar ham bor edi (24,5 foiz, 1093) va ishlamaydigan (na rasmiy, na norasmiy), ta'lim yoki o'qish bilan band bo'lmaganligini bildirganlar (NEET, 37,1 foiz, 1653) ham bor edi.

	Chastota	Foiz
Maktab, litsey o'quvchisi	1167	26.2
Kollej talabasi	392	8.8
Universitet talabasi	153	3.4
Ishchilar	1093	24.5
NEET	1653	37.1
Jami	4458	100

**1-JADVAL**

Dastlabki tanlov birliklari / mahallalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

Viloyat	Mahallalar soni		
	Umumiy	Shahar hududi	Qishloq hududi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8	4	4
Andijon viloyati	12	6	6
Buxoro viloyati	8	3	5
Toshkent shahri	11	11	0
Jizzax viloyati	6	3	3
Qashqadaryo viloyati	13	5	8
Navoiy viloyati	4	2	2
Namangan viloyati	11	7	4
Samarqand viloyati	15	5	10
Surxondaryo viloyati	10	4	6
Sirdaryo viloyati	3	1	2
Toshkent viloyati	14	7	7
Farg'ona viloyati	13	7	6
Xorazm viloyati	8	3	5
Jami	136	68	68

**Tanlab olishning 3- bosqichi.  
Respondentlarni tanlash.**

Har bir xonadondagi respondentlar ushbu uyda kamida so'nggi 6 oy davomida istiqomat qilgan va 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan barcha a'zolarni o'z ichiga olgan. Shu bilan birga, uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida yuqorida ko'rsatilgan turli yosh guruhlari bo'yicha alohida so'rovlarni bo'yicha so'rov o'tkazildi. Tanlangan uy xo'jaliklari va respondentlarni almashtirishga yo'l qo'yilmadi.

**Ma'lumot yig'ishga yondashuv**

Yoshlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish uchun yoshlarni tushunadigan va ana shu yoshlar ularni o'z tengdoshlari sifatida qabul qiladigan yosh intervyu oluvchilarni jalb qilish talab etiladi. Shu sababli tadqiqot yoshlar guruhlarini (18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlarni) tegishli yosh guruhlari uchun intervyu o'tkazuvchi sifatida jalb qildi. Bundan tashqari, O'zbekistonning o'ziga xos madaniy

me'yorlarini hisobga olgan holda, miqdoriy ma'lumotlarni yig'uvchilar, imkoni boricha, jinslar bo'yicha mutanosib juftliklarda ishladilar, shunda ayol intervyu o'tkazuvchilar qizlar va yosh ayollar bilan, erkaklar esa o'g'ilbolalar va yigitlar bilan suhbatlashdilar.

**Maqsadli guruhlardagi  
muhokamalar (MGM)**

Sifatli tadqiqot komponenti uchun namunalarni tanlash miqdoriy tadqiqot davomida aniqlangan tipologik toifalar bo'yicha ishlab chiqilgan. Umuman olg'anda, shahar va qishloq joylarini teng ravishda qamrab olgan holda O'zbekistonning quyidagi olti viloyatida: Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasida 24 maqsadli guruh muhokamalari o'tkazildi. MGMlar 120 dan 180 daqiqagacha davom etdi. Ular bir jinsli va 7-10 ishtirokchidan iborat yosh guruhlarida o'tkazildi (jami 195 ishtirokchi).

Har bir turar joyda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayollarning bitta guruhi va huddi shu yoshdagi erkaklarning bir guruhi bo'lgan; shuningdek, 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayollarning bitta guruhi va huddi shu yoshdagi erkaklarning guruhi bo'lgan. Shunga mos ravishda, ayollarning barcha maqsadli guruh muhokamalari ayol moderator tomonidan, erkaklar uchun maqsadli guruh muhokamalari erkak moderator tomonidan boshqarilgan.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalarning asosiy maqsadi milliy yoshlar tadqiqotining asosiy mavzulari bo'yicha turli yoshdagi qatnashchilarning tushunchasi, tasavvuri, mulohazasi va oqibatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iborat edi. Savolnomalarning natijalarini namoyish qilish, aniqlashtirish va yaxshilash uchun hikoya, muloqot, aniq misollar va voqealarning tafsilotlari yig'ildi. Shunday qilib, maqsadli guruh muhokamalari ayni vaqtda O'zbekistonda yoshlar duch kelishi mumkin bo'lgan kundalik hayotiy tajribalari,

muammolari va istiqbollari to'g'risida to'liqroq ma'lumot olish uchun qo'shimcha sifatli ma'lumotlarni taqdim etdilar.

Maqsadli guruh muhokamalari sinov tajribalaridan keyin va savolnomalarning ma'lumotini tahlil qilish natijasida dolzarb deb aniqlangan mavzular bo'yicha ochiq savollarni o'z ichiga olgan ko'rsatmalarga binoan o'tkazilgan. Ishtirokchilar o'rtasida jonli munozaralarni rag'batlantirish va ularning o'z nuqtai nazarlarini ochiq ifoda etishlari uchun MGM ishtirokchilari kichik ishchi guruhlariga bo'linib, butun guruh bilan mavzularning umumiy muhokamasidan oldin vizualizatsiya va bayonotlar tayyorladilar. Ishtirokchilarning roziligi bilan MGMLar audioyozuvga olindi. Ular o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida o'tkazildi. Keyinchalik MGM matnga o'tkazildi va rus tiliga tarjima qilindi. Va nihoyat, sifatli ma'lumotlar kontentini tahlil qilish yondashuvi bilan kodlandi va tizimlashtirildi.

## Tadqiqotning ahloqiy me'yorlari

Tadqiqotning ikkala tarkibiy qismi ham bolalar bilan tadqiqot olib boradigan milliy va xalqaro tashkilotlar rioya qiladigan bolalarni himoyalash siyosatiga asoslangan ahloqiy me'yorlar va ko'rsatma tamoyillariga, shuningdek UNICEFning "Bolalar ishtiroki bilan ahloqiy tadqiqotlar (2013 yil)" nomli nashrida bayon qilingan tamoyillarga amal qiladi. Miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni yig'ish davomida respondentlarni himoya qilish tamoyillari Institutsional ko'rib chiqish kengashi (IRB) tomonidan tasdiqlangan.

### Xabardor rozilik

Butun tadqiqot davomida respondentlardan so'rovda ishtirok etish yuzasidan xabardor rozilik olindi. Har bir intervyu va maqsadli guruh muhokamalaridan oldin yoshlarga ular o'zlari xohlagan vaqtda ishtirok etishdan voz kechishlari mumkinligi eslatilib turildi. O'smirlar va yoshlarga ular quyidagi huquqlarga ega ekanligi aytili:

- O'ylab ko'rib, ma'lumotlarni yig'ishda intervyu o'tkazuvchilarga yordam berishi borasida qaror qabul qilish;
- O'zlari uchun hech qanday oqibatsiz ishtirok etishdan voz kechish;
- Ba'zi savollarga javob berishni rad etish;
- Har qanday vaqtda intervyuni to'htatish;

Bundan tashqari, ishtirokchilarga quyidagi tartib-qoidalar to'g'risida so'zlab berildi:

- maqsadli guruh muhokamalaridan olingan barcha eslatmalar va audio-yozuvlar qulflanadigan joyda saqlanadi;
- har bir ishtirokchi noma'lum bo'lib qolishi uchun hisobotda va natijalar taqdimotida hech qanday ismlar ishlatilmasligi haqida.

Yoshi 18 yoshda va undan yuqori yoshdagi ishtirokchilar uchun ota-onalarning roziligi talab qilinmadi, ammo murojaat qilinganda birinchi aloqa qilgan odamlar ota-onalar bo'lgan bo'lsa, ular o'z farzandlarining ehtimoldagi ishtiroki haqida bilishlari uchun ularga so'rovnoma to'g'risida xabar berildi. Tadqiqotning birinchi bosqichi sifatida yosh odamning yoki ularning ota-onalarining xabardor roziligi olingan. Voyaga yetmagan ishtirokchilar uchun so'rovnoma yoki maqsadli guruh muhokamalarida qatnashishdan oldin ularning ota-onalarining roziligini olish, yoshlarning o'zlaridan rozilik olishdan tashqari, majburiy va qonuniy talab qilindi.

To'ldirilgan rozilik varaqalari "Ekspert fikri" mahalliy tadqiqot agentligida to'plandi va arxivga o'tkazildi. Axborot varaqalari ota-onalar / o'spirinlarda qoldi.

## Maxfiylik

Respondentlarni shaxsi himoyalangan. Respondentlarning ismlari va ularning bog'lanish ma'lumotlari ma'lumotlar bazasida va hisobotda tasvirlanmaydi.

Uy xo'jaligi asosida o'tkazilgan miqdoriy tadqiqot ishtirokchilari uchun tadqiqotning boshlanishidayoq maxfiylik tushuntirildi va ta'minlandi. Asosiy demografik ma'lumotlardan tashqari (masalan, yoshi, jinsi, turar joyi, millati) boshqa ismlar yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlar yig'ilmagan.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar ishtirokchilari uchun muhokamalar boshlanishidan oldin maxfiylik tushuntirilgan va ta'minlangan. Fasilitator sessiya paytida muloqotni osonlashtirish uchun qatnashchilarning ismlarini so'rashi mumkin edi, lekin ishtirokchilarga ularning asl ismlarini oshkor qilmaslik, balki o'zlari tanlagan har qanday taxallusni aytish imkoniyati berildi. Barcha audioyozuvli tasmlar kerakligicha to'g'ri saqlanadi va 3 yildan keyin yo'q qilinadi.

Fasilitatorlar maqsadli guruhlardagi muhokamalarni boshqa odamlar eshitmaydigan joylarda (masalan, mehmonxonalaridagi konferensiya xonalari, tadqiqot agentligining ofisidagi maxsus xona) ya'ni ularni va respondentlarni boshqa biron bir kishi eshitmaydigan joyda o'tkazishdi. Agar kattalar (o'qituvchi / ota-ona) kichik yoshdagi o'spiringa hamrohlik qilib birga kelgan bo'lsa, bu shaxs maqsadli guruhlardagi muhokamalar bo'layotgan xonadan uzoqda kutib turgan.

## Anonimlik

Ismni oshkor qilmaslik va o'rtoqlashilgan voqeadan shaxsni aniqlay olmaslik uchun barcha to'g'ridan-to'g'ri shaxsni tasdiqlaydigan omillar (ismlar, manzillar, telefon raqamlari) ma'lumotlar bazasidan o'chirildi, matn o'zgaruvchilari umumlashtirildi va hisobot jamoatchilikka chiqishdan oldin unda biron bir aniqlanadigan ma'lumot mavjud emasligi borasida UNICEF monitoring va baholash mutaxassilari tomonidan ko'rib chiqildi.

## Xavfsizlik

Tadqiqotning asosiy maqsadi yangi dalillarni yig'ish edi, ammo bu maqsad hech qachon alohida ishtirokchilar huquqlaridan ustun turmadi va ularni xavfli vaziyatga qo'ymadi. Tadqiqotni ishlab chiqish va o'tkazish paytida madaniy shart-sharoit, shu jumladan maqsadli guruh muhokamalarining bir guruh intervyu o'tkazuvchilari va yordamchilari tarkibi, qizlarni va yoshlarni ijtimoiy jihatdan obro'sizlantirmaslik uchun ularning shaxsiy intervyulari paytida ota-onalarning bo'lishi imkoniyati kabi omillar hisobga olingan.

Barcha tadqiqotchilar va intervyu o'tkazuvchilar ma'lumotni sifatli va miqdoriy yig'ish boshlanishidan oldin yoshlarga oid tadqiqotini o'tkazishni o'ziga xos xususiyatlari va tegishli axloqiy tamoyillar bo'yicha ko'rsatmalar olishdi. Bundan tashqari, intervyu o'tkazuvchilarning rahbarlari maslahat olish uchun UNICEF hamkasblari bilan doimiy aloqada bo'lishdi va joylarda kuzatuv safarlari o'tkazildi.

## Protection protocols

Ishtirokchilar yoki jamoalar tomonidan ko'tarilgan tashvish yoki shikoyatlar ehtimoliga kelsak, barcha ishtirokchilarga qo'shimcha

savollar, tashvishlar yoki shikoyatlar paydo bo'lsa, tadqiqot rahbarining - mahalliy tadqiqot agentligi vakilining - aloqa ma'lumotlari berildi.

## Vositalarni dastlabki sinovdan o'tkazish, tadqiqot guruhlarining o'qitilishi va dala ishlari sinovi

Ma'lumotlarni miqdoriy va sifatli yig'ishdan oldin intervyu o'tkazuvchilar va mintaqaviy supervayzerlar guruhi puxta o'qitildi va barcha tadqiqot vositalari oldindan sinovdan o'tkazildi va joylarda tajriba-sinovdan o'tkazildi. Ma'lumotlarni miqdoriy yig'ish bo'yicha mashg'ulotlar ikki kunlik seminardan iborat bo'lib, unda tadqiqotning maqsadi, o'ziga xos xususiyatlari, ma'lumotlar yig'ishdagi axloqiy yondashuv va ma'lumotlar kiritish tartibi namoyish etildi va muhokama qilindi. Barcha savolnomalar birgalikda o'qildi va har bir savol muhokama etildi. Shaxsiy intervyular modellashtirildi va yondashuvlar muhokama qilindi. Savolnomalar Toshkent shahridan taklif qilingan turli yoshdagi va jinsdagi yoshlar guruhi bilan oldindan sinovdan o'tkazildi.

O'qitishdan so'ng ma'lumotlar yig'ishning butun jarayoni, shu jumladan, mahalladagi uy ho'jaliklari ro'yxatini olish, uy xo'jaliklarini tasodifiy tanlash, uy ho'jaliklaridagi respondentlarni tanlash va so'rov, Toshkent shahridagi ikkita turar joyda turli yoshdagi yoshlar bilan tadqiqot agentligining tadqiqot rahbari, UNICEFning monitoring va baholash mutaxassislari va tadqiqot koordinatori nazorati ostida sinovdan o'tkazildi. Sinov tadqiqotlari miqdoriy tadqiqot namunasiga kiritilmagan

Maqsadli guruh muhokamalarini o'tkazishdan oldin uchta intervyu o'tkazuvchilar (ikkita ayol va bitta erkak) va ularning yordamchilaridan iborat guruh ham tayyorlov o'qishida qatnashdi. Maqsadli guruh muhokamalarining maqsadlari va yondashuvi muhokama qilindi. MGM qo'llanmasidagi barcha savollar birgalikda o'qildi va muhokama qilindi, va barcha tillarda tegishli iboralar kelishib olindi. O'quv mashg'ulotidan so'ng maqsadli guruh muhoqamalari Toshkent shahridan taklif qilingan 14-18 yoshdagi o'g'il bolalar guruhi va Toshkent viloyatidan taklif etilgan 19-24 yoshdagi ayollar bilan, UNICEFning xalqaro maslahatchisi, tadqiqot koordinatori va UNICEFning tadqiqot agentligining tadqiqot bo'yicha rahbari nazorati ostida sinovdan o'tkazildi. Sinov tariqasida o'tkazilgan maqsadli guruh muhokamalari sifatli tadqiqot namunasiga kiritilmadi.

## Ma'lumotlar yig'ilishini nazorat qilish

Nazorat doimiy ravishda ta'minlandi. Dala ishlarining dastlabki ikki haftasida kuzatuv tadqiqot agentligining tadqiqot rahbari, UNICEFning monitoring va baholash mutaxassislari va UNICEFning tadqiqot koordinatori tomonidan puxta o'tkazildi. Joylarga monitoring tashriflari kuzatish, yig'ilgan ma'lumotlarning sifatini ta'minlash va boshidanoq axloqiy

tartib-qoidalarga rioya qilishda barcha muammolarni aniqlash va hal qilishga yordam berdi. Bundan tashqari, tadqiqot agentligi har bir mintaqada so'rovnomalarning to'g'ri tartibiga rioya qilinishini ta'minlaydigan rahbarlarni tayinladi. Ular tadqiqot agentligining tadqiqot rahbari va UNICEFning koordinatori bilan doimiy aloqada bo'lishdi.


## Ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish

### Ma'lumotlarni kiritish

Individual intervyu va yoshlar savollarga mustaqil javob berishi orqali to'plangan miqdoriy ma'lumotlar avtomatik ravishda Internetga ulangan planshetlardan bulutdagi ma'lumotlar bazasiga o'tkazildi. Dala sharoitida Internetga ulanish imkoniyati bo'lmagan holatda intervyu

o'tkazuvchi barcha yig'ilgan ma'lumotlarni ish kunining oxirida bulutga yukladi.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar paytida yoshlarning javoblari audioyozuvda saqlanib olindi. Keyin yozuvlar qog'ozga o'tkazildi va rus tiliga tarjima qilindi.



## Data monitoring

Planshetlardan bulutga yuklangan intervyu ma'lumotlari tadqiqot agentligi mutaxassisi tomonidan doimiy ravishda kuzatib borildi. Muntazam yoki vaqti-vaqti bilan xatolar yuz bergan taqdirda, intervyu o'tkazuvchi va mintaqaviy nazoratchiga muammo yana takrorlanib qolmasligi uchun darhol xabar berildi. Intervyu o'tkazuvchi to'g'rilashi mumkin bo'lgan xatolar uchun intervyu o'tkazuvchi hali o'sha turar joydan ketmasidan oldin hal qilishlari yoki xatoni tuzatish uchun turar joyga qaytishlari talab qilindi. Yig'ilgan ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash uchun tadqiqot agentligi mutaxassisi shuningdek intervyu o'tkazuvchilarning joylashuvi va har bir suhbatning davomiyligini doimiy ravishda kuzatib bordi. Juda qisqa intervyular bo'lsa, tadqiqot rahbari respondentlarga qo'ng'iroq qilib, suhbat jarayoni va berilgan savollar haqida so'radi. Agar protokol jiddiy ravishda buzilgan bo'lsa, yana suhbatlar o'tkazildi va intervyu o'tkazuvchilar almashtirildi.

## Ma'lumotlarni tahlil qilish

Ta'riflovchi statistik ma'lumotlar yoshlarning barcha tanlovlari bo'yicha va yoshi, kasbi, jinsi va yashash joyi bo'yicha ajratilgan holda hisoblab chiqilgan. Dalilarni tahlil qilish Stata 15-versiya dasturi yordamida amalga oshirildi. Barcha natijalarning statistik aniqligi 95 foizli ishonch oralig'i yordamida baholandi.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalarning transkriptlari MAXQDA2020 deb nomlangan ma'lumotlarni sifatli tahlil qilish dasturiga import qilindi. MGM bo'yicha qo'llanmasining bo'limlari asosida va (2) tadqiqot ishtirokchilarining javoblarini hisobga olgan holda, har bir stenogrammaning qisqacha xulosasi tuzildi va barcha maqsadli guruhlardagi muhokamalar kodlandi (1). Bu mavzuga asoslangan tahlilni va barcha maqsadli guruhlardagi muhokamalar transkriptlarida tarkibni tizimlashtirish ta'minlandi. Shu asnodda tadqiqot natijalarini umumlashtirish va asosiy tushunchalarni batafsil tasvirlash o'rtasida muvozanatga erishish mumkin bo'ldi.

## Cheklovlar

Tadqiqotda O'zbekiston yoshlari o'z hayotining muhim sohalarida duch keladigan muammolari va istiqbollari haqida yoshlar nuqtai nazaridan birinchi keng sharh berilgan. Biroq, uni quyidagi cheklovlarni hisobga olgan holda o'qish kerak:

- Loyihaga ko'ra, tadqiqot oldindan belgilab qo'yilgan muammoli sohalariga e'tibor qaratishni emas, kundalik hayotning barcha asosiy sohalarida yoshlar duch keladigan muammolar va istiqbollar haqida umumiy ma'lumot berishni maqsad qilgan. Maqsadli guruhlardagi muhokamalar miqdoriy tadqiqotda yoshlarning o'zini-o'zi anglashida asosiy o'rinni egallaydi, deb aniqlangan sohalarida batafsil hikoyalarni yig'ishga imkon berdi.
- Loyihaga ko'ra tadqiqot 14-30 yoshdagi yosh aholini qamrab olishga qaratilgan bo'lib, zaif yoshlarga alohida e'tibor berilmagan. Yoshlar tasodifiy tanlab olindi, nogiron yoshlar, OIV bilan kasallangan yoshlar yoki O'zbekiston tashqarisidagi mehnat muhojirlari kabi zaif yoshlarga murojaat qilish uchun hech qanday harakatlar qilinmadi.
- Tadqiqotning miqdoriy qismi uy xo'jaliklari darajasida o'tkazildi. Biroq, yoshlar tadqiqotlarini o'ziga xos xususiyatlari va shaxsiy suhbatlar vaqtini iloji boricha qisqa vaqt ichida o'tkazishni hisobga olgan holda, uy xo'jaligi bo'yicha ma'lumotlar yig'ilmadi. Shunday qilib, tahlil uy xo'jaliklari bo'yicha taqsimlangan ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi.
- Yuqorida muhokama qilingan metodologiya va tadqiqot jarayoni davomida ma'lumotlarning ijtimoiy maqsadga muvofiqligini oldini olish bo'yicha barcha zarur harakatlar amalga oshirildi. Biroq, miqdoriy ma'lumotlarni dastlabki tahlilidan so'ng va natijalar hukumat tomonidan ommaviy tarzda ko'tarilayotgan muammolar, UNICEFning avvalgi tematik tadqiqotlari xulosalari va 2018-2019 yillarda o'tkazilgan yoshlar maslahatlashuvlari xulosalari bilan solishtirilgandan keyin, ayrim javoblar, mavjud ta'lim va turmush sharoitlaridan qoniqish haqidagi savollarni inobatga olgan holda, noxolisona bo'lib chiqdi. Ushbu dalilga asoslanib, maqsadli guruhlardagi muhokamalar savollari va usullari yoshlarning chuqur, xolis qarashlarini olish uchun ishlab chiqildi.



- Maqsadli guruh muhokamalari bo'yicha javoblarni taqqoslash o'lchovini ta'minlash uchun tadqiqotda sinov tekshirishlar va moderatorlarning mashg'ulotlaridan so'ng tuzatilgan savollar bo'yicha ko'rsatmalarga asoslandi. Bundan tashqari, jami 24 ta maqsadli guruhlardagi muhokamalar joylar va ishtirokchilar bo'yicha O'zbekiston hududlaridagi mintaqaviy farqlarni inobatga olishi uchun (umumiy hisobda jami oltita viloyatda o'tkazilgan) teng ravishda shahar va qishloq turar joylarini qamrab oldi. Ishtirokchilar guruhlarini jinsi bo'yicha bir toifa (ayollar va erkaklar bilan muhokamalar alohida o'tkazildi) va boshqarish yoki yosh

va gender iyerarxiyasi bo'yicha o'z so'zini o'tkazish xavfini kamaytirish maqsadida yoshlar o'rtasida ahamiyatsiz farqlarga yo'l qo'yildi (14-18 yoshdagi yoshlar 19- 24 yoshdagi ishtirokchilardan alohida bo'lgan). Mos ravishda, erkak hamkasb erkaklar uchun maqsadli guruhlardagi muhokamalarni boshqargan, ayol hamkasb esa ayollar uchun maqsadli guruhlardagi muhokamalarga yetakchilik qilgan.



# 4

## Natijalar

Ta'lim va o'qitish Kasbiy  
hayot va iqtisodiy imkoniyatlar  
Ijtimoiy integratsiya Yashash  
joyi va mobillik Jamoatchilik  
ta'siri Raqamli hayot va  
Internet Tashvishlar, Bo'sh  
vaqt va Yoshlikning tugashi

## 4.1

# Ta'lim va o'qitish



### Asosiy hulosalar

- Garchi O'zbekistondagi aksariyat yoshlar hozirgi ta'lim infratuzilmasidan mamnun ekanliklarini bildirsalar-da, shahar markazlariga qaraganda, qishloq joylarda vaziyat unchalik yaxshi emas.
- Talabalar/o'quvchilar o'zlarining o'qish muhitlari yanada ijobiy turtki berishini, amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishini va sifatli ta'lim berilishini xohlaydilar (xususan, til ko'nikmalari, ishbilarmonlik savodxonligi va kasbiy hayotga tayyorgarlik borasida).
- Tadqiqot ishtirokchilari ta'kidlashlaricha, ta'lim harajatlari stress va ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. Yoshlar hususiy repetitora pul to'lash, pora va oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun yuqori to'lovlar kabi harajatlarni qayd etishdi.



**“So‘rovnomada ta‘lim infratuzilmasi butun O‘zbekiston bo‘ylab yoshlarning aksariyati tomonidan qoniqarli deb baholandi. Bunga o‘quv binosi (91,1 foiz qoniqadi) va uning sanitariya inshootlari (72,6 foiz qoniqadi), o‘qituvchilar faoliyati (94,7 foiz qoniqadi) va o‘quv materiallari bilan ta‘minlanganlik (95,0 foiz qoniqadi) qiradi.”**

## Tegishlilik (mansublik) hissi

Yoshlarning ta‘lim muassasalariga mansubligi bilan bog‘liq holda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 26,7 foizi bunday aloqani sezmaydi, 69,3 foizi

esa sezadi. Shahar yoshlarining ta‘lim muassasalariga tegishli bo‘lish hissi qishloq joylaridagi yoshlarga qaraganda bir oz kuchliroqdir.

## Moddiy sharoitlar

O‘quv muassasalarida ta‘minlangan moddiy sharoitlar tadqiqot ishtirokchilari orasida bir xil bo‘lmagan holda aks ettirilgan.

**So‘rovnomada ta‘lim infratuzilmasi butun O‘zbekiston bo‘ylab yoshlarning aksariyati tomonidan qoniqarli deb baholandi.** Bunga o‘quv binosi (91,1 foiz qoniqadi) va uning sanitariya inshootlari (72,6 foiz qoniqadi), o‘qituvchilar faoliyati (94,7 foiz qoniqadi) va o‘quv materiallari bilan ta‘minlanganlik (95,0 foiz qoniqadi) qiradi.

Aksariyat noroziliklar kompyuter resurslari va Internetdan foydalanish imkoniyati bo‘yicha bildirildi, qishloqdagi yoshlarning 30,4 foizi va shaharlardagi yoshlarning 21,3 foizi maktabda

umuman Internetga kirish imkoniyati yo‘qligini ko‘rsatdi (“Raqamli hayot va Internet” bo‘limiga qarang).

Moddiy sharoitlar haqida gap ketar ekan, maqsadli guruhlardagi muhokamalar moddiy sharoitlar qishloq joylarida shahar markazlariga qaraganda unchalik qulay emasligini ko‘rsatdi.

Qashqadaryo viloyatidan bo‘lgan 16 yoshli maktab o‘quvchisi buni aniq bayon qildi: “Yomon maktablar asosan hozir qishloqlarda mavjud bo‘lgan maktablardir. Bizda isitish tizimi ishlamaydi, qish paytida sovuq bo‘ladi. Sinflarda partalar yetishmaydi, hojatxonalar yomon ahvolda. Bizda kompyuterlar bor, lekin ular asosan ishlamayapti”.

## O'qitish sifati va zarur ko'nikmalar

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar ishtirokchilarining fikriga ko'ra, o'qitish sifatini ko'p qirrali muammo va yoshlar orasida umumiy tashvish sifatida aniqlash mumkin.

Ba'zi respondentlar ta'limdagi muvaffaqiyat faqat shaxsiy harakatlarga bog'liq bo'ladi degan fikrni bildirishdi. Ushbu munosabat Farg'ona viloyatidan 19 yoshli yigit, kollej o'quvchisining ushbu iqtibosida yaxshi aks etgan: "Hamma narsa odamning o'ziga bog'liq. O'qituvchilar bizga barcha bilimlarni berishadi, qiziqish bizning o'zimizga bog'liq."

Aksincha, boshqa ko'plab yoshlar ularni o'qituvchilari ko'proq asoslantirishlarini xohlashdi. Tadqiqot qatnashchilarining ko'ngilsizliklari, ayniqsa, qiziqishsiz va yuqori malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilardan kelib chiqqan, ular ba'zan o'quvchilarni oliy ma'lumot olish bo'yicha keyinchalik

qiziqishlariga ochiqchasiga to'sqinlik qilishadi; yoki "ularga yaxshi o'qish kerak" kabi odatiy gaplarni takrorlash bilan o'quvchilarni asoslantirishni cheklab qo'yishadi.

Farg'onada o'tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalarda ushbu 18 yoshli kollej talabasi o'z tushunchasi bilan o'rtoqlashdi: "Yaxshi maktab - bu yaxshi o'qitish, ijtimoiy tarbiya, tartib-intizom, bilim va ... o'zaro hurmatdir".

Ushbu respondent o'quvchilar/talabalar ta'lim sifati va ijtimoiy tartib o'rtasidagi muvozanatni saqlash samarali o'rganish uchun muhim deb bilishini ko'rsatdi. Darhaqiqat, ko'plab tadqiqot ishtirokchilari aniqlikni (puxtalikni) muloqotning odob-axloq qoidalari va shuningdek, doimiy davomat yoki tashqi ko'rinish to'g'risidagi qoidalarni (masalan, to'g'ri maktab formasi orqali) amalga oshirish zarurligini ta'kidladilar.

**“Ushbu respondent o'quvchilar/talabalar ta'lim sifati va ijtimoiy tartib o'rtasidagi muvozanatni saqlash samarali o'rganish uchun muhim deb bilishini ko'rsatdi.”**



Shu bilan birga, MGM ishtirokchilari o'qituvchilarga nisbatan ochiqchasiga tanqidiy munosabatda bo'lishdi, o'qituvchilar bilim berishga e'tibor berish o'rniga, nomutanosib ravishda intizom va jazo choralarini qo'llashga va shaxsiy hayotga tajovuzkorona aralashgan (masalan, qizlar qoshlarini terish yoki tirnoqlarini bo'yash kerakmi yoki yo'qmi degan gaplar bilan).

Yoshlar o'zlarining shaxsiy rivojlanishlari uchun qanday bilim va ko'nikmalarga muhtoj ekanliklari to'g'risida bir qarorga kelishdi, ammo hozirda ushbu bilim va ko'nikmalar ularga yetarli darajada ta'minlanmayapti.

So'rovnoma respondentlari o'zlarining ta'lim muassasalari ularni kelajkkka ikkita alohida yo'nalishda yetarli darajada tayyorlay olmasligini ta'kidladilar: "moslashish va turli vaziyatlarda moslashuvchan bo'lish" (10,9 foiz) va "yetakchilik qobiliyatini" rivojlantirish (16,9 foiz).

O'rta ta'lim muassasalarida deyarli ommaviy tarzda o'qishga qabul qilinishiga qaramay, ko'pchilik o'quvchilar hozirgi paytda o'z bilimlarini "qo'llash" va fikrlash<sup>5</sup> uchun foydalanish qobiliyatlari bo'yicha kutilgan o'quv standartlaridan pastroq natijalarga erishmoqdalar.

Ish beruvchilar o'z xodimlarining mahoratidan qoniqish hosil qilmayapti, ayniqsa, "o'z harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish", "o'zini-o'zi rag'batlantirish" va "ijodkorlik" kabi kognitiv bo'lmagan ko'nikmalar bo'yicha.<sup>6</sup>

Yetakchilik qobiliyatining yetishmasligi yoshi kattaroq guruhlar tomonidan (19-24 yoshdagilar = 19,2 foiz; 25-30 yoshdagilar = 21,6 foiz) nisbatan yoshroq guruhlarga (14-18 yoshdagilar = 9,8 foiz) nisbatan ko'proq qayd etildi.

**"Yaxshi maktab - bu yaxshi o'qitish, ijtimoiy tarbiya, tartibintizom, bilim va ... o'zar o hurmatdir."**

– Farg'onalik 18 yoshli kollej talabasi



5. UNICEF (2019 yil)

6. E'jad va boshqalar (2014 yil)



“Garchi ular [rus tilining yosh o‘qituvchilari] rus tili fakultetini bitirmagan bo‘lsalar ham, ularga ushbu fan [fanni o‘qitish] tayinlangan edi... Va ular rus tilining grammatikasini allaqachon biladigan 6--7 sinf o‘quvchilariga dars o‘tishadi. Jiyanim menga [maktabida] geografiya o‘qituvchisi rus tilini yaxshi bilmasa ham, rus tilidan dars berishini aytdi.”

Farg‘onalik 18 yoshli kollej talabasi

**Tillarni bilish darajasiga kelsak, maqsadli guruhlardagi muhokamalar ishtirokchilari ingliz tilida, ammo bundan ham ko‘proq rus tilida bilimlari kam ekanligini ta’kidladilar.** Xususan, rus tilini bilish yoshlar tomonidan mahalliy darajada yaxshiroq ishga kirish va ba‘zan daromad olish varianti yoki manbai sifatida ko‘riladigan Rossiyaga mehnat migratsiyasi uchun ham zarur deb hisoblanadi.

Shunday qilib, rus tili bo‘yicha malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi tadqiqot qatnashchilari orasida keng tarqalgan va ahamiyatli tashvishdir. Farg‘onalik 18 yoshli kollej talabasi bo‘lgan qizning sharhi bunga misol bo‘la oladi: “Garchi ular [rus tilining yosh o‘qituvchilari] rus tili fakultetini bitirmagan bo‘lsalar ham, ularga ushbu fan [fanni o‘qitish] tayinlangan edi ... Va ular rus tilining grammatikasini allaqachon biladigan 6-7 sinf o‘quvchilariga dars o‘tishadi. Jiyanim menga [maktabida] geografiya o‘qituvchisi rus tilini yaxshi bilmasa ham, rus tilidan dars berishini aytdi”.



**MGM ishtirokchilari aks ettirgan yana bir intilish o'zlarining ishbilarmonlik savodxonligini oshirishdir.** O'zbekistondagi ko'plab yoshlar o'zlarini davlat yoki xususiy sektorda ishga joylashish imkoniyatlariga shubha bilan qarashganligi sababli, ular (kichik biznes) tadbirkorlik sub'yektlari, masalan, kredit olishning amaliy jihatlari to'g'risida ko'proq ma'lumot olishga yoki mijozlar bazasini yaratishga ("Kasbiy hayot va iqtisodiy imkoniyatlar" bo'limiga qarang) qiziqish bildirishdi.

**Qashqadaryolik 22 yoshli yigitning so'zlari bilan aytganda:**  
**"Xususan, hududlarda dasturlash darslari kerakli tarzda o'qitilmaydi. Biz Excel, Word kabi oddiy dasturlardan qanday foydalanishni bilmas edik ..."**

**MGM ishtirokchilari ta'kidlashlaricha, o'qitish yondashuvlari aksariyat hollarda nazariy va amaliy yo'naltirilgan bo'lmaydi.**

Ushbu tanqid ko'plab ta'lim va o'qitish sohalarini, shu jumladan tibbiyot va muhandislik kasblarini qamrab olgan bo'lsa- da, asosan kompyuter ko'nikmalari haqidagi masala juda dolzarb bo'ldi. Ishtirokchilarning ta'kidlashicha, xususan, qishloq joylarda ishlaydigan kompyuterlarning yetishmasligi tufayli, darslar o'quvchilarning yarmi uchun nazariy mashg'ulotlar tarzida, qolgan yarmi uchun esa amaliy qismga bo'lingan holda o'tiladi.

Bundan tashqari, tadqiqot qatnashchilarining fikrlari yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirishga bo'lgan qiziqishning yuqori darajasi va so'nggi dasturlarga o'rgatishi mumkin bo'lgan o'qituvchilarning kam soni o'rtasida sezilarli uzilishni aks ettirdi.



Qashqadaryolik 22 yoshli yigitning so'zlari bilan aytganda: "Xususan, hududlarda dasturlash darslari kerakli tarzda o'qitilmaydi. Biz Excel, Word kabi oddiy dasturlardan qanday foydalanishni bilmas edik ..."

**MGMda ishtirok etgan yoshlar, umuman olg'anda, mahalliy ta'lim muassasalari ularni ishchi muhitda o'zini qanday tutish va kasbiy hayotdagi qiyinchiliklarni qanday yengish kerakligiga tayyorlamasligini ta'kidlashdi.** Bu borada bir qator ishtirokchilar "chaqqon" bo'lish O'zbekistonning hozirgi mehnat bozorida rivojlanish uchun hal qiluvchi yumshoq ko'nikma bo'lishini ta'kidladilar. Chaqqonlik,

tezkor fikrlash va o'ziga ishonish kabi shaxsiy fazilatlar MGM ishtirokchilarining fikriga ko'ra, qishloq aholisiga qaraganda, ko'proq shahar aholisi orasida keng tarqalgan.

16 yoshli farg'onalik yigit qarindoshi haqida hikoyasi bilan o'rtoqlashib, o'z qarindoshini a'lochi, ammo uyatchan shaxs sifatida tasvirlagan: "U buxgalter sifatida ish topdi. Ammo uyatchanligi tufayli sharoitlarga moslasha olmadi va o'zining barcha qobiliyatini namoyish qila olmadi. Shuning uchun, ikki oydan so'ng ish joyida unga ishdan bo'shatilganligini va ularga yanada chaqqonroq odam kerakligini aytishdi. Hozir u hali ham ishsiz".



**“MGMda ishtirok etgan yoshlar, umuman olg'anda, mahalliy ta'lim muassasalari ularni ishchi muhitda o'zini qanday tutish va kasbiy hayotdagi qiyinchiliklarni qanday yengish kerakligiga tayyorlamasligini ta'kidlashdi.”**

## O'qishning turli manbalari

### Tadqiqot yoshlar o'qish va bilim orttirishning muqobil manbalariga qiziqishlarini va ularga murojaat qilishlarini ko'rsatdi

MGM davomida ko'plab ishtirokchilar davlat muassasalarida o'qitishning yetarli bo'lmagan sifatini qoplash va o'zlarining universitetlarga kirish imkoniyatlarini oshirish uchun xususiy repetitorlarning xizmatlaridan foydalanganliklari aniqlandi. Repetitorlarni tanlash, odatda, yosh odam intilgan o'quv dasturi yoki kasbiga yo'naltirilgan bilimni qoplash uchun o'rin oladi, masalan, tibbiy yo'nalish uchun biologiya va kimyo, yoki muhandislik yo'nalishi uchun matematika.

Farg'onalik 19 yoshli bir yigit buni aniq xulosa qildi: "Maktabda hozir o'z fanini yaxshi bilmaydigan o'qituvchilar bor. Ular tufayli maktab o'quvchilari kam bilimga ega bo'lmoqda, ota-onalar esa farzandlari qo'shimcha bilim olishi uchun pul sarflashga majbur bo'lmoqdalar [ya'ni, repetitorlik]".

Tadqiqot ishtirokchilarininig fikriga ko'ra, hususiy repetitorlar davlat maoshini oladigan o'qituvchilarga qaraganda yaxshiroq ishlaydi (garchi ba'zi o'qituvchilar ham o'qituvchi, ham repetitor sifatida ishlasa ham). Bundan tashqari, shahar markazlaridagi repetitorlar qishloqdagilarga qaraganda yuqori malakali degan obro'ga ega.

MGM ishtirokchilarining hikoyalari shuni ko'rsatdiki, oilalar o'z farzandlari uchun xususiy o'qituvchilarga "borish" imkoniyatini yaratish uchun katta sa'y-harakatlar qiladilar. Yo'lga sarf qilinadigan vaqt jamoat transportida 1 soatdan ko'proq bo'ladi va ba'zida har bir kishi uchun harajatlar oyiga 30 dollardan oshadi.

Andijon viloyatining qishloq joyidan bo'lgan 16 yoshli qiz bu haqda quyidagicha fikr bildirdi: "Bitta mavzu bo'yicha repetitorga yetib borishimiz uchun bizga uchta mashina kerak (ya'ni, uch marta bitta marshrutkadan boshqasiga chiqish kerak). Bundan tashqari, biz 100000 so'm to'laymiz (taxminan, repetitor uchun (oyiga) \$ 10), bir yilda bu 1,5 million so'mni tashkil etadi (taxminan, 150 dollar). Agar bundan keyin siz o'qishga kira olmasangiz, demak, ushbu barcha sarf- harajatlar behuda ketgan bo'ladi".

Shularni inobatga olgan holda, MGMLarning ko'pgina ishtirokchilari arzon, sinfdan tashqari o'qitiladigan "to'garaklar" yaqin atrofda bo'lishini istashdi ("Jamoat ta'siri" bo'limiga qarang).

Ta'limni davom ettirish to'g'risida so'z yuritilganda, MGM ishtirokchilari turli muassasalarga o'qishga kirish va o'qish uchun zarur bo'lgan pora berishni muhokama qilishdi. MGM ishtirokchisi bo'lgan qizlardan biri Farg'ona viloyatidagi universitetga o'qishga kirish uchun 3000 AQSh dollari kerakligini aytdi. Boshqa bir qiz bola esa ishtirokchi guruhni Samarqandda universitetga kirish uchun bunday pora 5000 dollarni tashkil qiladi, deb ishontirdi.

Samarqanddagi bir kollejda kuzatilgan vaziyatni 18 yoshli yigit aniq tasvirlab berdi: "4 [ikkinchi eng yuqori baho] olish uchun siz ma'lum miqdorni to'lashingiz kerak; 5 [eng yuqori daraja] bundan ham qimmatroq. Kollejga umuman kelmaydiganlar bor va ular 3 [uchinchi yuqori baho] olish uchun pul to'lashlari kerak. Ba'zilar ishlaydi va darslarga kela olmaydi. Ular 100 dollar atrofida to'laydilar, keyin bir yil davomida darslarga qatnashmasliklari mumkin".

**“Universitetga o‘qishga kira olmaganimdan so‘ng, kayfiyatim tushib ketdi. Keyinchalik bu holat ishga ham ta’sir qiladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz va universitetga o‘qishga kira olmasangiz, bu sizni umuman izdan chiqaradi. “Men kira olmadim” degan fikr hayolingizda doimiy ravishda aylanadi. Va siz ruhiy tushkunlikka, depressiyaga tushasiz. Bu holat ish qobiliyatingizni pasaytiradi. Inson sust, passiv bo‘lib qoladi, bilimini oshirish imkoniyatini yo‘qotadi, chunki keyingi yili yana o‘qishga kira olmayman, deb o‘ylaydi. Inson o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini.**

– yo‘qotadi” Qoraqolpog‘istonlik 23 yoshli yigitning so‘zlari.



Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish to‘lovlari katta. Masalan, andijonlik 22 yoshli bir yigit o‘z mintaqasidagi universitetda o‘qish narxi 14 million so‘m bo‘lishini aytdi [taxminan.. 1400 dollar]. “Super-shartnoma” ni to‘lash uchun yanada ko‘proq moliyaviy imkoniyatlar zarurligi haqida xabar berilgan edi, bu esa bilim bo‘yicha talablarga javob bermaydigan talabalarga odatdagidan 10 baravar yuqori to‘lovlarni to‘lash orqali oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishga imkon beradi.

Ko‘pchilikning qurbi yetmaydigan xususiy darslar olish, pora berish va ta’lim uchun to‘lov qilish kabilarning barchasi bilim berishning pulga asoslangan tizimining ifodasidir. Ushbu haqiqat yoshlarning kelajakdagi imkoniyatlarini oilasining hozirgi iqtisodiy qobiliyati bilan uzluksiz bog‘laydi va bu bilan ularning intilishlari va ijtimoiy harakatchanligi yo‘lida to‘siqlar yaratadi.

Ta’limning pulga asoslanganligi hamda ta’lim olish va ishga kirish imkoniyatlari “yaxshi aloqalarga ega bo‘lish” darajasiga bog‘liqligi yoshlarda stress holatini va umidsizlikni keltirib chiqaradi.

MGM davomida ishtirokchilar oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kira olmagan taqdirda o‘zlari va oilalari oldida haqiqiy va xayoliy umidsizlikka tushib qolishlari haqida xabar berishdi.

2019 yilda O‘zbekistonda oliy ta‘lim bilan qamrov 20 foizni tashkil qilgan.<sup>7</sup>

Resurslarga ega bo‘lish jiddiy muammolarga bog‘liq:

- shaharlarda yashovchi odamlar qishloqlarda yashaydigan odamlarga nisbatan ikki barobar ko‘proq oliy ma‘lumotga ega bo‘lishadi (22% bilan 9% ni taqqoslaganda).<sup>8</sup>
- 25-30 yoshdagi kam daromadli kvintil tarkibidagi yoshlarning atigi 3 foizi oliy ma‘lumotli bo‘lgan, eng badavlat kvintilning vakillari esa 23 foizi.<sup>9</sup>
- O‘zbekiston universitetlarida o‘qiyotgan talabalarning atigi 37 foizini ayollar tashkil etadi.<sup>10</sup>

“Universitetga o‘qishga kira olmaganimdan so‘ng, kayfiyatim tushib ketdi. Keyinchalik bu holat ishga ham ta‘sir qiladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchrasangiz va universitetga o‘qishga kira olmasangiz, bu sizni umuman izdan chiqaradi. “Men kira olmadim” degan fikr hayolingizda doimiy ravishda aylanadi. Va siz ruhiy tushkunlikka, depressiyaga tushasiz. Bu holat ish qobiliyatingizni pasaytiradi. Inson sust, passiv bo‘lib qoladi, bilimini oshirish imkoniyatini yo‘qotadi, chunki keyingi yili yana o‘qishga kira olmayman, deb o‘ylaydi. Inson o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi”.

Qizlar uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlardan biri shundan iboratki, ular bunday “muvaffaqiyatsizlik” ta‘sirida ko‘p o‘tmay turmushga uzatiladi. Farg‘onalik 14 yoshli maktab o‘quvchisining so‘zlari bilan aytganda: “Hozir ota-onalar qizlariga shart qo‘yishadi, agar u universitetga o‘qishga qirsa, keyinchalik o‘qiydi va shundan so‘ng ishlaydi. Agar o‘qishga kira olmasa, unda uni maktabni tugatgandan so‘ng darhol turmushga berib yuborishadi”.

Biroq, MGM davrida ma‘lum bo‘lgan bir nechta holatlar ota-onalarning farzandlari bilan birdamligi haqida darak beradi. Uzluksiz ta‘limning mushkul to‘sig‘ini yengish uchun bir necha bor urinishlar.



**“Hozir ota-onalar qizlariga shart qo‘yishadi, agar u universitetga o‘qishga qirsa, keyinchalik o‘qiydi va shundan so‘ng ishlaydi. Agar o‘qishga kira olmasa, unda uni maktabni tugatgandan so‘ng darhol turmushga berib yuborishadi”**

– Yosh ayollar uchun o‘qishga kira olmasliknin oqibatlaridan biri ular bu kabi “yiqilishdan” so‘ng turmushga uzatilishi mumkin. Farg‘onalik 14 yoshli qizning so‘zlari.

7. O‘zA (2019 yil)  
8. O‘zbekiston Hukumati (2018 yil)  
9. UNICEF (2018 yil)  
10. Jahon banki (2018 yil)

## 4.2

# Kasbiy hayot va iqtisodiy imkoniyatlar


## Asosiy hulosalar

- 19 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan respondentlar orasida ta'lim olmaydigan, ishlamaydigan yoki kasbiy o'qish (NEET) bilan shug'ullanmaydigan yoshlarning soni havotirlanarli 54,6 foizni tashkil qiladi. Gender farqiga kelsak, NEET darajasi ayollar uchun 74,0 foizni tashkil etadi, erkaklar uchun esa bu ko'rsatkich 24,8 foizga teng.
- O'zbekistondagi yoshlar o'z kasblarini o'zlari tanlashni (ota-onalari emas), shuningdek, mehnat "munosib daromad" keltirishini va o'z mehnat hayotida qo'llab- quvvatlovchi hamkasblar "jamoasi" ichida bo'lishni istaydilar.
- Yosh ayollarning o'z daromadlariga ega bo'lish intilishlariga to'sqinlik qiluvchi omillar - bu uy va oilani parvarish qilish majburiyatlari, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarni izlab ko'chib o'tish uchun mobillik darajasi pastligi bilan izohlanadi.
- Ta'lim olish va ishga joylashish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qishloq joylaridagi yoshlarning imkoniyatlari cheklangan, shu sababli qishloq yoshlari o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash / tadbirkorlik bilan shug'ullanishga ko'proq qiziqadilar.
- Tadqiqot ishtirokchilari ijtimoiy maqomlarini oshirish haqida gap ketganida, o'z oilalarida mavjud aloqalar (oilaviy rishtalar) va individual iqtisodiy imkoniyatlar ahamiyatini e'tirof etadilar.

## Bandlik va yoshlarning NEET portreti


So'rovnomada respondentlarning 24,5 foizi o'zlarini rasmiy yoki norasmiy ish bilan band deb ko'rsatgan, shu bilan birga 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan so'rovda qatnashgan yoshlarning 37,1 foizi NEET guruhiga tayinlanishi mumkin. Ko'rsatkichni jins bo'yicha taqsimlaydigan bo'lsak, ayol

respondentlarning ajablanarli 51 foiziga nisbatan erkak- respondentlarning 18 foizi o'zlarini NEET deb hisoblashadi.




“O‘zbekiston fuqarolarini tinglab” milliy so‘rovnoma ma‘lumotlariga ko‘ra, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida NEET darajasi yoshlarning deyarli 37 foizini tashkil etadi (3,2 million kishi). Yosh ayollar orasida NEET ko‘rsatkichi 53 foizni, shu yosh toifasidagi yigitlar orasida esa 18 foizni tashkil etadi.<sup>11</sup> 15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan yoshlar orasida 42 foizi (3,6 million kishi) ishlamaydi, o‘qimaydi va kasbiy ta‘lim olmaydi<sup>12</sup> Ushbu yosh toifasidagi ayollarning NEET ko‘rsatkichi darajasi 66 foizni tashkil qiladi, yosh erkaklar uchun esa 34 foizga teng.

Turli yosh guruhleri o‘rganilganda, 18 yoshdan katta bo‘lgan respondentlar uchun NEET ko‘rsatkichi darajasi sezilarli darajada ortishi, majburiy o‘rta ta‘limni tugatishga to‘g‘ri keladigan bosqichidir. 19 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan respondentlar orasida NEET darajasi 54,6 foizni tashkil etadi.



#### 4-JADVAL

Yosh guruhleri bo‘yicha NEET ko‘rsatkichlari



11. World Bank and UNICEF (2018)

12. UNICEF (2020)

19-24 va 25-30 yoshlilar guruhlarining gender farqlarini o'rganishda ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, ayollar uchun NEET darajasi 18 yoshdan oshganidan keyin tez o'sib boradi (1,7 foizdan 69,0 foizgacha) va 25-30

yoshdagilar uchun 74,0 foizni tashkil etadi, ammo erkaklar uchun bu ko'rsatkich odatda pastroq bo'lib (maksimal 33,5 foiz), yoshga qarab kamayadi (24,8 foizgacha).


### 5-JADVAL

Asosiy mashg'ulotingiz qanday? - talaba, ishlaydi, yoki o'qimaydi yoki ishlamaydi? yosh guruhlari Gender kross-tabulyasiyasi

		Yosh guruhlari			Umumiy
		14-18	19-24	25-30	
Erkak	Talaba	97.9%	17.6%	3.2%	42.8%
	Ta'limda emas, rasmiy yoki norasmiy ishlaydi	1.6%	49.0%	72%	38.9%
	Ta'limda emas, yoki rasmiy, yoki norasmiy ishlamaydi	0.6%	33.5%	24.8%	18.2%
Ayol	Talaba	97.5%	14.6%	2.9%	35.2%
	Ta'limda emas, rasmiy yoki norasmiy ishlaydi	0.8%	16.4%	23.2%	14.0%
	O'qishni, kasbiy tayyorgarlikni davom ettirmayabdi va ishlamayabdi	1.7%	69.0%	74.0%	50.8%

### 6-JADVAL

Yosh guruhlari va genderni ko'ra ajratilgan NEET





NEET guruhidagi respondentlar orasida 18,0 foiz o'rta maktabdan tashqari ma'lumot olmagan va 80,4 foizi kollej yoki litsey

darajasidan tashqari ma'lumot olmagan. Faqat 1,3 foizi oliy ma'lumotga ega.

## 7-JADVAL

Asosiy mashg'ulotingiz qanday? - talaba, ishlaydi, yoki o'qimaydi yoki ishlamaydi? Sizing ma'lumotingizni eng yuqori darajasi qanday? Krosstabulyasiya

	Maktab	Kollej, texnik kollej, akademik lisey	Oliy ma'lumot (bakalavr darajasi)	Oliy ma'lumot (magistr darajasi)	Tugallangan ma'lumoti yo'q	Ma'lumoti yo'q	Javob yo'q	Umumiy
<b>Talaba</b>	91.5%	5.4%	2.5%			0.2%	0.4%	100%
<b>Ta'limda emas, rasmiy yoki norasmiy ishlaydi</b>	13.7%	74.7%	10.7%	0.8%				100%
<b>Ta'limda emas yoki rasmiy yoki norasmiy ishlamaydi</b>	18%	80.4%	1.0%	0.2%	0.2%	0.1%		100%
<b>Umumiy</b>	45.2%	50.2%	4.0%	0.3%	0.1%	0.1%	0.1%	100%


NEET maqomining potensial aniqlovchilarining ehtimoli tahlili kuzatuvlarni qo'llab-quvvatlaydi va ayol respondentlarning NEET bo'lish ehtimoli yuqori ekanligini va faqatgina gender belgisining o'zi NEET o'zgaruvchanligining qariyb 11 foizini izohlab beradi. Bundan tashqari, nikoh ayollarning NEET bo'lish ehtimolini yanada oshiradi, erkaklar uchun esa nikoh ahamiyatsiz omildir. Bundan tashqari, tahlillar shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning ma'lumot darajasidan qat'i nazar, oliy ma'lumotli bo'lish va ushbu ma'lumotdan mamnun bo'lish, shuningdek, IT ko'nikmalariga ega bo'lish va Internetdan foydalanish NEET bo'lish ehtimolini pasaytiradi.<sup>13</sup>

Ish bilan band bo'lgan yoshlar orasida eng tez-tez uchraydigan ikkita sektor davlat sektori (35,2 foiz) va xususiy biznes sektoridan (35,7 foiz) iborat bo'lib, xususiy sektor shahar yoshlari uchun manfaatlidir. "Start-ap" sektorida yoshlarning kichik qismi band bo'lib (17,5 foiz), ularning tarkibiga "tadbirkorlar" va "yangi biznes asoschilari" qiradi. Biroq, "start-ap" sektorini qishloq yoshlari ko'proq tanladilar. 2.9 foiz yoshlar o'zlarini nodavlat sektorida faol ekanliklarini ko'rsatgan, ular tarkibiga "nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, ayollar tashkilotlari va boshqalar" qiradi.

13. Batafsil regressiya tahlilini ilovada ko'rish mumkin


## 8 -JADVAL

Siz qaysi sektorda ishlaysiz?



## 9-JADVAL

Siz qaysi sektorda ishlaysiz?



Jinsi bo'yicha bo'lingan savolnoma ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, xususiy biznes sektori va boshqa sektorlarda erkaklar ko'proq davlat sektoridagi muvozanatlashgan taqsimlash bundan mustasno. Ayollarning

katta qismi band bo'lgan sohalar - sog'liqni saqlash, ta'lim va o'qitish hamda ishlab chiqarish sanoati. Erkaklar uchun - qurilish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoati.

**10-JADVAL**

Siz qaysi sanoatda ishlaysiz? gender bo'yicha eng mashhur sanoat %



## Qiziqarli ish

So'rovnoma respondentlari ma'lum bandlik sohasini tanlashda asosiy omil «qiziqarli ish» bo'lganligini ko'rsatdi. Javobning ushbu variantini respondentlarning 63,4 foizi tanlagan

va ular turli jins va yosh guruhlariga, shuningdek shahar va qishloq aholi punktlari o'rtasida teng taqsimlangan.

**11-JADVAL**

Nega bu sohada ishlashni xohlaysiz?

	Jami	Shahar hududi	Qishloq hududi	Erkaklar	Ayollar
Qiziqarli ish	63.4%	62.7	64.1	62.1	63.9
Qulay ish soatlari	22.8%	21.9	23.4	17.3	25
Yaxshi maosh	19.8%	20.5	19	26.2	17.2
Ijodiy ish	11.0%	10.9	11.2	8.3	12.1
Qulay joylashuv	8.1%	7.1	9	7.7	8.2
O'zinni turli rollarda sinab ko'rishga imkon beradi	5.7%	5.4	6.1	5.8	5.7
Vakolat bilan keladi	3.7%	4.1	3.3	5.6	3

MGM davomida biz shuni aniqladikki, tadqiqot ishtirokchilari uchun ish yoki kasb qiziqarli hisoblanadi, qachonki uni birinchi navbatda, “yoshlarning o‘zi tanlasa”.

Andijonlik 24 yoshli oilali ota tomonidan aytilgan berilgan quyidagi hikoya ushbu qarorni qabul qilishning hayotdagi murakkabliklariga ishora qilmoqda. MGM davrida bu yigit avtomobil ishlab chiqaradigan joyda ishlayotganligini va bu ish uning oliy ma'lumotiga to'g'ri kelganligi sababli o'ziga yoqishini aytdi. Biroq keyin u “hayot uni bu kasbni egallashga majbur qilgani” ni va aslida u shifokor bo'lishni xohlaganligini aytdi.

“Men ishlayman, chunki mening maoshim yaxshi (oyiga 300 dollardan yuqori). Ammo aslida men bu kasbda ishlashni xohlamayman. Ikki yil ketma-ket hujjatlarimni tibbiyot institutiga topshirdim, lekin o'qishga qirolmadim. Mening bilimim borligiga qaramay, o'qishga kira olmadim, mening [pora uchun] pulim yo'q. Ish bo'yicha menda hech qanday qiyinchilik yo'q, menga ish yoqadi. Ammo, men buni [bu ishni] bir umr qilishni istamayman ... Men jarroh bo'lishni xohlardim.”

Savolnoma ma'lumotlari yosh qishining ta'lim faoliyatini davom ettirishi yoki ettirmasligi masalasida ota-onalarning katta ta'siri borligini ko'rsatdi. Respondentlarning 17,8 foizi O'zbekistonning barcha mintaqalarida ota-onalar o'qishni davom ettirishning asosiy to'sig'i sifatida tilga olindi. Bu savolga javob uchun turar joyning ahamiyati yo'q edi. Shu bilan birga, gender farqi sezilarli bo'lgan: ayollarning 20,8 foizi ota-onalar qarori to'sqinlik qilganini ta'kidladilar, aksincha erkak respondentlarning atigi 12,1 foiziga nisbatan.


**“O'ylaymanki, agar ishni ota-onaga tanlashga majburlagan bo'lsa, u ish qiziqarli bo'lmaydi. Misol uchun, kimdir harbiy bo'lishni xohlaydi, ammo otasi: “Kerak emas, shifokor bo'lish kerak”, deydi. Shunda ish qiziqarli bo'lmaydi. Yoki, kimdir aktyor bo'lishni xohlaydi, lekin otasi “Yo'q, sen advokat bo'lishing kerak” deydi.**

– Ushbu jihat Toshkent shahridan 20 yoshli universitet talabasi fikrida yaxshi ifodalangan



## 12-JADVAL

Sizningcha, ta'limni kerakli darajada davom ettirishingizga nima to'sqinlik qilishi mumkin? Asosiy sabablar



Bundan tashqari, tadqiqot ishtirokchilari qiziqarli ishni bu ish ularga keltiradigan quvonch darajasi orqali aniqladilar. Respondentlar qiziqarli ish bo'lgan holatda o'z-o'zini asoslash yuzaga keladi, deb ta'kidlashdi (masalan, bunday ish "bajonidil" amalga oshiriladi); va bunday ish o'z-o'zini rivojlantirishga olib keladi. Boshqa tomondan, yoshlar qiziqarli bo'lmagan ishni, odatda, zerikarli va jismonan mashaqqatli mehnat bilan bog'liq deb hisoblaydilar.

Quyidagi voqeani Andijon viloyatining qishloq hududida yashovchi 15 yoshli maktab o'quvchisi so'zlab berdi: "Qiziqarli bo'lmagan ish, zerikarli, bir hil ishdir. Masalan, mening akam konserva sexida ishlaydi. U kun davomida doimo bir xil ishni bajaradi va nam sharoitlarda mehnat qiladi. Bu ijodiy ish emas. Bundan tashqari, u jismoniy jihatdan og'ir ish. Lekin akam u yerda ishlashga majbur. U o'qituvchi bo'lishni orzu qilardi, ammo institutga o'qishga qirolmadi. Lekin, u ota-onamizga yordam berishi kerak".

Yoki qashqadaryolik 15 yoshli maktab o'quvchisining so'zlari bilan aytganda: "Masalan, siz institutga o'qishga kira olmagan bo'lsangiz ... siz [o'z fikringizga ko'ra] qiziqarli ish uchun kerakli malakaga ega bo'la olmaganingiz uchun dalada ishlashga... yoki mol boqishga majbur bo'lasiz."

So'rovnoma ma'lumotlari respondentlar qaysi sohalarni (ta'lim / o'qitish 28,7 foiz, fan / tadqiqot 26,3 foiz, sog'liqni saqlash / tibbiyot sektori 22,9 foiz, biznes / menejment 21,7 foiz) o'ziga eng jalb qiluvchi deb hisoblashi va ular qaysi sohalarda aslida ish bilan band bo'lganligini (qurilish 14,4 foiz, ishlab chiqarish sanoati 10,6 foiz, qishloq xo'jaligi / fermerlik 9,8 foiz) aniqladi.

### Yoshlar, shuningdek, qiziqarli ish munosib daromad keltirishi lozim, deb ta'kidlashdi.

Ishtirokchilarning 19,8 foizi kasbni tanlashda "yaxshi ish haqi"ni muhim mezon, deb qayd etishdi. Biroq, yaxshi maosh erkaklar va ayollar uchun birdek muhim emas: erkaklarning 26,3 foizi ish haqini muhim deb hisoblaydi, ayollarning 17,3 foizi esa qulay ish soatlarini muhimroq deb tan olishadi.

Eng kam yoki yetarli daromad sifatida muhokama qilingan pul miqdorlari respondentlarning qishloq yoki shahar hududida yashashiga va jinsiga qarab farqlanadi. Bu boradagi eng kam umidlar qishloq joylaridagi yosh ayollar orasida aniqlandi. Odatda, 1 million so'm (taxminan 100 \$) maqsadli guruh muhokamalari ishtirokchilari o'rtasida mutlaqo


eng kam miqdor sifatida muhokama qilindi. 3-5 million so'mni (taxminan 300-500 \$) yoshlarning nazarida obro'li ish haqi deb hisoblanadi. Shuningdek, MGM ishtirokchilari mehnat bozorida juda past bo'lgan ish haqi to'g'risida ham fikr bildirishdi.

Samarqandlik 24 yoshli turmush qurgan onaning fikri: "Hozirda tikuvchilik korxonalarida ish haqi atigi 500-600 000 so'm miqdorida (oyiga 60 dollardan pastroq). Ammo bu pulga hech narsa sotib ololmaysiz.

Shuning uchun ishlamasdan, uyda o'tirgan yaxshiroq. Agar bunday maoshga ishlasangiz, unda siz ishlaganingizdan ko'proq pul sarflaysiz, chunki ishga borish va ishdan uyga qaytish uchun transportga va tushlikka ham pul sarflaysiz".

### 13-JADVAL

Ayni vaqtda ishlayotgan bo'lsangiz ham, ishga joylashishda qanday to'siqlarga duch keldingiz? %



Hamkasblar bilan munosabatlar va mavjud “jamo”ga integratsiyalashuv tadqiqot ishtirokchilari o’rtasida munozaralar davomida muhim jihat bo’ldi. Bizga o’rganish va yosh mutaxassislarni qo’llab-quvvatlashning ijobiy tajribalari haqidagi hikoyalari bilan o’rtoqlashishdi. Shunga qaramay, ular mehnat jamoalaridagi hokimiyat iyerarxiyalari yutuqlarga asoslangan bo’lishi shart emasligi, balki katta yoshdagilar tomonidan boshqarilishi mumkin degan tushunchani tushunishga ham imkon berishdi. Yoshlar, ish joyidagi odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilishlari kerak bo’lgan vaziyatlarga duch kelganliklarini va katta hamkasblari tomonidan ekspluatatsiyadan o’zlarini himoya qilishlariga to’g’ri kelganliklari haqida xabar berishdi.

Buni Samarqandlik 24 yoshli turmush qurgan ota aniq ifodalagan: “Ba’zilarga [mehnat] jamoasi bilan aloqalar o’rnatish juda qiyin.

Agar u yosh bo’lsa va hech kimni tanimasa, ehtimol, kattalar unga qo’shimcha ish yuklashadi. Masalan, mening akam bitta kompaniyaga ishga qirdi. Ular uni yordamchi sifatida ishga qabul qilishdi. U kompyuterlar haqida juda ko’p narsalarni biladi, ular uni dam olish kunlari ham va kechgacha ishlashga majbur qilishdi. Katta hamkasblari unga o’z ishlarini yuklashadi. U rad qila olmaydi, chunki bu ishni yo’qotishdan qo’rqadi”.

Yoshlar va katta yoshdagi MGM ishtirokchilarning javoblarini taqqoslaganda, yosh ulg’aygan sari kelajakdagi professional salohiyatning keng imkoniyatlarini aks ettirgan quvonchli taassurot, daromad olish uchun haqiqiy imkoniyatlarning yanada amaliy va tor doirasiga o’rin qo’yganligi sezildi. Shunga qaramay, fikrning bunday o’zgarishi erkaklarga nisbatan, ko’proq ayollar o’rtasida kuchliroq namoyon bo’ldi.

Tadqiqot ishtirokchilari yoqimli ish bilan ta’minlash muammosi yosh mutaxassislarning katta soni o’rtasidagi raqobat tufayli yanada og’irlashib ketishini tushunishadi (shuningdek, “Muammolar, bo’sh vaqt va yoshlik tugashi” bo’limiga qarang).

## Mansab yo’lidagi to’siqlar

Ish topish yo’lida yoshlar ko’rsatgan eng asosiy uchta to’siq - “menga yoqadigan kasbni o’rganish uchun mablag’ yetishmasligi”, “yoqadigan kasbni egallash uchun aloqalar yoki tanishlarning yo’qligi” va “qaror ota-onalar tomonidan qabul qilinadi” kabilardan iborat. Yosh ayollar va erkaklar hech qanday aloqa va tanishning yo’qligi ularning ish bilan ta’minlanishiga to’sqinlik qiladigan omil ekanligini ta’kidlagan bo’lsa- da, o’qish uchun mablag’ning yetishmasligi erkaklar uchun yuqori to’siqdir, ota- onalarning qarorlari esa yosh ayollarning ish imkoniyatlariga erkaklarnikiga nisbatan ikki baravar ko’proq ta’sir qiladi.

NEET guruhiga kiruvchi va 18 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan respondentlar, ayniqsa, o’qish yoki ta’lim olishni davom ettira olmasliklarining quyidagi sabablarini ko’rsatdilar: “Men uy xo’jaligida oila a’zolariga g’amxo’rlik qilish bilan bandman” (52,0 foiz); “Mening oilam o’qishim uchun pul to’lay olmaydi” (17,9 foiz); va: “Men o’qishga qirolmadim” (17,1 foiz).

Ushbu sabablarning birinchisi bo’yicha aniq gender bo’linish mavjud: ayol-respondentlarning 61,9 foizi erkak-respondentlarning 14,0 foiziga nisbatan o’qishni rad etish uchun sabab sifatida uy

vazifalarini ko'rsatgan. Uy ishlari, shuningdek, shaharlarga qiyoslaganda ko'proq qishloqlarda uzluksiz ta'lim olishning sababi sifatida ko'proq ko'rsatilgan.


**Natijada, turmush qurgandan keyin mehnat bozorini tark etayotgan yosh ayollar soni sezilarli. So'rovnoma ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, NEET guruhiga mansub turmush qurgan respondentlar orasida 11,9 foiz erkaklarga nisbatan 88,1 foizni ayollar tashkil qilgan.**

**MGMlar yoshlarning shaxsiy ta'limi yoki kasbiy nafsoniyat amalga oshirishda duch keladigan cheklovlarni batafsil ochib berdi. Rivojlanish uchun imkoniyatlar jinsi, mintaqaviy kelib chiqishi, ijtimoiy aloqalari va iqtisodiy qobiliyatiga qarab sezilarli darajada farqlanishi aniqlangan.**

**Tadqiqotda qatnashgan yosh ayollarning xabar berishiga ko'ra, turmush qurgandan keyin ular o'qishni davom ettirishni yoki ish topishni istasalar, ikkita asosiy cheklovga duch kelishgan - oilaning, shu jumladan ota-onalari, eri va qaynananing qarshiligi va mobillikning cheklanganligi. Yosh ayollar o'rtasida ishsizlikning asosiy sababi sifatida MGM ishtirokchilari doimiy ravishda oila a'zolarining, ayniqsa, eri va qaynananing qarshiligini ko'rsatib berishdi. Yosh ayollar ularning erlari o'z xotinlarini ishga qo'ymasligining sababini rashk yoki xotinlari shaxsiy daromad olishni boshlaydigan bo'lsa, ularning bunday mustaqilligi qanday oqibatlariga olib kelishidan qo'rqishi bilan izohladilar.**

#### 14-JADVAL


Nega o'qimaybsiz yoki o'qishni davom ettirmaybsiz? 4 = Men uy xo'jaligida uy xo'jaligi a'zolariga g'amxo'rlik qilish bilan bandman





## 15-JADVAL

“Oila qurmagan”/“buydoq” bilan “oilali/turmush qurgan” toifa bo‘yicha ajratilgan NEET



“Men uy xo‘jaligida oila a‘zolariga g‘amxo‘rlik qilish bilan bandman” (52,0 foiz);  
 “Mening oilam o‘qishim uchun pul to‘lay olmaydi” (17,9 foiz);  
 va: “Men o‘qishga qirolmadim” (17,1 foiz).

Uy bekasi ammo ish izlayotgan Qashqadaryolik 21-yoshli oilali ayol, ona so‘zlari bilan aytga

“Hozirda ish topish qiyin. Bizning qishloqda ish joylarini tanlash imkoniyati yo‘q. Bitta maktab, bitta tibbiyot maskani va fermerlar uchun bitta qishloq laboratoriyasi bor, xolos. Ushbu uchta tashkilotning shtatlari katta emas. Yoshlar o‘rtasida qiziqishning yetishmasligi ham muammo hisoblanadi ... [Ammo] pensiya yoshiga to‘lganlar pensiyaga chiqmaydi, ular barcha ish joylarini egallab olgan. Korrupsiya va adolatsizlik - aynan shu narsa yoshlarning ishlash va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yo‘q qiladi.”

Qoraqalpog‘istonlik 19 yoshli bir ayolning so‘zlari bilan aytganda



**Shu bilan birga, Qoraqalpog‘istonda o‘tkazilgan MGMda qatnashgan 19 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan erkak ishtirokchilar o‘rtasida quyidagi fikrlar ham izhor qilindi:**

*Bu ish turiga bog‘liq. Agar ish tinch, xotirjam bo‘lsa, unda ayol ishlashi mumkin. Chunki odam doimiy ravishda uyda o‘tirsam, u o‘zini ezilgan his qiladi... Abatta uyda yumush yetarli: kir yuvish, ovqat pishirish, idish yuvish. Ammo buning hammasini ishdan keyin ham bajarish mumkin...*

– 1-ishtirokchi

*Masalan, ayol kishi shifokor, o‘qituvchi, tarbiyachi bo‘lib ishlashi mumkin.*

– 2-ishtirokchi



Qashqadaryolik uy bekasi, ammo ish izlayotgan 21 yoshli turmush qurgan ayol va onaning so‘zlari bilan aytganda: “Oilamning fikricha, men ishxonamga emas, oilamga ko‘proq vaqt ajratishim kerak ekan. Erim o‘zi ishlab pul topayotganini aytadi. Ammo men shunchaki uyda o‘tirishni xohlamayman... Men oilamga ham, ishimga ham vaqt ajrata oladigan ish topmoqchiman. Men juda ham ishlashni xohlayman, shunda o‘zim uchun ham oz bo‘lsa-da pulim bo‘lar edi”.

22 yoshli andijonlik ayol MGM paytida ushbu taxmin bilan o‘rtoqlashdi: “Men turmush qurganimdan keyin, erim meni ishlashimga ruxsat bermasligi mumkin ... Chunki Andijonda salonlarda (sartaroshxonada ishlaydi) ishlaydigan qizlar yomon (ahloq nuqtai nazaridan), deb da‘vo qiladigan yigitlar ko‘p. Shuning uchun, men bu ishni yo‘qotishim mumkin.”



Tadqiqot ishtirokchilari qaynanalar o'g'illarining xotinlarini uyda olib o'tirishni afzal ko'rishadi, deb aytishdi, chunki bu ularning o'zlarini eng mashaqqatli uy yumushlaridan halos qiladi. Shuningdek, bunday istak, ularning mahalladagi obro'sini saqlab qolish bilan bog'liq (yaxshi qaynana kelinini qattiq nazorat ostida ushlab turadi degan ideallashtirilgan tushuncha asosida). Tadqiqotning ba'zi ayol ishtirokchilari o'zlarining hayotlari davomida hamma narsani avval ota-onalari, keyin eri va

Ushbu holat bo'yicha Samarqandlik 21 yoshli universitet talabasi xulosa qildi: "Qiz bola hech qachon mustaqil bo'la olmaydi. Turmush qurishga qadar u ota-onasiga, turmush qurgandan keyin esa eriga bog'liq bo'ladi".

Tadqiqotda qatnashgan, o'qishini davom ettirayotgan yoki ishlayotgan yosh ayollar O'zbekistonda "an'anaviy ravishda" ayollar kasbi deb hisoblangan, ya'ni tibbiyot, ta'lim yoki uy sharoitida tikuvchi, sartarosh yoki pishiriqlar tayyorlovchisi bo'lib ishlaydi.

So'rovnoma ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, yoshlarning orasida "eng kerakli kasb" sifatida e'tirof etilgan kasblar doirasi juda xilma-xil. Asosan, klassik kasblar tilga olinib, ular jinslar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- tadbirkorlar: 8,1 foiz erkak, 1,7 foiz ayollarga nisbatan
- harbiylar: 14,5 foiz erkaklar, 1,0 foiz ayollarga nisbatan
- shifokorlar: 4,6 foiz erkaklar, 18,0 foiz ayollarga nisbatan
- hamshiralar: 0,0 foiz erkaklar, 7,4 foiz ayollarga nisbatan
- o'qituvchilar: 7,2 foiz erkaklar, 24,4 foiz ayollarga nisbatan
- tikuvchilar: 0,2 foiz erkaklar, 8,8 foiz ayollarga nisbatan

**Bundan tashqari, yosh ayollar, O'zbekiston ichida ham, transmilliy mehnat migratsiyasi (masalan, Rossiyaga) doirasida ham, nisbatan yaxshi kasbiy imkoniyatlarga ega bo'lgan joylarga ko'chib o'tish imkoniyatlari bo'yicha erkaklar bilan teng bo'la olmaydilar.**

Buni Samarqandlik 21 yoshli bir qiz, universitet talabasi durust ifodaladi: "Ammo yigitlar hali ham bu vaziyatdan chiqish yo'lini topmoqdalar (ish topmoqdalar). Ular Janubiy Koreyada ishlash uchun ketishadi. Ammo bizning qizlarimiz bunday qila olmaydilar, chunki madaniyatimiz ularga yo'l qo'ymaydi. MGM moderatorining qizlarga Rossiyaga [mehnat migratsiyasi uchun] ketishiga ruxsat beriladimi-yo'qmi degan savoliga ushbu MGMning barcha ayol ishtirokchilari bir yoqadan "Yo'q!" deb javob berishdi.


**Tadqiqot davomida qishloq joylarining yosh aholisini ko'proq qoshshoqlashganligi aniqlandi.**

So'rovnoma ma'lumotlari turar-joylarni turlari bo'yicha taqqoslaganda, shaharliklarga nisbatan (40,2 foiz) qishloq joylardan kelgan (36,7 foiz) talabalar kamroq ekanligini ko'rsatdi; qishloq yoshlari shahar yoshlariga (26,4 foiz) nisbatan past darajada (22,8 foiz) ish bilan ta'minlangan; shaharlardagiga (33,4 foiz) nisbatan NEET darajasi qishloq joylarida (40,5 foiz) yuqoriroqdir.



## 6-JADVAL/RASM

Asosiy mag'ulotingiz qanday? - talaba, ishlaydi, yoki o'qimaydi yoki ishlamaydi



Qishloq joylarda yashovchi yoshlar orasida ular “qiziqarli ish” deb ta’riflagan ishlar odatda boshqa joylarda, ya’ni shahar markazlarida joylashganligi sezilib to’rardi. Aksincha, ularning qishloqdagi daromad imkoniyatlari hayvonlarga, yerga va qattiq jismoniy mehnatga kuchli bog’liqlikligi bilan ajralib to’rardi.

Binobarin, qishloqlarda yashovchi yoshlar, ayniqsa, yosh mutaxassislarning demografik o’sishi va mehnat bozorida qotib qolgan vaziyat o’rtasidagi tafovut kuchayib borayotganidan xavotirda. Tadqiqotning ayrim ishtirokchilari, agar katta avlod vakillari yosh fuqarolar uchun daromad olish imkoniyatini bo’shatish o’rniga, pensiya yoshidan keyin ham o’z ishlarida qolishni davom ettirsalar, bu vaziyat yanada murakkablashib ketishini ta’kidladilar.

O’zining tug’ilib o’sgan Andijon viloyatida yoshlarning ishsizligi sabablari to’g’risida mulohaza yuritgan 22 yoshli yigit, turmush qurgan universitet talabasining quyidagi izohini ko’rib chiqamiz: “Andijonda beshta institut bor. Va har bir institutni har yili o’rta

hisobda 1000 kishi, jami 5000 ta bitiruvchi tamomlaydi. Ammo ushbu oliy ma’lumotli yoshlarga ish yo’q. Men ham institutda o’qidim ... endi esa 1,2 million so’m maosh olayman [taxminan, oyiga 120 dollar]. Er va xotin uchun 1,2 million so’m yetarli emas. Bu pul transport, tushlik va kiyim-kechak uchun umuman yetmaydi. Men ishimdan bo’shadim va hozir ish izlayapman ... Ba’zi yoshlar pul topish uchun chet elga chiqishga majbur bo’lmoqdalar [ya’ni, mehnat muhojirlari bo’lib].”

Qoraqalpog’istonlik 19 yoshli bir ayolning so’zlari bilan aytganda: “Hozirda ish topish qiyin. Bizning qishloqda ish joylarini tanlash imkoniyati yo’q. Bitta maktab, bitta tibbiyot maskani va fermerlar uchun bitta qishloq laboratoriyasi bor, xolos. Ushbu uchta tashkilotning shtatlari katta emas. Yoshlar o’rtasida qiziqishning yetishmasligi ham muammo hisoblanadi ... [Ammo] pensiya yoshiga to’lganlar pensiyaga chiqmaydi, ular barcha ish joylarini egallab olgan. Korrupsiya va adolatsizlik - aynan shu narsa yoshlarning ishlash va o’qishga bo’lgan qiziqishini yo’q qiladi”.



**Qiziqarli, yaxshi maosh to'laydigan ish topishda qiyinchiliklarga duch kelgan yosh qishloq aholisi o'z-o'zini ish bilan ta'minlash va kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanishda tajriba o'tkazishga tayyor ekanliklarini namoyish qilishdi.**

Miqdoriy natijalar ushbu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Qishloq va shahar hududlaridan chiqqan respondentlarning ish bilan band bo'lish bo'yicha afzal ko'rilgan ish sektori haqidagi javoblari bir-biridan unchalik farq qilmaydi. Shu bilan birga, "start- ap" sohasida, tadbirkor yoki yangi tijorat tashkilotining ta'sischisi (hamta'sischisi) sifatida ishlash varianti qishloqdagi respondentlar (59,7 foiz) uchun shaharlik respondentlarga nisbatan (atigi 40,3 foiz) jozibador bo'lib ko'rindi.

Qoraqalpog'istonlik 22 yoshli turmush qurgan yigit quyidagicha fikr bildirdi: "Qishloq joylarida yoshlar kollejdandan keyin ish topa olmaydilar. Va ba'zilari o'z korxonalarini ochmoqchi, masalan, parrandalarni ko'paytirish bo'yicha. Ular parrandalarni qanday ko'paytirishni bilishadi, chunki barchasining uylarida uy hayvonlari va parrandalar bor. Ammo qanday qilib biznes yuritish borasida ular bilimga ega emaslar. Shuning uchun, agar maktabda biznesga o'rgatuvchi fan bo'lganda, yaxshi bo'lar edi..."

**17-JADVAL**

Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz? Yashash joylarining turi bo'yicha krosstabulyasiya

		Yashash joyi turi		Umumiy
		Shahar hududi 	Qishloq hududi 	
<b>Davlat sektori (byudjet)</b>	Hisoblangan	857	896	1753
	% miqyosida 44. Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz?	48.9%	51.1%	100.0%
<b>Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz?</b>	Hisoblangan	232	190	422
	% miqyosida 44. Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz?	55%	45.0%	100%
<b>Start - ap (tadbirkor, yangi biznes ta'sischisi sifatida)</b>	Hisoblangan	199	295	494
	% miqyosida 44. Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz?	40.3%	59.7%	100%
<b>Nodavlat tashkilot (NNT, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, ayollar tashkilotlari va hokazo)</b>	Hisoblangan	24	21	45
	% miqyosida 44. Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz?	53.3%	46.7%	100%
<b>Har qanday sektorda</b>	Hisoblangan	184	273	457
	% miqyosida 44. Siz qaysi sektorda ishlashni hohlar edingiz?	40.3%	59.7%	100%

Ayniqsa, yosh ayollar uchun qishloq joylarida bandlik imkoniyatlarining yo'qligi haqida Qashqadaryolik 21 yoshli ona va turmush qurgan ayol o'z fikrini bildirdi: "Albatta, shaharda bolalar bog'chalari, maktablar, go'zallik salonlari bor, u yerda ayollar ko'p [ish]. Lekin shaharda ishlashga ruxsat berilmaydi [bizga]. O'ylaymanki, bu yerda qiziqarli ishlarni topish juda qiyin. Demak, ayollar faqatgina imkoniyati mavjud bo'lgan joylarda ishlaydilar. Bu esa paxta yoki meva terimi. Lekin, bu qiziqarlimi? Yo'q"

### **Tadqiqot ishtirokchilarining fikrlari ijtimoiy mobilni rivojlantirishning mavjud aloqalar va iqtisodiy imkoniyatlar bilan o'zaro bog'liqligini aniq aks ettirdi.**

So'rovnoma respondentlari qishloq joylariga qaraganda ko'proq shaharlarda bo'lishiga qaramay, "ish topish yaxshi shaxsiy aloqalar va tanishlarga bog'liq" degan fikrga qo'shilishdi. Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan yoshlar, oliy ma'lumotga ega bo'lgan yoshlarga nisbatan, bu fikrga ko'proq qo'shiladilar.

#### **18-JADVAL**

Ish topish yaxshi shaxsiy munosabatlar va tanishuvlarga bog'liqligiga qo'shilasizmi?

	Umumiy	Shahar hududi	Qishloq hududi	Oliy ma'lumotga ega	Oliy ma'lumotga ega emas
To'liq qo'shilmayman	19.2	15.6	22.6	21.5	19.1
Biroz qo'shilmayman	11.7	12.7	10.8	11.3	11.7
Biroz qo'shilaman	35.2	37.1	33.4	42.9	34.7
Mutlaqo qo'shilaman	31.1	31.9	30.4	23.7	31.5
Javob berishni hohlamayman	2.8	2.7	2.8	0.5	2.9

MGM ishtirokchilari mahalliy "tanish - bilish" tushunchasi har qanday xolisona orttirilgan ko'nikmalar yoki kasbiy fazilatlaridan ustun bo'lishi mumkinligini ko'rsatdilar.

Maqsadli guruh muhokamalari paytida keltirilgan misollar qatoriga Farg'ona viloyatidan 19 yoshli kollej talabasining fikrlari qiradi: "Mening bir tanishim bor edi. U Toshkentda institutni bitirdi, muhandislik diplomini oldi. So'ng bu yerda, Farg'onada ish topmoqchi edi, lekin topolmadi. Haqiqatni gapirish kerak: bu yerda ish topish uchun tanish-bilish va aloqalar kerak. U Toshkentga ketishga majbur bo'ldi va u yerda ish topildi ... U ketishni istamadi, chunki otanasi shu yerda. Endi u qarindoshlarini ko'rish uchun oyiga ikki marta bu yerga kelishi kerak".

Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari ushbu umumiy «tanishish – bilish» ning odatiy amaliyotidan istisnalar haqidagi hikoyalar bilan ham o'rtoqlashdilar, bu esa salohiyatli tizimli o'zgarishlardan darak beradi<sup>14</sup>.


Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilari ushbu umumiy «tanishish – bilish» ning odatiy amaliyotidan istisnalar haqidagi hikoyalar bilan ham o'rtoqlashdilar, bu esa salohiyatli tizimli o'zgarishlardan darak beradi.<sup>14</sup>

Bundan tashqari, yoshlar ta'lim olish va ma'lumot to'g'risidagi diplom olish yaxshiroq ish topish imkoniyatlarini oshirishi haqidagi fikrga qo'shildilar. Tadqiqotda qatnashgan turli guruhlarni taqqoslaganda, qishloq aholisi va ayollar shahar aholisi va erkaklarga qaraganda o'zlarining professional kelajagiga ko'proq shubha bilan qarashi sezildi. Tadqiqotning yoshroq ishtirokchilari individual harakatlar va xizmatlar hayotda muvaffaqiyatga erishishga olib kelishiga umid qiladi.

Ushbu xavotir mahalliy mehnat bozorlaridagi kuchli raqobat va daromad olish imkoniyatini taqsimlashning norasmiy amaliyoti bilan birlashtirish bilan bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, yoshlar orasida ushbu kasb egalari orasida malakasiz xodimlarning ulushi, ya'ni kasbiy ta'lim olmagan odamlar ning ishda ulushi sezilarlidir.

So'rovnomada hozirda ish bilan band bo'lgan ishtirokchilarning 26,9 foizi o'zlarining hozirgi ish joylari ularning ma'lumotlariga qanchalik mos kelishi bilan "umuman qoniqmasliklarini" bildirdilar. Aksincha, tadqiqot qatnashchilarining 59,1 foizi o'zlarining ma'lumotlari va hozirgi ish joyining mosligidan qoniqish hosil qilishlarini qayd etishdi. Shunisi e'tiborga loyiqki, ayollarning mamnunligi darajasi erkaklarnikiga qaraganda ancha kuchliroq: 44,2 foiz va 28,7 foiz. O'rta va o'rta maxsus ma'lumotli yoshlarga qaraganda oliy ma'lumotli yoshlar ko'proq mamnunlikni bildirdilar: 60,9 foiz va 30,6 foiz.

**“Tadqiqot ishtirokchilarining aksariyati o'zlarining dastlabki kasblari bo'yicha ish topa olishlariga shubha bilan qarashadi.”**






**“Yoshlar do‘stlik munosabatlarini keng qo‘llab-quvvatlaydilar va tadqiqotning faqat kam sonli ishtirokchilari do‘stlari yo‘qligini aytishdi. Yaxshi do‘stlar bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan, inqiroz paytida bir-biriga qarz beradigan, kundalik ishlarni bajarishda o‘zaro yordam beradigan va turli masalalarda o‘z fikrlarini rostgo‘ylik bilan aytadigan bo‘ladi (do‘stning shaxsiy kamchiliklarini ko‘rsatishdan tortib, kelajakdagi turmush o‘rtog‘ini baholashgacha), deb tasvirlangan.”**

#### 19-JADVAL

% - Sizning ishingiz ta‘lim ma‘lumotingizga mos kelishi bo‘yicha qanchalik mamnunsiz?, %



## 4.3 Ijtimoiy integratsiya

### Asosiy hulosalar

- O'zbekistondagi yoshlar deyarli mutlaqo ota-onalariga ishonadilar va ularga suyanadilar. "Do'stlik" tushunchasiga ko'pchilik tanqidiy munosabat bildirishadi, chunki do'stona aloqalar ko'pincha qo'llab-quvvatlanmasligi, sirlar oshkor qilinishi va ijtimoiy tamg'alash sababli buzilib ketadi, deb hisoblaydilar.
- Tadqiqot ishtirokchilari, ulardan kutilayotgan narsa "itoatkorlik" bo'lishini ta'kidladilar, ayniqsa o'z mahallalarida. Mustaqillik tuyg'usi yoshlar o'z daromadlarini topgandan keyin yoki turmush qurganlaridan so'ng ortadi, lekin yosh ayollarga qaraganda, ko'proq erkaklar orasida.
- Yoshlar o'z mamlakatlaridagi gender munosabatlarning buguni va kelajagini teng huquqlilik tomon o'zgarishga (bu ayollarning fikri edi) qiyoslaganda davom etayotgan konservativ patriarxat (erkaklarning fikri ko'proq) nuqtai nazaridan baholashdi.
- Turmush qurgan tadqiqot ishtirokchilari o'zlarining turmush o'rtoqlarini axloqiy, amaliy va moddiy qo'llab-quvvatlashning yangi manbai sifatida tasvirlashadi, shu bilan birga katta oila (odatda er ning otaonasi) bilan birgalikdagi hayotni boshlash juda qiyin ekanligini e'tirof etishdi..

### Ishonch


Oilaviy munosabatlar haqida gap ketganda, so'rovnoma ma'lumotlari yoshlar uchun "ishonch va tushunish" muhimligini ta'kidladi - tadqiqot ishtirokchilarining 70,9 foizi "baxtli oila" tushunchasini "ishonch va tushunish" bilan bog'lashdi. Ushbu omil erkaklardan ko'ra

(67,4 foiz) ayollar uchun muhimroq (73,4 foiz) bo'lgan qishloqlarda va shaharlarda sezilarli farq qilmaydi. Shunisi e'tiborga loyiqki, erkaklar "sevgi" va "iqtisodiy farovonlik"ni baxtli oila bilan ayollarga qaraganda ko'proq bog'laydilar.



## 20-JADVAL

“Bahtli oila” degan iborani eshitganingizda nimani o‘ylaysiz?



Yoshlar, avvalambor, ota-onalariga ishonishlari mumkinligi haqidagi fikrga qo'shildilar. Ota-onalarning ko'magi har tomonlama, shu jumladan moddiy va ma'naviy yordam sifatida tasvirlangan. Bu, ayniqsa, ota-onalar yoshlarga xususiy o'qituvchilar bilan dars o'tishiga imkon bergan yoki o'qishni davom ettirishga rag'batlantirganligi uchun yuqori baholandi. Maqsadli guruh muhokamalarida qatnashgan ba'zi yosh ayollar, shuningdek, onalarini o'z do'stlari va sirlarini saqlovchilari, deb tan olishdi.

Tadqiqot ishtirokchilari ota-onalarga har doim, ham yaxshi, ham yomon vaziyatlarda suyanish mumkin deb hisoblashlari mumkinligini aks ettirgan bo'lsalar-da, boshqa qarindoshlar, do'stlar yoki turmush o'rtoqlari uchun bunday fikr qo'llanilmasligini ta'kidladilar. Ushbu boshqa ijtimoiy aloqalar, odatda, yoshlar ota-onalari bilan muayyan masalada ziddiyatga uchrashi mumkin bo'lgan kamdan-kam holatlarda, ota-onalar bilan aloqalardan ko'ra muhimroq bo'lishi mumkin ekanligi keng e'tirof etildi.

Bunday fikr Farg'onalik 14 yoshli maktab o'quvchisining so'zlari bilan yaxshi ifodalangan: "Ota-onalar muqaddasdir! Biz ularga hayotimiz uchun qarzdormiz va ularga doimo ishonamiz. Ularning o'zlariga yetmasa ham, bizni boqishadi, o'qitishadi".

Samarqandlik 23 yoshli turmush qurgan yigitning ota-ona va do'stlarini ishonchini qiyoslash haqidagi ushbu so'zlariga e'tibor bering: "Do'stingiz har qanday vaqtda sizni tark etishi mumkin. Ehtimol, yaxshi do'stlar bordir, lekin ular faqat filmlarda paydo bo'ladi. Hayotda bunday yaxshi do'stlar ni men hali uchratmadim. Ota-onangiz sizning asl do'stlaringizdir. Va eng muhim do'st - sizning onangiz bo'ladi. Onangiz har doim birinchi bo'lib biron bir narsa bo'lganligini bilib qoladi. U darhol qanday muammolarga duch kelayotganimni so'raydi yoki menga pul kerakmi-yo'qmi deb so'raydi va tezda pul beradi".

## Yoki hammasi 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan, Toshkent shahridagi maqsadli guruh muhokamasining erkak ishtirokchilari o'rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko'rib chiqaylik

*Ota-onadan ko'ra yaqinroq odam yo'q.*

– 1-ishtirokchi

*Bu yerda gap do'stlik to'g'risida ketmayapti, chunki hatto xotin ham sizni ota-onangiz singari yaxshi ko'rmaydi.*

– 2-ishtirokchi

*Ha, bu aniq!*

– 3-ishtirokchi






Shu bilan birga, yoshlar do'stlik munosabatlarini keng qo'llab-quvvatlaydilar va tadqiqotning faqat kam sonli ishtirokchilari do'stlari yo'qligini aytishdi. Yaxshi do'stlar bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan, inqiroz paytida bir-biriga qarz beradigan, kundalik ishlarni bajarishda o'zaro yordam beradigan va turli masalalarda o'z fikrlarini rostgo'ylik bilan aytadigan bo'ladi (do'stning shaxsiy kamchiliklarini ko'rsatishdan tortib, kelajakdagi turmush o'rtog'ini baholashgacha), deb tasvirlangan.

Tadqiqot ishtirokchilari orasida "Do'stlaringiz qiyin hayot sharoitida sizni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaridan kelganicha harakat qilishlariga" ishonch kuzatiladi.

Umuman olg'anda, ayollar va kattaroq yoshdagi ishtirokchilar ushbu fikrga ko'proq shubha bilan qarashgan.

#### 21-JADVAL

Do'stlaringiz sizni qiyin hayot sharoitida sizni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaridan kelganicha harakat qilishlariga amin ekanligingizga qanchalik qo'shilasiz? Gender kross-tabulyasiyasi.

	Gender		Umumiy
	Erkaklar	Ayollar	
			
To'liq qo'shilmayman	2.8	8.4	6
Biroz qo'shilmayman	3.2	5.1	4.3
Qisman qo'shilaman	31.2	38	35.1
Mutlaqo qo'shilaman	61.9	47.2	53.4
Javob yo'q	0.9	1.4	1.2
Umumiy	100	100	100

#### 22-JADVAL

Do'stlaringiz sizni qiyin hayot sharoitida sizni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaridan kelganicha harakat qilishlariga amin ekanligingizga qanchalik qo'shilasiz? Yosh guruhlari bo'yicha krosstabulyasiya.

	Yosh guruhlari			Umumiy
	14-18	19-24	25-30	
				73.4
To'liq qo'shilmayman	1.8	8.3	7.8	6
Biroz qo'shilmayman	3.3	4.3	5.3	4.3
Qisman qo'shilaman	32.1	36.2	36.9	35.1
Mutlaqo qo'shilaman	62.4	49.8	48.2	53.4
Javob yo'q	0.4	1.3	1.8	1.2
Umumiy	100	100	100	100



**Ushbu jihatlar Andijon viloyatining qishloqlaridan birida tashk il qilingan maqsadli guruh muhokamalari ishtirokchilarinig quyidagi muloqotida yaxshi aks etgan, hammasining yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha:**

*“Yaxshi va yomon kunlarda ota-ona doimo yoningizda bo‘ladi.”*

– 1-ishtirokchi



*“Masalan, siz do‘stingizga ishonasiz. Ammo kimdir sizga shunchaki tuhmat qilish uchun unga siz haqingizda yomon gap aytadi. U bunga ishonib, keyin do‘stligingizni tugatishi mumkin. Ammo ota-onalar hech qachon begonalarining siz haqingizda aytgan so‘zlariga ishonishmaydi ...”*

– 2-ishtirokchi



*“Mening hayotimda bunday misol bo‘lgan. Bunday holat mening o‘zim va sinfdoshim orasida sodir bo‘ldi. Va bu menga ruhiy ta‘sir ko‘rsatdi”.*

– 3-ishtirokchi



Shu bilan birga, tadqiqot qatnashchilari o‘rtasida do‘stlikning qisqa muddatli tabiati va uning cheklangan ishonchliligi to‘g‘risida umumiy tushuncha mavjud edi. MGM davomida o‘rtoqlashilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, do‘stlar bilan aloqalar to‘satdan tugashi va uzoq muddatli salbiy his-tuyg‘ularga olib kelishi mumkin. Xiyonat qilish va umidsizlik hissi ko‘pincha shaxsiy sirlarini oshkor qilgan

va shuning uchun do‘stini jamoat oldida sharmanda va jamoaviy masxaraga duchor qilgan sobiq do‘stlar bilan bog‘liq edi. Buning oqibatida tadqiqot ishtirokchilari oila a‘zolari bo‘lmagan shaxslarga o‘z sirlarini ochishdan ehtiyot bo‘lishadi. Tadqiqotning ayrim ishtirokchilari o‘zlarining qarindoshlari orasidan do‘stlarni tanlaganlarini aytishgan (bu og‘ir vaziyatda yechim bo‘lishi mumkin).

**Buni Qashqadaryodagi 19 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yosh ayollar bilan o‘tkazilgan maqsadli guruh muhoqamasidagi muloqotda yaqqol ko‘rish mumkin:**

*“Nima uchun turmush qurganidan keyin ayollar o‘zlarining yaqin dugonalari bilan muloqot qilishni to‘xtatadilar?”*


– Moderator

*“Chunki ularning bunga vaqti yo‘q.”*

– 1-ishtirokchi

*“Er dugonalaringiz bilan shunchaki muloqot qilishingizni taqiqlab qo‘yishi mumkin.”*

– 2-ishtirokchi



## Yaxshi inson

O‘zbekistondagi yoshlar kundalik hayotida axloqning ideallari va haqiqatlarini aks ettirish uchun tadqiqot ishtirokchilariga “yaxshi odam” nimani anglatishi haqida savol berildi.

Yoshlar orasida yaxshi odam boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish bilan ma‘lum cheklolarga rioya qilish o‘rtasidagi muvozanatni topishi kerak, degan fikr keng tarqalgan. Xususan,

yaxshi odam sahiy va ko‘maklashuvchi (moddiy jihatdan), va umuman “jamiyat uchun foydali” deb hisoblanadi.

Shu bilan birga, u qonunga bo‘ysunishi va korrupsiyaga aralashmagan, nizolar paytida “betaraflikni” saqlab qolishi, shaxsiy boyligiga qaramay, takabburlikdan qochishi va boshqalarning shaxsiy hayotiga (shu jumladan

sirlarni saqlashga) hurmat ko'rsatishi kerak. Tadqiqotning ayrim ishtirokchilari yaxshi odam ma'naviy ham bo'lishi kerakligini ta'kidladilar, boshqalari esa u (Islom diniga) qat'iy ishonishi kerak, deb aytdilar. So'rovnoma ma'lumotlari shuni ham tasdiqladiki, din yoshlar hayotida muhim rol o'ynaydi: respondentlarning 70,6 foizi ushbu kuzatuv bilan qisman yoki butunlay rozi bo'lishdi (yoshi, jinsi, turar joy turi yoki mintaqaviy farqlanishidan qat'iy nazar).

Bundan tashqari, yaxshi odamni aniqlash bo'yicha savol yoshlarning hozirgi jamiyatda nimani tashvishli tendensiyalar deb hisoblashini tushunishga imkon berdi. Ushbu savol yolg'izlik, befarqlik, ishonchsizlik va bajarilmagan va'dalar haqida mulohaza yuritishni keltirib chiqardi. Barcha ana shunday kechinmalar haqida ishtirokchilar o'zlarining yaqindagi katta avlod bilan o'zaro aloqa tajribasi asosida gapirishdi (shuningdek, "Muammolar, bo'sh vaqt va yoshlik tugashi" bo'limiga qarang).

Toshkentlik 15 yoshli maktab o'quvchisining so'zlariga ko'ra: "Menimcha, yaxshi odam - bu umuman befarq bo'lmagan, lekin ayni paytda, boshqalarning muammolariga butkul kirishib ketmaydigan odam".

Yoki Qashqadaryolik 17 yoshli maktab o'quvchisi bo'lgan qiz bolaning so'zlari bilan aytganda: "Men yana shuni aytmoqchimanki, agar inson Ollohga iymon keltirsa, u albatta yaxshi inson bo'ladi. Chunki bu odamning ruhi toza, u boshqalarga xiyonat qilmaydi va o'g'irlik qilmaydi".


Kimdir qanday qilib yaxshi insonga aylanishi mumkinligi to'g'risida berilgan savolga yoshlar bu ularning shaxsiy ijtimoiy muhitiga, xususan, oilasiga bog'liq bo'ladi degan fikrga qo'shilishdi.

Tadqiqot ishtirokchilari yaxshi inson ulg'ayishi uchun qulay "sharoit"ni, eng avvalo, ota-onalar o'zlarining farzandlari bilan muloqot qiladigan, farzandlarining shaxsiy rivojlanishini rag'batlantiradigan, amaliy tanqid izhor qiladigan va farzandlarining dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan muhit sifatida ta'rifladilar.

Bunday qulay muhitni yaratish yo'lidagi muammolar qatorida tadqiqot ishtirokchilari oilalardagi kelishmovchilik va "mojarolar", otalarning yo'qligi (ular Rossiyada mehnat muhojirligida bo'lishi mumkin) va ota-onalar oilaning tirikchiligi bilan band bo'lganligi sababli, bolalarga yetaricha e'tibor berilmasligini ta'kidlab o'tishdi.

### 23-JADVAL

Din sizning hayotingizda muhim o'rin tutishiga qanchalik qo'shilasiz?





**“Sizning atrofingizdagi (to‘g‘ri) odamlarni tanlashga harakat qilishingiz kerak. Albatta, siz doim ham do‘st va dushmani ajrata olmaysiz, ammo ... aqlli odamlar bilan muloqot qilishga harakat qilishingiz lozim. Va o‘zingizdan kattaroq va aqlliroq, dunyoqarashi kengroq odamlar bilan muloqot qilish yaxshiroqdir. Bunday odamlar sizni [shaxsiy] o‘shishga undaydi.”**

— Farg‘onalik 19 yoshli yigitning so‘zlari



Umuman olg‘anda, tadqiqot ishtirokchilari tug‘ilgan va yashayotgan makon (qishloqmi yoki shaharmi) kimdir yaxshi inson bo‘lishiga qandaydir ta‘sir ko‘rsatadi, deb o‘ylamaydilar.

Bir nechta hayotiy hikoyalarda o‘qituvchilar yaxshi inson bo‘lishga ta‘sir ko‘rsatadigan shaxs sifatida eslatib o‘tildi.

**Bu jihatlar Farg'onada 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan MGM ishtirokchilarining o'zaro fikr almashinuvida ham o'z aksini topdi. Ushbu suhbatda ular nega doimo ota-onalarining qar orlariga rozi bo'lishlari kerakligi aks etgan:**

*“Chunki ota-onam meni hech qachon hech narsaga majburlamaydilar. Ular mening histuyg'ularimni hisobga olishadi. Agar men ularga bu yigitga turmushga chiqaman, unisiga emas desam, lekin ular bunga rozi bo'lmasalar, bu ularning qarshiligi haqli va asosli ekanligini anglatadi. Aks holda ular [mening istagimga] qarshi bo'lishmas edi.”*

– 1-ishtirokchi

*Chunki bu yerda aytilganidek: “otaonaning roziligi Xudoning roziligidir”. Agar hamma narsa ota-onaning roziligi bilan qilinsa, unda barchasi yaxshi bo'ladi.*

– 2-ishtirokchi



## Mustaqillik / qaramlilik

Yoshlar turli jamoalarga integratsiyalashuvning bir qismi sifatida o'zlarining ijtimoiy qaramliliklari va mustaqilliklarini puxtalik bilan yengib o'tadilar. Tadqiqot ishtirokchilari uchun ular yoshlik chog'ida odatda “itoatkor” bo'lishlari kerakligi ayon edi.

Ota-onalariga nisbatan bu holat ular ning “farzandlik burchi”ning ajralmas qismi sifatida tushunilgan. Yoshlarning ota-onalarga qaramlilik hissi moddiy jihatdan (boshpana, oziq-ovqat, ta'lim) ularning hissiy ehtiyojlariga qadar ota-onalarining mehr-muhabbati va

o'z harakatlarining ota-ona tomonidan yuqori bahosini olish istagigacha kengayib boradi.

Shunga ko'ra, MGM ishtirokchilari o'z hayotlaridagi asosiy tanlovlar ularning kelajakdagi kasbi va turmush o'rtog'ini o'z ichiga olgan holda, ota-onalarining “roziligiga” bog'liqligini ta'kidladilar. Ba'zi yoshlar qaramlilikning bunday darajasini tanqidiy baholaydilar, boshqalari esa buni hayotlarining odatiy qismi sifatida pragmatik tarzda qabul qiladilar.

Fargʻonalik 19 yoshli yigitning kim bilanturmush qurish masalasini ota-ona bilancelishish muhim ekanligi haqidagi javobinikoʻrib chiqaylik: “Tasavvur qiling, agar otaonalarqarshi boʻlsa, yosh oilaning hayotiqanday boʻladi. Bunda kuniga janjal boʻladiva ajrashishga qadar borishi mumkin...Qoʻshnimiz bir qizni sevib qoldi. Bu qiz uningonasiga yoqmadi. Ammo sevgi uchun u otaonasiningfikriga qarshi chiqdi. Uyda onasiva uning rafiqasi oʻrtasida doimo janjallarboʻlib toʻrardi. Oxir oqibat, birinchi bolagahomilador boʻlgan xotin erining uyidan ketibqoldi. Mahalla qoʻmitasi ularni yarashtirdi, ammo baribir ular birga yashay olmadilar. Demak, ota-onangizga quloq solmasangiz, shunday achinarli natija boʻlishi mumkin”.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, mahalla jamoalarini doimiy ravishdaoila va uning aʼzolarining «obroʻsinisaqlash» zarur boʻlgan asosiy (yarim)jamoatchilik auditoriyasi sifatida qabulqilish kerak. Qishloq hududlarida yashovchitadqiqot ishtirokchilari, ayniqsa, oʻzlarinimahalliy jamoadagi fikrga juda hamqaram his qilishlarini tan oldi. Ommaviymuhokama qilish va mish-mishlarningtarqalishi ijtimoiy nazoratni amalga oshirishva jamoaviy meʼyorlarga (madaniyat vaurf-odatlar) muvofiqlikni taʼminlashningkuchli usullari sifatida aniqlandi. Buningoqibatida, yoshlar doimiy norasmiy kuzatuvva muhokama haqida xabar berishdi. Bundan tashqari, tadqiqotning koʻp sonliishtirokchilari oʻzlarining kiyinish uslublarini, xatti-harakatlarini va muloqotlarini ijtimoiytahqirlash oqibatlaridan oʻzlarini saqlashuchun mahalliy oqimga moslashtirganliklarahaqida xabar berishdi.

Qashqadaryo viloyatidagi bir muhokamada 14 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan erkakishtirokchilar birgalikda quyidagi fikrgaqoʻshildilar: “Biz oʻzbeklar yaqinlarimiz vaqadrdonlarimizning fikriga albatta quloqtutamiz. Biz oilani sharmanda qilishdanqoʻrqamiz. Keyin qanday qilib [va boshqayoʻl bilan] qoʻshnilaringiz orasida boshingiznikoʻtarib yurish mumkin?”

Qashqadaryolik 22 yoshli yigit qarindoshlaribilan qabul qilingan jamoaviy qarorlargabogʻliqlikning salbiy tomoni haqida gapirdi:

Agar qarindoshlarning yigʻilishida kimdir(maslahat oshi) Buxoroga koʻchib oʻtishgaarzimaydi, chunki u yerda maoshlar oz, desa, bu yosh odam uchun oʻz r ejalaridanqaytish va bormaslik uchun shuning oʻziyetarli boʻladi [bu maqsadga erishishnitaʻqib qilish uchun] ... [Shu sababli], agarkimdir qarshi chiqsa, biz aniq bir qadamtashlashdan qoʻrqamiz. Biz ana shundayurf-odatlariga amal qilib katta boʻldik. Ammoboshqa tomondan, agar yoshlarga judakoʻp erkinlik berilsa, u holda ular notoʻgʻritomonga ketishlari mumkin. Har doim[toʻgʻri] meʼyor boʻlishi kerak ... Biz oʻzimzyashayotgan jamiyatimizga juda bogʻliqmiz. Qishloqda hamma bir-birini taniydi. Siz birqadam qoʻyasiz va bu haqda hamma darholbiladi. Biz, keyin bizning qoʻshnilarimizva qarindoshlarimiz bizni notoʻgʻri xattiharakatlarimizuchun ayblamasliklari uchunxato qilishdan qoʻrqamiz.”

MGMlarda yoshlar maʼlum bir yoshga toʻlganidan keyin emas, balki oʻz daromadlarini topishni boshlaganlaridan yoki turmush qurganlaridan soʻng hayotlari yanada mustaqil boʻlishini taʼkidladilar. Ayniqsa, yigitlar “oʻz oilasining boshligʻi” boʻlishi mustaqillikni anglatishini, shuningdek, bu oʻz oila aʼzolarini otaonasining koʻmagisiz taʼminlash ham anglatishini taʼkidladilar. Yosh ayollar uchun, aksincha, nikoh qaramoqning bir turidan boshqa turiga oʻtishni, oʻz ota-onasining qaramogʻidan er va yangi qarindoshlar (ayniqsa, ular birgalikda yashaydigan boʻlsa) qaramogʻiga oʻtishni anglatdi.

Andijonlik 23 yoshli turmush qurgan insonning so'zlari bilan: "Men xotinim bilan ota-onamdan alohida yashaymiz. Men allaqachon mustaqilman. Men oila boshlig'iman va hozir ota-onamdan yordam so'ramayman. Men hamma narsani o'zim hal qilaman". "

Samarqandlik 24 yoshli turmush qurgan onaning so'zlari bilan aytganda: "Turmushga chiqqan va farzand ko'rgan qizlar erlariga bo'ysunishlari kerak ... Chunki u endi bizning hayotimizdagi hamrohimiz. U bizni tushunadigan, boqadigan odam. Endi biz uchun va bolalarimiz uchun butun javobgarlik uning zimmasida".

Tadqiqot ishtirokchilari o'zlarning ijtimoiy integratsiyasi va qaramligining umumiy afzalliklari yoki kamchiliklari to'g'risida turli fikrlarni bildirgan bo'lsalar-da, mustaqillikning kichik elementlari ularning kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida tushunchalar berishdi. Yoshlar omma oldida bo'lish, o'zlari uchun narsalarni mustaqil sotib olish, o'zlari tanlagan taomni pishirish yoki ishni tanlash va "o'z-o'zidan" biror narsaga erishishni "mustaqillik" tajribasi deb atashdi.

## Andijondagi muhokamalardan birida 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasida ular o'zlarini qachon mustaqil his qilishlari to'g'risida ushbu suhbatni ko'rib chiqaylik:

*Qachonki biz bozorga borib, o'zimizga yoqadigan narsalarni sotib olsak.*

– 1-ishtirokchi

*Men ishlayman. Topgan pulimni esa o'zimga yoqadigan narsalarni sotib olishga sarflashim mumkin.*

– 2-ishtirokchi



18 yoshli Qoraqalpog‘istonlik kollej talabasi so‘zlari bilan aytganda: “Uydan ko‘chaga chiqsam, o‘zimni erkak sifatida his qilaman va mening fikrim hisobga olinadi. Uyga qaytgach, men hamma narsani qilaman, ota-onam va katta akalarim bilan maslahatlashaman. Ammo do‘stlarim bilan men o‘zimni mustaqil tutaman va o‘z fikrimning egasiman”.

Individual intervyular doirasida respondentlardan ularning hayoti o‘zlarining qarorlariga yoki boshqa odamlar ular uchun qilgan qarorlariga bog‘liqligini so‘radik. 1

#### 24-JADVAL

Ba’zi odamlar o‘zlarining hayoti faqat ularning qarorlariga bog‘liq deb hisoblashadi, boshqalari esa hayot boshqa odamlar tomonidan qabul qilingan qarorlarga bog‘liq deb hisoblashadi. Sizing hayotingiz sizning qarorlaringiz yoki boshqalar tomonidan qabul qilingan qarorlarga bog‘liqligini 1 dan 10 gacha bo‘lgan o‘lchov bilan baholang

	Erkaklar	Ayollar	Oliy ma‘lumoti bor	Oliy ma‘lumotsiz	Umumiy
<b>10</b>	21.95	20.5	22.03	21.07	21.1
<b>5</b>	21.79	20.46	18.64	21.12	21
<b>Javob yo‘q</b>	12.36	11.08	7.91	11.77	11.6
<b>7</b>	10.34	9.41	12.43	9.69	9.8
<b>6</b>	8.26	9.22	13.56	8.62	8.8
<b>8</b>	7.51	8.68	10.73	8.08	8.2
<b>1</b>	4.69	7.13	2.82	6.24	6.1
<b>9</b>	5.17	4.07	8.47	4.37	4.5
<b>4</b>	3.94	4.3	2.82	4.2	4.1
<b>3</b>	2.56	3.02	0.56	2.92	2.8
<b>2</b>	1.44	2.13		1.92	1.8

## Gender munosabatlari

### **Yoshlar o'z mamlakatlaridagi gender munosabatlarining buguni va kelajagini davom etayotgan konservativ patriarxatni saqlab qolishdan teng huquqlilikka o'tishgacha bo'lgan shkala doiralarida baholadilar.**

So'rovnomada respondentlardan "ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo'lishlari kerak" degan bayonotga qo'shilishlari yoki qo'shilmassliklari so'raldi. Umuman olg'anda, yosh erkaklar va ayollar o'rtasida keng tarqalgan hamjihatlikni qayd etish mumkin. Ta'lim darajasi ushbu masala borasida yoshlarning qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. So'rovnomada ko'rsatilgan turli yosh guruhlari orasida yoshroq respondentlar ushbu bayonotni 25-30 yosh toifasidagi yoshdagilarga qaraganda ko'proq qo'llabquvvatladilar.

Muhokamalar davomida konservativ model tarafdorlari bo'lgan ishtirokchilar erkaklar "oilaning boshlig'i" bo'lib qolishlari kerakligini ta'kidladilar. Ular erkaklar boquvchi, ayollar esa uy masalalar va bola tarbiyasi uchun mas'ul bo'lishi bilan mehnatning gender taqsimotini yoqladilar. Gender munosabatlariga bunday nuqtai nazar "Osiyo tarbiyasi", o'zbek milliy urf-odatlarini, Islom tomonidan belgilab qo'yilganligi va umuman ayollarga nisbatan "hurmat" bo'lishiga asoslandi.

Qashqadaryolik 19 yoshli maktab o'quvchisining so'zlari bilan aytganda: "Bu yerda turmushga chiqqan qizning ishlashi ma'qul ko'rilmaydi. Uning asosiy vazifasi - eri va bolalariga yaxshi g'amxo'rlik qilish, uyni saranjom-sarishta saqlash. Uyda uning ishlari shundoq ham juda ko'p, ya'na u ishga ham borishi kerakmi. Sigirlarni sog'ish, non pishirish..."

Va Toshkentlik 20 yoshli universitet talabasining fikrini ko'rib chiqing: "Bu [gender munosabatlari masalasi] ijtimoiy tarbiyaga bog'liq. Men sharqona tarbiyalanganman. Mening oilamda erkak oila boshlig'i. A yol o'choqni va uyni saqlaydi".

Bu jihat Toshkent shahrilik qiz bola - 15 yoshli maktab o'quvchisi so'zlarida ham aks etadi: "Masalan, agar erkak o'z xotinidan kam pul ishlab topsa, u ayol o'z erini "hech kim emas"dek his qila boshlashi mumkin.

So'rovnoma yordamida erkak respondentlar orasida "agar erkak pul ishlab topsa va ayol esa uy-joyi va bolalariga g'amxo'rlik qilsa, hamma uchun yaxshiroqdir" degan gapga nisbatan keng tarqalgan kelishuv aniqlandi. Respondent ayollarning aksariyati ham ushbu fikrga qo'shilishlariga qaramay, bu ko'rsatkich erkaklar orasidagi ko'rsatkichga nisbatan ancha past. Shunisi e'tiborga loyiqki, oliy ma'lumotli yoshlar ushbu fikrga ko'proq tanqidiy munosabatda bo'lishdi.

So'rovnomada, shuningdek, yoshlar orasida "ayollar, xuddi erkaklar singari, biznesni boshqarishi mumkin" degan ishonch qayd etilgan bo'lib, ushbu fikr erkaklarga nisbatan ayollar orasida ko'proq qo'llab-quvvatlangan (56,6 foiz va 35,3 foiz).

### **Muhokamalarda bir qator erkak ishtirokchilar genderlararo munosabatlarning konservativ modeli ba'zan bahslashuvlarga olib kelishi haqida o'z xavotirlarini bildirdilar.**

Yosh ayollarni "G'arb" telehoullari (masalan, Turkiyadan) ta'sirida "buzilib ketishi" yoki chet elda o'sganligi sababli (masalan, Rossiyada) to'g'ri gender munosabatlariga nisbatan nuqtai nazarlarining o'zgarishi erkaklarni tashvishlantiradi. Yoshlar ushbu mamlakat tashqarisidagi ta'sirlar va O'zbekiston ichidagi yosh juftliklar o'rtasida ajrashishlar sonining ko'payishi o'rtasida bog'liqlik bor, deb taxmin qilishadi. Oxir oqibat, konservativ nuqtai nazar tarafdorlari oilalardagi erkaklar mavqeini va ayollarni "nazorat ostida" ushlab turish qobiliyatini oshirish zarurati mavjud ekanligi bo'yicha hulosaga kelishdi.

**25-JADVAL**

Ayollar erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo'lishi kerak, degan fikrga qanchalik qo'shilasiz?  
Respondentning jinsi va uning oliy ma'lumotining krosstabulyasiyasi

		Gender		Oliy ma'lumot		Umumiy
		Erkaklar	Ayollar	Oliy ma'lumotli	Oliy ma'lumoti yo'q	
<b>To'liq qo'shilmayman</b>	Hisoblangan	279	195	16	458	474
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	14.9%	7.6%	9%	10.7	10.6%
<b>Biroz qo'shilmayman</b>	Hisoblangan	167	167	22	312	334
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	8.9%	6.5%	12.4%	7.35	7.5%
<b>Qisman qo'shilaman</b>	Hisoblangan	730	891	64	1557	1621
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	38.9%	34.5%	36.2%	36.4%	36.4%
<b>Mutloq qo'shilaman</b>	Hisoblangan	665	1282	74	1873	1947
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	35.4%	49.7%	41.8%	43.8%	43.7%
<b>Javob yo'q</b>	Hisoblangan	36	46	1	81	82
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	1.9%	1.8%	0.6%	1.9%	1.8%

## 26-JADVAL

Erkak pul ishlab topsa, ayol uy va bolalarga g'amxo'rlik qilsa, hamma uchun yaxshi bo'ladi, degan gaplarga siz qanchalik qo'shilasiz? \*Respondentning jinsi va uning oliy ma'lumoti bo'yicha krosstabulyasiya

		Gender		Oliy ma'lumot		Umumiy
		Erkaklar	Ayollar	Oliy ma'lumotli	Oliy ma'lumoti yo'q	
<b>To'liq qo'shilmayman</b>	Hisoblangan	111	347	28	430	458
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	5.9%	13.4%	15.8%	10.0%	10.3%
<b>Biroz qo'shilmayman</b>	Hisoblangan	107	310	41	376	417
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	5.7%	12%	23.2%	8.8%	9.4%
<b>Qisman qo'shilaman</b>	Hisoblangan	441	771	47	1165	1212
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	23.5%	29.9%	26.6%	27.2%	27.2%
<b>Mutloq qo'shilaman</b>	Hisoblangan	1202	1132	61	2273	2334
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	64%	43.9%	34.5%	53.1%	52.4%
<b>Javob yo'q</b>	Hisoblangan	16	21		37	37
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	0.9%	0.8%	0.0%	0.9%	0.8%
<b>Umumiy</b>	Hisoblangan	1877	2581	177	4281	4458
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	100%	100%	100%	100%	100%



Maqsadli guruhlardagi muhokamalar, shuningdek, oilaviy qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatish daromad bilan chambarchas bog'liqligi yuzasidan tasavvur mavjudligini ko'rsatdi. Ba'zi erkak ishtirokchilar ta'kidlashicha, o'z daromadiga ega bo'lgan ayollar yanada talabchan bo'lib qolib, ta'sir qilish vositalarini yanada oshirishga intila boshlaydilar.


Qashqadaryolik 23 yoshli turmush qurgan yigitning ushbu fikrini ko'rib chiqing: "Hozir ko'plab yosh qizlar onalari bilan Rossiyaga yoki Qozog'istonga ishlash uchun ketishmoqda. Ular u yerda buzilib ketishadi ... Ular pul topgandan so'ng, eriga qarshi ovozini ko'tarishi mumkin deb o'ylashadi. Shu sababli, ajrashishlar sodir bo'ladi. Hozir ayollar o'zlarini erkaklardan ustun his qiladigan holatlar juda ko'p kuzatilyapti".

Qoraqalpog'istonlik ushbu 21 yoshli yigitning so'zlari bilan aytganda: "Hozir ko'plab ayollar chet elda ishlashadi, va u yer da yaxshi pul topishadi. Uyg'a qaytgach, o'zlarini shunga

yarasha tuta boshlaydilar. Ular erini hurmat qilmay qo'yadilar, xohlaganlarini qiladilar. Demak, oilada erkaklarning rolini kuchaytirish kerak ... Erkak ayolning ustidan nazorat qilishi kerak".

Maqsadli guruh muhokamalari davomida ushbu konservativ-patriarxal gender modeli tarafdori bo'lgan ayollarning fikrlari ham uchradi. Ishtirokchilar orasida qaynanalarga o'ta ilg'or yosh kelinlar bilan muomala qilish qiyin bo'ladi, degan yosh ayollar bor edi; "uy beki" kabi hodisa "odatiy" emasligi; yoki yosh qizlarning ko'chada erkaklar o'tib ketayotgan vaqtda har doim chetga chiqib turishi maqsadga muvofiqdir.

Andijonlik 24 yoshli turmush qurgan bir ayolning so'zlari bilan aytganda: "Tenglik muammosi erimni tashvishga solmoqda. Va u bu haqda gapirganda, onas unga rahm qiladi va unga hamdard bo'ladi".





Konservativ modeldan farqli o'laroq, tadqiqotning boshqa ishtirokchilari orasida ham ayollar, ham erkaklar keyingi o'n yil ichida hozirgi ustuvor gender iyerarxiyasi bo'yicha erlariga "shunchaki itoat etish"ni qabul qiladigan ayollar soni kamayadi, degan fikrni bildirishdi.

Jinslar o'rtasidagi muloqotning yanada "ochiq" madaniyati va ayollarning jamoatchilik hayotidagi ishtiroki ortishiga oid ko'plab belgilar qayd etildi. Biroq, tadqiqot ishtirokchilari ushbu o'zgarish inqilobiy emas, balki bosqichma-bosqich bo'ladi, degan fikrga qo'shildilar. Maqsadli guruh muhokamalari davomida aytib o'tilgan misollarga quyidagilar qiradi: ayollar yaqinda ma'lum qishloq joylarda "muvaffaqiyatli fermer" bo'lishgan; mahalla jamoalari rahbari etib saylangani yoki davlatning muhim lavozimlariga ko'tarilgan; 2019 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan milliy parlamentga so'nggi saylovlar paytida ayol nomzodlar avvalgidan ko'ra ko'proq bo'lgan. Yoshlar avvalgi kabi qizlarni erta turmushga bermasliklari haqida; erlar va qaynanalar yosh xotinlar bilan kamroq qat'iy muomala qilishlari; ko'proq qishloq

qizlariga shahar markazlarida o'qishga ruxsat berishlari; endi ayollar klassik erkaklar sporti (futbol) va vazifalar (uylarni ta'mirlash) bilan shug'ullanishlari ham kuzatilishi mumkinligi haqida gapirdilar.

Qashqadaryolik 19 yoshli bir ayolning fikri: "Erkaklar har doim kuchli jins vakillari bo'ladi va ayollar ularga bo'ysunishlari kerak ... Ammo ular qizlarni erta turmushga berishdan to'xtashlari mumkin. Erklar va qaynanalar yosh kelinlarni haqorat qilmaydi. Qizlarning yoshi kattaroq bo'ladi, shunda ular o'z fikrlarini himoya qila olishlari mumkin bo'ladi".

Tadqiqotning yosh ishtirokchilari ancha konservativ pozitsiyalarni aks ettirganligini ta'kidlash lozim. Bunday holat ushbu model erta sotsializatsiyaning ajralmas elementi ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarida gender munosabatlaridagi o'zgarishlar shahar markazlarida boshlanib, keyinchalik qishloq tomon sekin tarqalib borishi haqidagi tasavvur yuzaga keldi.

## Nikohdan (turmush qurganidan) keyingi hayot

Tadqiqotda, shuningdek, “turmush qurgandan keyingi hayot” qanday o‘zgarishi haqida savol berildi. Tadqiqotning ko‘plab ishtirokchilari yangi sherik yoki “ikkinchi yarmi” ularning farovonligini oshirganligi va ma’naviy, amaliy va moliyaviy ko‘makning ishonchli manbai

bo‘lganligi to‘g‘risida ijobiy tajribalar bilan o‘rtoqlashdilar. Bundan tashqari, maqsadli guruh muhokamalarining ham ayol, ham erkak ishtirokchilari nikohni o‘z ota-onalaridan mustaqil bo‘lish qadami sifatida tasvirladilar.

**Samarqandlik 19 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan ikki yosh yigit, universitet talabalari o‘rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko‘rib chiqaylik:**

*Endi ayollar o‘z huquqlarini bilishadi. Buning uchun hukumat sharoit yaratib bergan. Hozir va ya’na 10 yoki 20 yil davomida hamma narsa o‘zgarmay qoladi: oila boshlig‘i erkak bo‘ladi va ayol unga oilada yordam beradi. Shu bilan birga, ular [ayollar] ishlashlari va erkaklar kabi teng huquqlarga ega bo‘lishlari mumkin ...*

– 1-ishtirokchi

*Ular ayollarni yuqori lavozimlarga tayinlashni boshladilar. Bu bilan hukumat har kimga ayollar erkaklar bilan teng huquqlarga ega ekanliklariga namuna ko‘rsatmoqda. Bizda mahalla qo‘mitasining rahbari ayol kishi bor. U mahallani ba’zi erkaklardan ham yaxshiroq boshqaradi. Ammo shu bilan birga, oilada u erini hurmat qiladi va mag‘rur emas.*

– 2-ishtirokchi



Qoraqalpog'istonlik 23 yoshli turmush qurgan yigitning ushbu mulohazasini ko'rib chiqing: "Men uchun oila qurish ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yonimda shunday inson paydo bo'ldi-ki, men u bilan qalbmimdagi hamma narsani baham ko'rishga qodirman. Xotin sizning ikkinchi yarmingizga o'xshaydi. Bundan tashqari, menga kerak bo'lgan hamma narsa o'z vaqtida bajarilgan: ovqat o'z vaqtida tayyor va mening kiyimlarim doimo toza".

Shu bilan birga, yoshlar oilaviy hayotga o'tishda moslashish jarayonini o'z ichiga olganligini, bu avvalambor patriarxal urfodatlar bilan bog'liqligini (yosh oila kuyovning oilasiga ko'chib o'tishga moyilligini) aks ettirgan. Yosh ayollar uchun ota-ona uyini tark etish va erining oilasiga ko'chib o'tish, birinchi navbatda, uning turmush o'rtog'i va qaynanasiga yangi qaramliligi tufayli asosiy muammo sifatida tasvirlangan. Tadqiqotda qatnashgan ayollarning ta'kidlashicha, ular uchun o'zgarish ular bajaradigan dolzarb vazifalar bilan bog'liq bo'lib, ular an'anaviy ravishda ovqat tayyorlash, uyni yig'ishtirish va xonadonning ayol boshlig'iga yordam berish kabi bo'lgan. Erning xonadoniga moslashuv kelin uchun ko'proq uning bu uydagi roli, hayotidagi yangi insonlar – erining qarindoshlariga nisbatan hurmat bidirgan holda, o'zini madaniyatli tutish bilan bog'liq bo'lgan.

Andijonlik 24 yoshli turmush qurgan ayol va ona boshdan kechirganlarini quyidagilar aks ettiradi: "Siz yangi oila qurganingizda, yangi hayot boshlanadi. Yangi oilaga ko'nikish esa qiyin bo'lishi mumkin. Qizlar butunlay boshqa dunyoga kirishadi. Ular hali turmushga chiqmaganda, o'zlarini erkin his qilishgan. Ammo endi ular qaynana va er nimalar ni aytayotganlarini o'ylab ko'rishlari kerak va bundan qiynalishlari mumkin".

Farzandli bo'lish yosh onalarning hayotiga baxt keltiruvchi manba sifatida keng tasvirlangan. Umuman olg'anda, "bolalar"ni baxtli oila tushunchasi bilan savolnomadagi respondentlarning 47,8 foizi bog'lagan ("ishonch va tushunishdan keyin ikkinchi o'rin", 70,9 foiz). Bu javob, shuningdek, ayollar uchun (52,1 foiz) erkaklarga (41,8 foiz) nisbatan muhimroq bo'lib chiqdi.

Shu bilan birga, respondentlar onalikning roli ularning kundalik hayotiga yangi va jiddiy vazifalarni kiritishi haqida ham o'ylashdi. Ilgari muhokama qilinganidek, nikoh va onalik ta'lim yoki kasbiy faoliyatini boshlash yoki davom ettirishga intilgan yosh ayollarga katta to'siqlarni keltirib chiqardi.

Ota-onasining uyida qolgan yosh erkaklar uchun xotinlari va onalari o'rtasida qanday qilib uyg'un munosabatlarni o'rnatishni o'rganish vazifasi turadi. Bundan tashqari, muhokamalarning erkak ishtirokchilari nikoh ularga yangi moliyaviy majburiyatlar ni yuklashini ta'kidladilar, bu esa ularni "o'sishga" majbur qiladi va yangi oilasini ustuvor vazifaga aylantirishga undaydi.

Qoraqalpog'istonlik 24 yoshli erkakning so'zlari bilan aytganda: "Oilada bolalar paydo bo'lishi bilan javobgarlik keskin ortadi. Bolalar hali kichkina bo'lsa ham, siz ularga ta'lim berish, o'ylantirish yoki turmushga chiqarish va yashash joyi bilan ta'minlash kerak bo'ladi, deb o'ylay boshlaysiz. Va shuning uchun, zimmangizga katta mas'uliyat tushadi."

So'rovnomada erkak respondentlarning deyarli 65 foizi erkak kishi 23 yoshdan 25 yoshgacha turmush qurishi kerak, degan fikrni bildirishgan. Tadqiqotda ishtirok etgan ayollarning 25,7 foizi ayollar uchun eng yaxshi nikoh yoshi 20 yoshga teng bo'ladi deb o'ylashgan.

## **“Tadqiqotning ko‘plab ishtirokchilari yangi sherik yoki “ikkinchi yarmi” ularning farovonligini oshirganligi va ma’naviy, amaliy va moliyaviy ko‘makning ishonchli manbai bo‘lganligi to‘g‘risida ijobiy tajribalar bilan o‘rtoqlashdilar.”**

Maqsadli guruh muhokamalari davrida erta turmush qurish erta ajrashishga olib kelishi mumkin degan xavotir keng bayon qilindi. Ko‘pgina yoshlar 20 yoshgacha bo‘lgan qizlar turmushga tayyor bo‘ladimi yoki yo‘qmi degan savolni berishdi. Tadqiqotda qatnashgan ayollarning ta’kidlashicha, 22 yoshdan oshgan ayol O‘zbekistonda turmush o‘rtog‘i, kelin va ona bo‘lish keltirib chiqaradigan jismoniy va hissiy muammolar ni yengish uchun ayolga mos keladi. Muhokamalar davrida erta homiladorlik va yoshlikdagi ajrashish uchun ayb odatda erkaklarga emas, ayollarga yuklangani sezilib turdi.

Andijonlik 19 yoshli qiz bola, universitet talabasi fikri bilan: “Agar ular [yosh qizlar] axloqiy jihatdan tayyor bo‘lmasalar, demak, bu depressiya va ajrashishlarga olib keladi. Ota-onalarning aksariyati qizlarini oilaviy hayotga tayyorlamaydilar. Ba’zi qaynanalar o‘zlari uyda tushlik qilolmaydi, idish yuvolmaydi yoki tartibni saqlay olmaydi. Biroq, ular kelin bularning barchasiga qodir bo‘lishini talab qilishadi”.

Yoki Qashqadaryolik 19 yoshli qiz bolaning ushbu fikrini ko‘ring: “Er uydan ketib qolganda yoki sizni uydan quvib chiqarganda, bu biz uchun juda uyat. Agar ayol bunga yo‘l qo‘ysa, demak eri tashlab ketganiga ayolning o‘zi aybdor...”

## 4.4

# Yashash joyi va mobillik



## Asosiy hulosalar

- O'zbekistondagi yoshlar o'zlarining qishloqlari va shaharlariga mutlaqo tegishlilik hissini namoyish qiladi va ular mamlakat ichida (80,3 foiz) yoki chet elda (77,3 foiz) bo'lishidan qat'i nazar, ularning ko'chib ketmaslikka asoslanganligi juda yuqori.
- Tanish geografik va ijtimoiy muhitda yashash istagi tadqiqot ishtirokchilaridagi o'zgarishni yoqtirmaslik, noma'lum narsadan qo'rqish yoki salbiy migratsiya tajribalariga asoslangandek ko'rinadi.
- O'zbekiston yoshlari "yashash uchun yaxshi joy" qishloq yoki shahar bo'lishi mumkin, degan fikrga qo'shiladi. Eng muhim shart - oilasi u yerda tinch, sog'lom va osoyishta hayot kechirishi mumkin bo'lishidir.

**“So‘rovnoma respondentlari o‘zlarining “ideal yashash joyi”ning quyidagi uchta xususiyatini eng muhim deb e‘tirof etdilar: “oila va qarindoshlarga yaqinlik” (61,9 foiz), “sifatli ichimlik suvi” (46,1 foiz) va “uzluksiz elektr ta‘minoti / gaz ta‘minoti” (44,9 foiz). “**

## **“Ideal joy” va uyga tegishlilik**


So‘rovnoma respondentlari o‘zlarining “ideal yashash joyi”ning quyidagi uchta xususiyatini eng muhim deb e‘tirof etdilar: “oila va qarindoshlarga yaqinlik” (61,9 foiz), “sifatli ichimlik suvi” (46,1 foiz) va “uzluksiz elektr ta‘minoti / gaz ta‘minoti” (44,9 foiz). Bu omillarning barchasi qishloq joylarda yashovchi ayollar va yoshlar uchun ayniqsa muhimdir. Ular

uchun yana ikkita muhim omil - bu maktablar / bolalar bog‘chalari va tibbiyot muassasalarining yaqinligi. Erkaklar uchun muhimroq bo‘lgan omillar - do‘stlarga yaqinlik, ishga yaqinlik, yaxshi jamoat transporti va yo‘llarning sifati. “Keng uy, kvartira” kabi omillar qishloq joylariga qaraganda shaharda yashovchi yoshlar uchun muhimroq (16,5 foiz va 8,5 foiz).



## 27-JADVAL

Ideal yashash uchun eng muhim shartlar, %



■ Shahar hududi   ■ Qishloq hududi   ■ Erkaklar   ■ Ayollar   ■ Total




Tadqiqotda ishtirok etgan yoshlar o'zlarining qishloqlari va shaharlariga mutlaqo tegishlilik hissini namoyish qildilar. Aksariyat respondentlar

(80,3 foiz), qishloqlarga qaraganda ko'proq shaharlarda, O'zbekiston ichida boshqa joyga ko'chib o'tishni istamasliklarini bildirdilar.

## 28-JADVAL

Mamlakatingizdagi boshqa shaharga/qishloqqa ko'chib o'tishni xohlaysizmi?




So'rovda qatnashganlarning O'zbekistondan boshqa mamlakatga ketishga bo'lgan istagi ham juda past - respondentlarning 77,3 foizi "hech qanday sharoitda" mamlakatni tark

etmasliklarini bildirgan. Shunisi e'tiborliki, qishloq yoshlari shahar yoshlariga qaraganda migratsiyaga yanada kam darajada moyil.

## 29-JADVAL

O'zbekistonni tark etib boshqa davlatga ketish haqida o'ylash, %



## Farg'ona shahrida o'tkazilgan maqsadli guruh muhokamalari paytida 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasidagi ushbu fikr almashinuvida ham ushbu jihat o'z aksini topdi:



Yoshlar o'zlariga ma'lum bo'lgan, geografik va ijtimoiy jihatdan barchasi tanish muhitda yashash juda qulay ekanligini bildirishdi. Ko'pchilik ushbu jonajon muhit ular ning o'zlari haqidagi tasavurning qismi ekanligini tushunadilar va o'zlarining shaxsiy hayotlari uchun muhim deb biladilar.

Farg'onalik 18 yoshli kollej talabasi so'zlari bilan aytganda: "Bir maqol bor:" O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l".

O'zbekiston miqyosida migratsiya imkoniyatini ko'rib chiqqan yoshlar quyidagi asosiy sabablarni ko'rsatdilar - "Turmush darajasini yaxshilash" (54,9 foiz); "Ishga joylashish uchun yaxshiroq / turli imkoniyatlar" (50,0 foiz); va "Yanada sifatli suv, elektr va gaz ta'minoti, shuningdek sifatli transport va yo'llar" (43,5 foiz).

Chet elga migratsiya uchun (ko'rib chiqish) ko'rsatilgan to'rtta asosiy sabab "ta'lim olish" (shahar joylarida yoshlar orasida teztez uchraydigan sabab), "turmush darajasini yaxshilash", "hayot sifatini oshirish" va "bandlik va mansabni rivojlantirish".




Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida uyga bo'lgan kuchli bog'lanish ko'pincha o'zgarishlarni yoqtirmaslik va noma'lum narsadan cho'chish sababli yuzaga kelishi aniqlandi. Tadqiqotning ko'plab ishtirokchilari "begona joylar" ular bilmagan o'zlarining ijtimoiy "qonunlariga" ega bo'lishlarini va shuning uchun ular u yerda kimga ishonish mumkinligi va kimga ishonmasliklarini tushunish deyarli mumkin emasligini ta'kidladilar. Bundan tashqari, MGM davomida ko'plab fikrlar uydan uzoqda, ijtimoiy munosabatlar hech qachon bu qadar iliq va qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi mumkin emasligini ta'kidladilar.

Andijonlik 22 yoshli yigitning fikriga ahamiyat bering: "Men u yerda [noma'lum joyda] yetim kabi bo'lishni xohlamayman. Men ota-onam va akalarimdan uzoqda yashashni xohlamayman. Men qarindoshlarimdan olis joyda yashashni istamayman. Agar oilamning barcha a'zolari ketishsa, men ham ketaman".

Yoki Farg'onalik 24 yoshli turmush qurgan ayol va onaning bu fikriga qarang: "Men shu yerda tug'ilganman va o'zimni qishlog'im rivojiga bag'ishlayman. Boshqa joyga ko'chib, hamma narsani yangidan boshlashni xohlamayman."

## 30-JADVAL

Migratsiya uchun sabablar, %



Fargʻonalik bir 16 yoshli qizbola, maktab oʻquvchisining fikri bu jihatni ham aks ettir di: “Ha, bu koʻp bezovta qilmoqda [odamlarni yangi joyda tanimaslik]. Chunki ular bilan suhbatlashishdan ham ularning yaxshi yoki yomonligini bilmay qolasiz. Bu siz darhol tushunmaydigan narsadir. Buni tushunish uchun vaqt kerak”.

Va Qoraqalpogʻistonlik 18 yoshli kollej talabasining fikri: “Ammo u yerda [yangi joyda] hammasi boshqacha boʻladi. Chunki sizning atrofingizda begonalar boʻladi ... Boshqa mamlakatda siz bu yerdagidek qoʻshnilar bilan munosabatda boʻlmaysiz. Bu yerda har doim qoʻshnilar bilan zarur boʻlgan barcha

narsalarning oʻzaro almashinuvi mavjud. U yerda esa bunday boʻlmaydi”.

Tadqiqot ishtirokchilari odatdagi madaniy umidlarga bogʻliq boʻlgan harakatchanlikdagi mumkin boʻlgan cheklovlarni ham eslatib oʻtdilar. Yosh ayollar uchun ota-onalarning xohishi turmushga chiqmagan qizlarining obroʻsiga putur yetmasligi uchun oilaga yaqin boʻlishlari boʻladi. Yigitlar uchun oilaning kenja oʻgʻli ota-onaga qariganda, ularga gʻamxoʻrlik qilishi kerak boʻlgan anʻana boʻlishi mumkin. Shunga qaramay, ushbu urfodatning ikkalasi ham MGM paytida tanish muhitda qolish istagi kabi katta ahamiyatga ega emas edi.

## Qishloq va shahar joylari

Yoshlar yashash uchun yaxshi joy qishloq yoki shahar hududi boʻlishi mumkinligiga qoʻshilishdi. Eng muhimi, bu joy tinch yoki osoyishta va oilasi sogʻlom va osoyishta hayot kechirishi mumkinligi bilan ajralib turishi lozim.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, soʻrovnomada qatnashganlar oʻzlarining “baxtli oila” haqidagi tushunchalarini “salomatlik” (36,1 foiz) va “tinch hayot” (34,7 foiz); “ishonch va tushunish” (70,9 foiz), “bolalar” (47,8 foiz) bilan bogʻliqligini taʼkidlashgan.

Fargʻonalik 18 yoshli yigitning soʻzlari bilan aytganda: “Qishloqmi yoki shaharmi, muhim emas, yaxshi joy hamma yerda boʻlishi mumkin. Eng muhimi, u yer tinch va osoyishta boʻlsin..”

Shuningdek, mana bu Samarqandlik 24 yoshli ayolning sharhini koʻring: “Siz u yerda baxtli yashash lozim, tinchlik va osoyishtalik boʻlishi kerak. U yerda sizning oilangiz yashashi uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud boʻlishi darkor”.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar paytida ishtirokchilar, shuningdek, shahar va qishloq sharoitlari oʻrtasidagi farqlarni qiyoslashdi.

Yoshlar, qishloqdagi hayotning bir qismi sifatida, aholining birinchi tashvishi koʻpincha shaxsiy intilishlardan koʻra koʻproq mahalla jamoatchiligi haqida boʻlishi yuzasidan bildirilgan fikrga qoʻshilishdi. Yaqin qoʻshnichilik munosabatlari zarur boʻlganda aholiga bir-birini osonlikcha qoʻllab-quvvatlashga imkon beradi, shuningdek, jamoatchilikda notoʻgʻri xattiharakatlar toʻgʻrisida gʻiybatlarni tezda tarqatib yuborish xavfini ham tugʻdirdi. “Oddiy” qishloq aholisi “yaxshi qalb”ga ega ekanligi bilan ajralib toʻrardi, bu baʼzan ularni ijtimoiy bitimlar paytida juda ishonuvchan va deyarli sodda boʻlishiga olib keladi.

Aksincha, shahar munosabatlari ancha anonim, befarq va raqobatbardosh, ammo mustaqilroq va shu bilan muqobil hayot tarzlarini olib borishga imkon beruvchi sifatida tasvirlangan. Shahar aholisi, shunga muvofiq, qishloqdagi hamyurtlariga qaraganda individual imtiyozlardan foydalanishni va “epchilroq” boʻlishni afzal koʻradigan deb tasvirlandi.

Bu jihat Farg'onalik 18 yoshli qizning so'zlarida aks etgan: "Bizda [shaharliklar va qishloq aholisi o'rtasida] boshqa muloqot madaniyati bor. Ehtimol, bizning qishloq aholisining ruhi shahar aholisiga nisbatan tozaroq bo'lishi mumkin ... Va [guruhlardagi muhokamamizda] biz qishloq maktablari o'qituvchilari o'zlarining fikrlari va histuyg'ularini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etishlari va o'zlarining ifoda uslublarini nazorat qila olmasliklarini ta'kidladik. Shu sababli, bolalar ham hamma narsani xuddi ota-onalari kabi, o'zlariga ma'qul tarzda ifoda etishga odatlangan".

Yoki Andijonlik 20 yoshli ayolning ushbu sharhini ko'rib chiqing: "Shahar qizlari mustaqilroq, ular hamma narsa qanday ishlashini bilishadi. Qishloq qizlari orasida sodda va ishonuvchanlari ko'p".

Qishloq va shahar joylari moddiy muhit sifatida, shaharlar kundalik hayot uchun muhim ob'yektlarning mavjudligi va yaqinligi jihatidan "madaniyatli" va "qulay" deb tushunilgan. Bunga kasalxonalar, maktablar, o'quv markazlari, do'konlar, o'yin maydonchalari va Internet kiradi. Aksincha, qishloqlarda yashovchi tadqiqot ishtirokchilari nafaqat bunday sharoitlarning sifatsizligi yoki yo'qligi, balki ularning elektr energiyasi, ichimlik suvi yoki gaz kabi birlamchi ehtiyojlar kabi bunday oddiy ob'yektlardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi yoki uzilib qolganligi haqida hikoyalar bilan o'rtoqlashdilar. Boshqa tomondan, tadqiqot qishloq infratuzilmasi va aloqaning so'nggi paytlarda yaxshilanganiga ishora qiluvchi fikrlarni qayd qildi.

Yoki Andijondan kelgan 15 yoshli maktab o'quvchisi, qiz bolaning fikri: "Elektr ta'minoti soat 9 da o'chiriladi, soat 13 da qaytadan yoqiladi. Ayniqsa, qish paytida elektr energiyasini tez-tez o'chirishadi... Suv ta'minoti ham ertalab soat 9 da to'xtaydi, kechqurun yana paydo bo'ladi..."

Shu bilan birga, qishloq joylaridan kelgan ko'plab yoshlar o'zlarining moddiy turmush sharoitlarini ikkinchi darajali muammo deb qarashlari yoki ularni muvaffaqiyatli yengib o'tishlari bilan g'ururlanishadi. Buning o'r niga ular qishloqlarda keng, toza, arzon va sog'lom yashash muhitining mavjudligi kabi bir qator umumiy ijobiy jihatlar ni ta'kidladilar.

**Ishtirokchilarning barchasi  
14yoshdan 18 yoshgacha  
bo'lganQoraqalpog'istondagi  
maqsadliguruhlardagi  
muhokamalarni ayolishtirokchilar  
o'rtasidagi ushbu  
fikralmashinuvini ko'rib chiqaylik:**

**1-ishtirokchi:** Shaharda sizkafeda o'tirib, do'stingiz bilansuhbatlashishingiz mumkin ...

**Moderator:** Sizlarda yana nima yo'q[o'z qishlog'ingizda]?

**2-ishtirokchi:** Ta'lim markazlari yo'q.

**3-ishtirokchi:** Bolalar bog'chalari yo'q.

**4-ishtirokchi:** Qizlar uchun tikuvchiliksexi yo'q...

**5-ishtirokchi:** Asfalt yo'q. Yomg'irostida yurishning iloji yo'q. Poyabzalingizkir bo'ladi. Loydan poyabzalingiz tezdaeskiradi.

Samarqandlik 22 yoshli yigit o'z kuzatuvini bilan o'rtoqlashdi: "Qishloqlarda hammasi yomon deyish to'g'ri emas. Uylar, bolalar maydonchalari, bolalar bog'chalari qurildi ... Hayot qishloqlarda yaxshilanmoqda, ko'plab hukumat qarorlari chiqarildi".


Andijon viloyatidagi qishloqdan kelgan 19 yoshli bu yigit shunday dedi: “Qishloqlar da hayot yomon deyishga hojat yo‘q. Bizning vatanimiz u yerda, biz u yerda katta bo‘ldik. Ha, bizda [shahar] sharoitlari yo‘q, biz qiyinchiliklarga duch kelmoqdamiz. Ammo biz bunga dosh bermyapmiz, chunki qarindoshlarimiz yonimizda. Shaharda bularning barchasi [qulay sharoitlar] mavjud, shuning uchun hayot osonroqdir”.

Tadqiqot yoshlar chet elni salohiyatli yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqqanida, yoshlar uchun tajriba almashinuvi va «begona joylar» haqida tasavvur o‘ynaydigan muhim rolni aniqladi.

O‘zbekistondan tashqarida, Rossiya tadqiqot qatnashchilari o‘rtasida munozaralarning markazida bo‘lgan. Migratsiya uchun uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lgan asosiy yo‘nalish sifatida, Rossiya asosan, ta‘lim tizimi va daromad olish imkoniyatlarining yaxshilanishi tufayli jozibador hisoblanadi. Tadqiqot ishtirokchilari Rossiyada yuqori ish haqiga erishish O‘zbekistondagi oila va qarindoshlarga pul yuborish yoki uyga qaytgandan keyin yangi martaba yoki biznes boshlash uchun investitsiya kapitalini to‘plash uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladilar.

Iqtisodiy muvaffaqiyatga erishish istagi bilan bir qatorda, tadqiqot qatnashchilari Rossiyadagi O‘zbekiston fuqarosiga integratsiya qilish va ishlashning haqiqiy jarayoni talabchan bo‘lishiga va hatto jismoniy va hissiy yaxlitligi uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkinligi haqidagi fikrga qo‘shilishdi. Yoshlar rus tilini yaxshi bilmaydiganlar uchun til to‘siqlarini, sovuq ob-havoni, ijtimoiy yakkalanishni, “rus bo‘lmaganlarga” qarshi ksenofobik tajovuzni va davlat amaldorlari (masalan, politsiya) tomonidan ta‘qib qilishni aytib o‘tdilar. Ba‘zi bir O‘zbekiston fuqarolari uchun Rossiyadagi avvalgi tajribalari, u yerda ishlab topilgan yaxshi puldan qat‘i nazar, mehnat migratsiyasi masalasini qayta ko‘rib chiqishga xalaqit beradi.

Andijonlik 24 yoshli yigitning so‘zlari bilan aytganda: “Chunki [Rossiya] begona yurt. Men, masalan, o‘tgan yili pul topish uchun Rossiyaga bordim. Men u yerda boshdan kechirgan narsalarni hech kim boshdan kechirmasligini tilayman. Birinchidan, tilni bilmaslik. Biz rus tilini yetarlicha bilmaymiz. Ikkinchidan, ularning qonunlarini bilmaslik. U yerda har qanday politsiyachi sizni to‘xtatib, hibsga olishi mumkin. Ish beruvchilar bizni hurmat qilmaydi va biz qiyin shar oitlarda ishlaymiz. Biz bitta barakda 20 ga yaqin odam bilan yashadik. Men u yer da atigi uch oy to‘ra olardim, shunda u yerga borish uchun sarflagan harajatlarimni chiqardim”.



Yoki Samarqandlik bu 23 yoshli yigit: “Men ishlashga bordim - bu juda qiyin edi. Men Piterda bo’ldim. Ammo hozir kimdir menga ish haqi yuqori ekanligini aytsa ham, men bormayman. Agar kimdir u yerga sayohat qilishni aytsa, Sankt-Peterburgda ko’plab muzeylar bor, men borar edim. Lekin ish uchun emas. Men bunga chek qo’ydim.”

Shu bilan birga, O‘zbekistonda ham, shahar va qishloq o‘rtasidagi asosiy ajralishlardan tashqari, tadqiqot qatnashchilari turli hududlarning o‘ziga xos “mentaliteti” ni mahalliy bo‘lmaganlarning

birlashishini murakkablashtiruvchi omillar sifatida aniqladilar. MGM davomida ishtirokchilar turli “she’va”, nutq uslublari yoki o‘zbek tilini talaffuz qilish usullari, masalan, Andijon, Toshkent yoki Qoraqalpog‘iston o‘rtasida til farqlari sabab ijtimoiy yakkalanishni muhokama qildilar. Boshqalar ma’lum bir odatiy turmush tarziga moslashishda bir mintaqada (masalan, Farg‘onada) boshqalarga (masalan, Andijonga) qaraganda, ayollarning ishlashiga, ochiq kiyinishiga, jamoat joylarida chekishga yoki mashina minishiga toqat qilishiga nisbatan ko‘proq “yevropalashgan” bo‘lishini ta’kidladilar.



**“Toshkentda yashash yaxshi, lekin bu joyga va uning [ijtimoiy] muhitiga o‘rganishingiz uchun 5-10 yil vaqt ketadi. Masalan, men do‘konga kirganimda, ular qayerdan kelganimni so‘rashdi. Men o‘zim Andijonlik ekanligimni aytdim, Toshkentliklar esa mening shevamdanda darhol tushunganliklarini aytishdi.”**

Andijonlik kollej talabasi, 17 yoshli yigitning fikricha: “Toshkentda yashash yaxshi, lekin bu joyga va uning [ijtimoiy] muhitiga o‘rganishingiz uchun 5-10 yil vaqt ketadi. Masalan, men do‘konga kirganimda, ular qayerdan kelganimni so‘rashdi. Men o‘zim Andijonlik ekanligimni aytdim, Toshkentliklar esa mening shevamdanda darhol tushunganliklarini aytishdi”.

Yoki Andijonlik 19 yoshli universitet talabasi bo‘lgan bir qizning fikri: “Masalan, agar siz Andijondan Farg‘onaga ko‘chib ketsangiz, unda Farg‘onaliklarning mentaliteti biznikidan biroz farq qiladi. Farg‘onaliklar bizdan ko‘rako‘proq yevropalashgan. Shuningdek, ularning tili ham farq qiladi.”

## 4.5 Jamoatchilik ta'siri



### Asosiy hulosalar

- Yoshlar “siyosiy yangiliklar” ga katta qiziqish bildirmoqda va o‘z fikrlarini jamoatchilikka bildirishda “o‘zlarini erkin his qilishadi”, lekin aslida ularning faqatgina kichik qismigina jamoat yoki siyosiy tashkilotlarda faol bo‘ladi.
- Tadqiqot qatnashchilari ular “kattalar yaxshiroq biladi” degan ijtimoiy tasavvurga asoslanib, mahalliy (mahalla) darajadagi qarorlarni qabul qilish jarayonidan va faoliyatidan chetlatilganliklari haqidagi fikrga qo‘shildilar.
- Yoshlar o‘zlari va katta avlod o‘rtasidagi muloqot qilish amaliyotini o‘zgartirishni qo‘llab-quvvatlaydilar va ular yoshlarning hayotiy tajribasiga jiddiy qiziqish va yoshlar bilan faol o‘zaro aloqalar paydo bo‘lishini muhim deb hisoblaydilar.
- Mavjud yoshlar harakatlari, xususan Yoshlar ittifoqi o‘z faoliyatini ko‘proq mahoratni oshirishga va ta‘lim, va kasbiy muvaffaqiyatga tegishli mavzular bo‘yicha axborot taqdim etishni yaxshilashga qaratishi kerak, degan fikr keng tar qalgan.

## Siyosiy qiziqish, erkinlik va faollik

Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, yoshlar orasida "siyosiy yangiliklarga" keng qiziqish mavjud. Respondentlarning 45,0 foizi "juda qiziqaman", yana 30,5 foizi "biroz qiziqaman" deb da'vo qilishdi.


Qishloq va shahar hududlaridan qatnashgan respondentlar "siz o'z fikringizni jamoatchilik oldida erkin bayon etishingiz mumkin" degan bayonot bilan keng miqyosda rozi bo'lishdi. Umuman olg'anda, ishtirokchilarning 53,2 foizi ushbu bayonotga "mutlaqo" qo'shilgan va 34,0 foizi "biroz" qo'shilgan. Shu bilan birga, ushbu fikrni qat'iy qo'llabquvvatlaydigan qizlar va yosh ayollar soni erkaklar va yigitlarga qaraganda ancha past (48,1 foiz va 60,1 foiz).

Shu bilan birga, 18 yoshdan yuqori bo'lgan 83,9 foiz respondentlarning ko'pchiligi jamoat yoki siyosiy tashkilot, yoki harakatlarda faol emasliklari haqida aytgan.

Fuqarolik ishtirokini yaqindan o'rganib chiqishda, "ko'ngillilar va xayriya faoliyati" so'rovda qatnashganlarning aksariyati muntazam ravishda qatnashganligi to'g'risida xabar beradigan yagona soha sifatida ajralib turibdi.


### 31-JADVAL

Jamoatchilik oldida o'z fikringizni erkin ifoda eta olishingizga qanchalar qo'shilasiz?




## 34-JADVAL

Jamoatchilik oldida o'z fikringizni erkin ifoda eta olishingizga qanchalar qo'shilasiz?




## 35-JADVAL

Siz jamoat yoki siyosiy tashkilot, yoki harakatning faoliyatida qatnashasizmi?



## 36-JADVAL

Quyidagilarning faoliyatida qatnashadilar





## Siyosiy va jamoatchilik qarorlariga ta'sir

Tadqiqotda yoshlardan siyosiy va jamoatchilik qarorlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatlariga haqidagi qarashlari qanday ekanligi bo'yicha savol berilgan. So'rovnoma respondentlari o'zgarishlarga o'zlarining ta'sir ko'rsatish salohiyatiga bo'lgan kuchli ishonchlarini aks ettirgan. Yoshlarning 52,3 foizi ularda "ta'sir o'tkazishning ko'plab usullari" mavjud ekanligini ta'kidladilar.

MGM paytida asosan 18 yoshdan kichik yoshdagi ishtirokchilar siyosiy masalalarga hech qanday ta'sir o'tkazmasliklariga qo'shilishdi. Ular hanzugacha "kichkina" deb hisoblanishlarini va ulardan kutilayotgan yagona narsa bu yaxshi o'qish ekanligini ta'kidladilar.

Toshkent shahrida o'tkazilgan MGM paytida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasida ushbu fikr almashinuvini ko'rib chiqamiz.

**Moderator:** Siz ... jamoatchilik hayotiga qanday ta'sir qila olasiz?

**Bir vaqtning o'zida ko'plab ishtirokchilar:** Yo'q, biz bunga umuman ta'sir qilmaymiz ...

**1-ishtirokchi:** [Chunki] biz hali kichikinamiz ".

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davrida O'zbekistonning yangi Parlamentiga saylovlardavom etayotganligi sababli, ushbu siyosiyvoqea yosh ishtirokchilar orasida kengmuhokama qilindi. Saylov yoshiga yetganko'plab yoshlarning fikri shuki, umumanolg'anda, ushbu saylovlar ularga ovoz beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot turli-tuman nuqtainazarlar mavjudligini qayd etdi. Tadqiqotningayrim ishtirokchilari nomzodlarga ovozberishda anglangan tanlov qilishganini vaushbu saylovlar ularning tumanlarida ijobiyo'zgarishlarga sabab bo'lishiga ishonchlarikomil ekanligini bildirdi. Tadqiqotning boshqaishtirokchilari ovoz berishdi, ammo buninghaqiqiy ta'siriga shubha bilan qarashdi. Bunga saylovlarning adolatli o'tishigashubha qiladigan va hokimiyat tomonidannomzodlar oldindan o'tib ketishi yokio'tmasligi to'g'risida aniqlangan deb taxminqilingan ovozlari kiritilgan. Unga prezidentlikkonstitutsiyaviy respublikaning amaldagisiyosiy tizimida nomzodlar passiv yokisamarasiz bo'ladi, deb ishonganlar hamkiritilgan.

Shunga qaramasdan, tadqiqotning boshqaishtirokchilari, asosan yosh ayollar, ushbusaylovda qatnashmaganliklarini ta'kidladilar. Sabablar orasida qiziqish yoki axborotning yetishmasligi, erlari ularga saylovda qatnashishga ruxsat bermaganligi yokioilaning bitta kekxa a'zosi borib, butun oila uchun jamoaviy ovoz berganligi ko'rsatilgan.

Andijonlik 24 yoshli turmush qurgan ayol vaonaning fikrini ko'rib chiqing: "Menimcha, bu saylovlarning hech qanday ma'nosiyo'q. O'ylaymanki, ushbu saylovlarda ularkim kimni bilishini hisobga olib, deputatlar nitanlaydilar [saylov natijalari oldindan kelishibolinishi mumkinligini nazarda tutib].

Samarqandlik 18 yoshli universitet talabasi, qizning fikri: "[Bir mahalliy] kasalxonaning tibbiy shifokori o'z nomzodini qo'ydi. Bizunga ovoz berdik ... [Moderator: "biz" -bu kim?] Onam unga ovoz ber di ... biz uhaqida faqat yaxshi narsalarni eshitgan edik. Shuning uchun men ham unga ovoz ber dim".

Boshqa tajriba haqida Samarqand shahrida o'tkazilgan maqsadli guruh muhokamasining 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilarining quyidagi fikr almashinuvida o'z aksini topdi:

**1-ishtirokchi:** Men [saylovda] qatnashmadim.

**Moderator:** Nega?

**1-ishtirokchi:** Men yaqindagina turmush qurganim uchun ...

**3-ishtirokchi:** Men ham qatnashmadim. Menga qiziq emas, chunki ulardan [saylovlardan] hech qanday foyda yo'q. Ilgari ular qandaydir [saylovlar] dasturlarini tayyorlar edilar ... Ammo baribir natijalar (o'zgarishlarni anglatuvchi) umuman bo'lmadi. Va ular (deputatlar) va'dalarini bajarmaydilar va ulardan hech qanday yaxshilik yo'q ...

**4-ishtirokchi:** [Shuningdek, saylovlarda qatnashmagan.] Chunki erim meni u yerga qo'ymedi ...

Yoshlar o'zlarining mahalla fuqarolar yig'inlari (mahalla) ning mahalliy masalalariga bevosita ta'sir qilmasliklari haqidagi fikrga qo'shildilar. Tadqiqot ishtirokchilari tomonidan ijtimoiy o'zgarishlarga ko'maklashish yoki ularni cheklashda, va jamoatchilik fikrini shakllantirishda mahalla qo'mitalari roli shubha ostiga olinmadi.

So'rovnoma ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 96,7 foizi gender guruhlari va qishloq, va shahar bo'ylab o'zlarini mahalla jamoatchiligining bir qismi deb hisoblashadi.

### 37-JADVAL

O'zingizni mahallangizni, kichik vatangizni bir qismi deb bilishingizga qanchalik qo'shilasiz?

		Gender		Turar joy		Umumiy
		Erkaklar	Ayollar	Shahar hududi	Qishloq hududi	
<b>To'liq qo'shilmayman</b>	Hisoblangan	24	39	40	23	63
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	1.3%	1.5%	1.9%	1.0%	1.4%
<b>Biroz qo'shilmayman</b>	Hisoblangan	15	36	30	21	51
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	0.8%	1.4%	1.4%	0.9%	1.1%
<b>Qisman qo'shilaman</b>	Hisoblangan	453	640	602	491	1093
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	24.1%	24.8%	28%	21.3%	24.5%
<b>Mutloq qo'shilaman</b>	Hisoblangan	1372	1848	1461	1759	3220
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	73.1%	71.6%	68%	76.1%	72.2%
<b>Javob yo'q</b>	Hisoblangan	13	18	15	16	31
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	0.7%	0.7%	0.7%	0.7%	0.7%
<b>Umumiy</b>	Hisoblangan	1877	2581	2148	2310	4458
	% respondentning jinsi va oliy ma'lumoti miqyosida	100%	100%	100%	100%	100%



**“Yoshlar o‘zlarining mahalla jamoalari (mahalla qo‘mitalari)ning mahalliy masalalar bo‘yicha qarorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsata olmasliklari haqidagi fikrga qo‘shilishdi. Mahalla qo‘mitalarining ijtimoiy o‘zgarishlarni osonlashtirish yoki cheklashdagi roli va ta‘siri tadqiqot ishtirokchilari tomonidan muhokama qilinmadi.”**

Maqsadli guruh muhokamalari davomida ishtirokchilar mahallani yoshlarning nuqtai nazarini umuman qabul qilmaydigan va aksincha, ularni ushbu mahalliy qarorlarni qabul qilish jarayoni bilan birlashtirish o‘r niga, ularning ovozlari o‘chirishga intilgan oqsoqollar hukmronlik qiladigan muassasa sifatida tasvirlab berdilar. Ba‘zi yoshlar o‘zlarining yaqin atrofidagi masalalarga ta‘sir qilishini tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan yagona usuli o‘z ota-onalari orqali ta‘sir ko‘rsatish edi. Biroq bu keng tarqalgan yoki samarali deb hisoblanadigan kanal ekanligi haqida xabar berilmagan.

Samarqandda o‘tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalarning 19 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan bir necha erkak ishtirokchilarning ushbu jamoaviy javobini ko‘rib chiqamiz:

**“Moderator:** Masalan, o‘z mahallangizdagi muammolarni ko‘tarishingiz mumkinmi va sizni tinglashadimi?

**Bir vaqtning o‘zida bir necha ishtirokchilar:** Yo‘q, bizni tinglashmaydi. Barcha masalalarni oilada kattalar hal qiladilar”.

**Yoki Samarqandlik 20 yoshli universitet talabasi bo‘lgan qizning so‘zlari bilan aytganda:** “Agar bizning mahallamizda biron bir narsa yuz bersa, odatda ular (vakillar) ota-onamizga murojaat qilishadi. Ammo hech kim bizga murojaat qilmaydi”.

## Yoshlarning hayotiy tajribasini jiddiy qabul qilish

Ayniqsa, tadqiqotning ushbu qismida yoshlar o'z nuqtai nazarlariga jiddiyroq qarashlarini istashlarini bildirdilar. Maqsadli guruh muhokamalari ishtirokchilari zamonaviy O'zbekiston jamiyati masalalari bo'yicha yosh va keksa avlodlar o'rtasida muloqot qilish amaliyotini o'zgartirishni yoqladilar. Ular ota-onalar, siyosiy rahbarlar va boshqavakolatli shaxslarning yoshlarning hayotiy tajribasiga qiziqishlari va ular bilan faol aloqada bo'lishlarini muhim deb hisobladilar. Tadqiqot ishtirokchilari o'zlarining sezgirligini va yoshlarning dolzarb masalalari to'g'risida yaxshiroq ma'lumotga ega bo'lgandan so'ng, o'z jamiyatining keksa a'zolari tomonidan boshqarilishini xohlayotganlarini ko'rsatdilar.

So'rovnomalarda ishtirokchilarning 27,7 foizi "Biz o'z hayotimizda nima qilishni xohlayotganimizni tushunmaslik"ni bugungikunda O'zbekiston yoshlari duch keladigan "eng katta muammolar" qatoriga kiritishgan. "Yaxshi ish topa olmaslik" va "zarur hayotiy ko'nikmalarni orttira olmaslik" bilan birga, "eng katta muammolar" qatorida eng yuqori o'rinni egalladi. E'tiborli jihati shundaki, shahar va qishloq aholi turar joylarida yashovchi yoshlar javoblarida sezilarli farq yo'q edi.

Farg'onada o'tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalar paytida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko'rib chiqamiz. Moderatorning, agar ular yoshlar tashkilotlariga a'zo bo'lishlari kerak bo'lsa, nima zarur deb hisoblashlari to'g'risidagi savoliga javoban:

**1-ishtirokchi:** Yoshlarga e'tibor ... Biz hozirgina [hali] jamiyatga hech qanday foyda keltirmasligimiz haqida gaplashdik. Ammo buning sababi shundaki, bunga hech kim ahamiyat bermaydi. Yoshlarga ko'proq e'tibor qaratish zarur...

**2-ishtirokchi:** Ushbu jihat, shuningdek, Samarqand shahrida o'tkazilgan 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan maqsadli guruhlardagi muhokamalarning erkak ishtirokchilari o'rtasidagi quyidagi fikr almashinuvida o'z aksini topdi.


**1-ishtirokchi:** Biz o'z fikrimizni bildirishimiz mumkin, lekin hech narsaga ta'sir qila olmaymiz. Biz mas'ul odamlarga savollar berib, ba'zi takliflarni bildirishimiz mumkin ... Mahalla jamoatchiligi masalasida faqat kattalar aralashadi, bizdan odatda so'ralmaydi.

**Moderator:** Agar sizlarda biron taklif bo'lsa-chi?

**2-ishtirokchi:** Biz ota-onamiz orqali [buni ilgari surishimiz] mumkin.

## 38-JADVAL

Bugungi kunda siz kabi yoshlarning aksariyati duch keladigan uchta eng katta muammo nima?





**“Yoshlar bilan har xil suhbatlar o'tkazish kerak. Shunday qilib, siz [umuman jamiyatni nazarda tutgan holda] yoshlar [aslida] nima haqida ekanligini bilishingiz mumkin bo'ladi. “**

Toshkentlik 20 yoshli yigit, universitet talabasi so'zlari bilan aytganda

## Ideal yoshlar harakati


Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida ishtirokchilardan hozirgi O'zbekistonda ideal yoshlar harakati qaysi masalalarni hal qilishi kerak, degan savol berildi. Ushbu munozaralarda mavjud bo'lgan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi (Ozbekiston Yoshlar Ittifoqi) va uning faoliyati to'g'risida bilimlar cheklanganligi aniqlandi. Tadqiqot ishtirokchilari Ittifoq vakillari mamlakatdagi barcha o'quv muassasalari tomonidan saylanishi to'g'risida xabar berishdi.

So'rovnomada qatnashganlarning 72,1 foizi Yoshlar ittifoqi ishiga jalb qilinmaganligi haqida aytdilar.

Umuman olg'anda, erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq jalb qilinganligini ta'kidladilar, (30.0 foizga nisbatan 25.1 foiz). So'rovnomaning eng yosh respondentlari – 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilari, yoshi kattaroq ikki guruhga (19-24: 14,9 foiz; 25-30: 10,1 foiz) nisbatan ko'proq (57,2 foiz) jalb qilinganligini aytdilar).


## 39 - JADVAL

Siz Yoshlar ittifoqi faoliyatida qatnashasizmi? Gender belgilari bo'yicha krosstabulyasiya



## 40-JADVAL

Siz Yoshlar ittifoqi faoliyatida qatnashasizmi? \* Yosh guruhlarining krosstabulyasiyasi



Xuddi shunday, guruhlardagi muhokamalar davomida bir nechta ishtirokchilar o'zlarini Yoshlar Ittifoqining faol a'zolari deb tanishtirdilar. Faol a'zo bo'lganlar, Ittifoq tomonidan ularning ta'lim to'lovlarini qoplash uchun ko'rsatiladigan moliyaviy yordamni juda qadrlashlarini ta'kidladilar (o'qish muvaffaqiyatli bo'lgan holatlarida, ehtimol, 35 foizgacha yetgan).

Yoshlar ittifoqi ishidan xabardor ekanliklarini da'vo qilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalar ishtirokchilari orasida yondashuvni o'zgartirishga da'vat etganlar ham bo'ldi. Ular Yoshlar ittifoqi faoliyati xayriya ishlariga yoki konsertlar, yoxud sovrinni musobaqalar kabi ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazishga kam e'tibor qaratilishi kerakligini ta'kidladilar. Buning o'rniga ular Yoshlar ittifoqiga yoshlarning eng dolzarb muammolari deb hisoblagan muammolarni hal qilishda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va o'zlari eng zarur deb bilgan ko'nikmalar ni rivojlantirishni taklif qildilar.

Xususan, ular Yoshlar ittifoqini (yoki boshqa yoshlar harakatlarini) universitetga qabul qilish, mehnat bozorida o'zgarishlar va kredit olish uchun talablar kabi mavzular bo'yicha ma'lumotlarni ta'minlashga hissa qo'shishini xohlashadi. Maqsadli guruh muhokamalari ishtirokchilari nuqtai nazaridan yoshlar harakati, ayniqsa, yosh ayollar va qishloq joylaridagi yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasini pasaytirishga faol hissa qo'shishi kerak. Bunga erishish uchun yoshlar korrupsiyaga qarshi (tanish-bilishga) kurashish choralarini taklif qildi va biologiya, algebra, tillar (ayniqsa rus tili), biznes savodxonligi va tikuvchilik bo'yicha bepul yoki arzon narxlarda o'quv to'garaklarini tashkil qilishni taklif qildi. Bundan tashqari, tadqiqot ishtirokchilari bunday to'garaklar yoshlarning qiziqishlarini, masalan, sportning har xil turlari, "jamiyat va o'zini tutish", psixologik mavzularda yoki yosh, bo'lg'usi onalar uchun maslahatlar kabi turli mavzular bilan shug'ullanishlari kerakligini ta'kidladilar.

**Toshkent shahrida o'tkazilgan maqsadli guruh muhokamalari ishtirokchilari, 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan barcha yosh erkaklar o'rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko'rib chiqamiz.**

**1-ishtirokchi:** [Yoshlar tashkilotlari] ko'proq bilim va amaliyot berishi kerak, va kimdir o'z hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashishi lozim.

**2-ishtirokchi:** Kamroq gapirib, ko'proq harakat qilish kerak.

**3-ishtirokchi:** Turli tashkilotlar bor, ular [yoshlarni] yig'ishadi, [uchrashuvlar] o'tkazishadi, dars berishadi ... Ammo bu nimani anglatadi? Ertaga men hamma narsani unutib qo'yaman, agar aniq harakatlar bo'lmasa va bu so'zlarga to'g'ri kelmasa".

O'quv to'garaklari mavzusida Toshkentlik 16 yoshli maktab o'quvchisi bo'lgan qizning so'zlari bilan aytganda: “[Yoshlar tashkilotlari] ta'lim beruvchi, ya'ni qo'shimcha to'garaklarda qatnashish narxlar hammyonbop bo'lishi kerak”. ... Ular bepul bo'lmasa ham, narxi qulay bo'lishi lozim. [Moderator ulardan qaysi to'garaklarga qatnashni istayotganlarini so'raydi.] T il to'garaklari ... rus tili, atgebra”.

Qashqadaryolik 18 yoshli kollej talabasi quyidagi fikr bilan o'rtoqlashdi: “Maktablarda bolalarga hunarmandchilikni o'rgatish uchun to'garaklar tashkil etish kerak. Kelajakda ularning ishi uchun nima foydali bo'lishi haqida o'g'il bolalarga [o'rgatish kerak], masalan, qizlar uchun tikuvchilik. Va albatta bu to'garaklar bepul bo'lishi kerak”.

### Andijondagi 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayollar o'rtasida o'tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalarda quyidagi fikrlar aytili:

*Masalan, Andijonda “Ona va bola” va “Homilador ayollarni onalikka tayyorlash” to'garaklarini tashkil etish zarur ...*

– 1-ishtirokchi

*O'z korxonasini ochmoqchi bo'lgan yoshlar uchun endi biznes-reja tuzish kerak. Buning uchun qanday hujjatlar zarur va ular bilan qayerga murojaat qilish kerakligini [bilmoqchiman]”.*

– 2-ishtirokchi



## 4.6

# Raqamli hayot va Internet



## Asosiy hulosalar

- O'zbekistondagi yoshlar o'zlarining kompyuterlardan foydalanish ko'nikmalarini yaxshilashga juda katta qiziqish bildirayotgan bo'lsalar-da, kompyuterdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmagan ayollar va qishloq yoshlaridan tashkil topgan muhim guruh (37,8 foiz) mavjud.
- Tadqiqotda Internetdan "hech qachon" foydalanmaydigan respondentlarning katta qismi (53,9 foiz), avvalambor qishloq joylaridagi yoshlar va ayollar va undan "har kuni" foydalanadigan kichik guruh (25,4 foiz), asosan shaharliklar, erkaklar o'rtasida bo'shliq aniqlandi.
- O'zbekistondagi yoshlar uchun Internet bir xil darajada "foydali" vosita bo'lib, ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish va o'qish yoki ish maqsadlarida foydalanish bilan birga, vaqtni "yo'qotish" yoki "yomon ta'sir" ga duchor bo'lish uchun xavfli joy (bu nomutanosib ravishda stigmatizatsiyadan qo'rqadigan ayollar uchun imkoniyatlarni cheklaydi) hisoblanadi.



## Kompyuter ko'nikmalari va Internetdan foydalanish

So'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra kompyuterdan qanday foydalanishni "umuman bilmayman" (37,8 foiz) degan respondentlarning katta guruhi aniqlangan. Kompyuter bilan ishlash ko'nikmalari qishloq joylariga nisbatan, shaharlarda, qaraganda birmuncha kengroq tarqalgan. Erkaklarga (30,0 foiz) qaraganda ko'proq ayollar (43,5 foiz) "kompyuter bo'yicha umuman bilimim yo'q" deb javob berishdi.

O'zbekistondagi yoshlar orasida kompyuterlar to'g'risida "ko'proq ma'lumot olish" istagi kuchli, jami 86,9 foiz. Ayniqsa, yoshi kattaroq guruhdagi respondentlarga nisbatan (25 yoshdan 30 yoshgacha yoshdagilar orasida 83,3 foiz), yoshroq respondentlar (14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar) ushbu sohada ko'proq bilim olishga intilishgan (92,9 foiz).



### 41 - JADVAL

Komp'yuterdan foydalanishni o'rganishni yoki u haqida ko'proq bilishni xohlaringiz? Yosh guruhlarini krosstabulyasiyasi


	14-18	19-24		25-30		Total
<b>Ha</b>	92.9%	84.5%	83.3%	86.9%	10.1%	27.2%
<b>Yo'q</b>	6.5%	13.1%	15.3%	11.7%	89.3%	72.1%
<b>Bilmayman</b>	0.6%	2%	1%	1.2%	0.5%	0.7%
<b>Javob yo'q</b>		0.3%	0.5%	0.3%		

So'rovnomada yosh guruhlari o'rtasida kompyuter bilimidagi sezilarli bo'shliq qayd etilgan: 14 yoshdan 24 yoshgacha bo'lganlarning atigi 24,9 foizi "umuman" bilimga ega emasligini da'vo qilmoqda, bu 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 39,2 foizini va 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlarning

49,2 foizini tashkil qiladi. Shunga mos ravishda "bir oz yaxshi" ko'nikma 14 yoshdan 18 yoshgacha yoshlar toifasida (50,8 foiz), eng kam esa 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar guruhida (30,3) keng tarqalganligi aniqlandi.

#### 42-JADVAL

Siz komp'yuterni qanchalik yaxshi bilasiz? "Undan qanday foydalanishni bilmayman"ga qarshi "Yaxshigina bilaman" degan javob yosh guruhlari bo'yicha




Internetdan foydalanish yuzasidan so'rovnomada "hech qachon" ishlatmaganman (53,9 foiz) degan respondentlarning katta guruhi va "haftada bir marta" (11,3 foiz) ishlataman yoki hatto "har kuni" foydalanaman deb aytgan kichik guruhlar o'rtasida sezilarli farq (25,4 foiz) borligi aniqlandi. Shunisi e'tiborga loyiq-ki, ish bilan

band bo'lgan yoshlar ko'pincha Internetdan har kuni foydalanadilar, shu bilan birga hech qachon Internetdan foydalanmaydigan yoshlarning eng katta qismi NEET (66,1 foiz) toifasidagi yoshlar orasida bo'lgan. Ta'lim olayotgan yoshlarning yarmidan ko'pi (55,7 foiz) hech qachon Internetdan foydalanmasligi ma'lum bo'ldi.

#### 43-JADVAL

Internetdan naqadar tez-tez foydalanasiz? Yosh guruhlari krosstabulyasiyasi



## 44-JADVAL


Internetdan naqadar tez-tez foydalanasiz? Kasbga ko'ra ajratilgan

		NEET	Ishlaydi	Talaba	Umumiy
Oyiga 1-2 marta	Hisoblangan	89	82	118	289
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	5.4%	7.5%	6.9%	6.5%
Har kuni	Hisoblangan	297	485	349	1131
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	18%	44.4%	20.4%	25.4%
Oyiga bir martadan kam	Hisoblangan	39	21	59	119
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	2.4%	1.9%	3.4%	2.7%
Hech qachon / Internetdan foydalanmayman	Hisoblangan	1092	357	953	2402
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	66.1%	32.7%	55.7%	53.9%
Javob yo'q	Hisoblangan	6	2	6	16
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	0.4%	0.2%	0.4%	0.3%
Har hafta	Hisoblangan	130	146	227	503
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	7.9%	13.4%	13.3%	11.3%
Umumiy	Hisoblangan	1653	1093	1712	4458
	% respondentning mashg'uloti turi miqyosida	100%	100%	100%	100%

Yosh guruhlarini o'rganayotganda, respondentlarning Internetdan "hech qachon" foydalanmaydigan foizi yosh o'tgan sari kamayadi, "har kuni" Internetdan foydalanadiganlarning foizi esa yosh o'tgan sari oshib boradi.

## 45-JADVAL

Internetdan naqadar tez-tez foydalanasiz? \* Yosh guruhlari krosstabulyasiyasi



## Internet foydali va xavfli joy sifatida

O'zbekiston yoshlari Internetni ham foydali, ham xavfli joy sifatida qabul qilishadi. Tadqiqot ishtirokchilari Internetni o'zlarining kundalik hayotlari uchun zarur bo'lgan ko'plab funksiyalarini aniqladilar. Internet bilimlarni orttirish uchun eng muhim resurs sifatida ifodalangan, lekin yoshlar undan foydalanishi juda murakkab. Buning ichiga imtihan shablonlari va ilmiy adabiyotlar, ayniqsa o'zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlar qiradi.

Shaxsiy intervyularda respondentlarning 60,7 foizi "oyiga ikki marta"dan kam bo'lmagan holda "testlar, kurslar, diplomlar va o'qishlari uchun Internetda ma'lumotlar / axborotlarni qidirish" variantini tanladilar. Ro'yxatdan o'tganlarning 38,5 foizi buni kamida har hafta bir marta qilishadi. Shu bilan birga, respondentlarning yana 31,5 foizi "hech qachon" bunday qilmasliklarini qayd etdilar.

Toshkentlik 15 yoshli qiz bola maktab o'quvchisining ushbu sharhiga ko'ra: "Ammo Internet 50 foizga yomon va 50 foizga yaxshi".

Yoki Samarqandlik 24 yoshli turmush qurgan yigitning fikrini ko'ring: "Agar biz talabalarni olsak, hozir ular o'qish paytida Internetdan tez-tez foydalanadilar, chunki raqamli kitoblar mavjud. Ko'p hollarda kutubxonalar kitoblarni [vaqtincha olib turishga] bermaydilar. Raqamli kitoblarda siz ma'lumot olish mumkin bo'lgan test modullari mavjud. Internetning ana shunday foydali tomonlari ko'p".

Ijtimoiy jihatdan Internet ko'plab tadqiqot ishtirokchilari tomonidan "eng yaqin va qadrdonlar" bilan, xususan hozirda chet elda bo'lganlar, masalan, Rossiyadagi mehnat muhojirlari bilan aloqada bo'lish uchun qulay vosita sifatida ta'riflangan.

So'rovnomada onlayn suhbat haqida turli qarashlar paydo bo'ldi. Respondentlarning 33,1 foizi Internetda "kamdan-kam" yoki "hech qachon" suhbatlashmasligini ko'rsatdi. Shuningdek, so'rovnomada yoshroq

respondentlar (14-18 yoshdagilar) 19-24 va 25-30 yoshdagi (17,0 foiz va 17,5 foiz) yoshi kattaroq respondentlarga nisbatan (26,6 foiz) Internetda "hech qachon" suhbatlashmasliklarini da'vo qilishlari hujjatlashtirilgan.

Ijtimoiy tarmoqlardagi "munozaralarda" qatnashishga kelsak, shuni ta'kidlash kerakki, respondentlarning 72,1 foizi "hech qachon" yoki "kamdan-kam hollarda" (tegishli ravishda 51,0 va 21,1 foiz) munozaralarda qatnashadi. Biroq, 15,5 foiz odamlar buni "kun ora" yoki "har kuni" munozaralarda ishtirok etadi (mos ravishda 7,2 va 8,3 foiz).

Farg'onalik 19 yoshli kollej talabasi so'zlari bilan aytganda: "Mening 1994 va 1996 yillarda tug'ilgan akalarim bor. Akam 2011 yildan buyon tez-tez Rossiyaga ketmoqda [mehnat muhojirligiga]. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ular bilan doimo aloqada bo'lishimizga yordam beradi. Men ular bilan gaplashishim, ko'rishim mumkin, hatto ular uzoqda bo'lsa ham."


Shu bilan birga, yoshlar Internetga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishdi. Tadqiqotning ko'plab ishtirokchilari buni "yomon ta'sir"ning salohiyatli manbai deb ta'kidladilar, terrorchilarni yollash yoki yaqinda sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi ba'zi yoshlarni o'z-o'ziga zarar yetkazishi va hatto o'z joniga qasd qilishiga undagan onlayn o'yin ("Movi kit" deb nomlangan) voqeasini eslatib o'tdilar. Shuningdek, tadqiqot qatnashchilari Internet vaqtni "behuda sarflash" va odamlarni "dangasa" bo'lishiga aylantirishi mumkin degan fikrni bildirishdi.

Ooraqalpog'istonlik bitta 15 yoshli maktab o'quvchisi bo'lgan qiz bolaning so'zlari bilan aytganda: "Endi maktabda hamma shaxsiy mobil telefonga ega. Ba'zan sinfimiz yigitlari odobsiz videokliplarni tomosha qilib, bir-biri bilan o'rtoqlashadilar. Yoki ular Internetga kirib, ularga hech qanday foyda bermaydigan o'yinlarni o'ynashadi [ya'ni, vaqtni behuda sarflashadi]."

*“Mening 1994 va 1996 yillarda tug‘ilgan akalarim bor. Akam 2011 yildan buyon tez-tez Rossiyaga ketmoqda [mehnat muhojirligiga]. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ular bilan doimo aloqada bo‘lishimizga yordam beradi. Men ular bilan gaplashishim, ko‘rishishim mumkin, hatto ular uzoqda bo‘lsa ham.”*

– Farg‘onalik 19 yoshli kollej talabasi so‘zlari bilan aytganda





## Raqamli hayotda qishloq va shahar hududlari orasidagi farqlar

Tadqiqotda zamonaviy O'zbekistonning qishloqlari va shaharlarida Internetdan foydalanish o'rtasidagi sezilarli farqlar aniqlandi.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida qishloqda yashovchi yoshlar Internetning tezligi sustligini aytib, uzilishlar haqida hikoyalar bilan o'rtog'lashdilar va foydalanish imkoniyati nisbatan qimmatga tushishini aytishdi. So'nggi izoh nafaqat ko'plab qishloq sharoitida naqd pul yetishmovchiligining umumiy ahvoliga, balki Internetga kirish imkoni bo'lgan keyingi shahar markaziga yetib borish uchun transport harajatlari bilan bog'liqligini ham ta'kidladi. Boshqa tomondan, tadqiqotning ba'zi qishloq hududidan kelgan ishtirokchilari ushbu sharoitda ham Internetdan kitob yuklab olish o'sha nashrning qog'oz nusxasini sotib olishdan ko'ra arzonroq bo'lishini ta'kidlashdi.

So'rovnoma shuni ko'rsatdiki, Internetni "hech qachon ishlatmasligini" da'vo qiluvchilar darajasi shahar (46,7 foiz) va qishloq joylari (60,6 foiz) o'rtasida farq qiladi. Xuddi shunday, kundalik foydalanish darajasi shaharlarda yuqori (31,9 foiz) va qishloqlarda esa (19,3 foiz) pastroq bo'lganligi qayd etildi.

Bundan tashqari, so'rovnoma ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, qishloq va shahar hududlaridagi respondentlarning suhbatlashuvchi xatti-harakatlari o'rtasidagi farqlar ularning "kundalik" foydalanishlariga nisbatan ancha aniq bo'lib chiqdi, bu shahar aholisi uchun 35,5 foiz, qishloq aholisi uchun 27,5 foizni tashkil qildi.

Ushbu xulosalar ko'rsatishicha, texnik yoki iqtisodiy sabablarga ko'ra Internetga kirish cheklangan bo'lsa, yoshlar uchun Internetga kirishning asosiy vositasi bo'lgan mavjud kompyuterlar va mobil telefonlar ning funksional imkoniyatlari sezilarli darajada kamayadi.

Qashqadaryolik 24 yoshli turmush qurgan ayol va onaning so'zlari bilan aytganda: "Biz [MGM ishtirokchilari orasida] o'z hududimizda hozirgi sharoitda Internet juda muhim emas deb o'ylaymiz. Maktablarda bolalar o'qishi uchun kutubxonalar mavjud. Ko'plab otalar farzandlariga Internetdan foydalanishga ruxsat bermaydilar, chunki bu ularning ahloqiy tarbiyasini buzishi mumkin. Biz kamdan-kam hollarda Internetdan foydalanamiz. Ehtimol, ishlayotganlar bunga muhtoj bo'lishi mumkin".

**“Ushbu tushunchalar shuni ko’rsatadiki, texnik yoki iqtisodiy sabablarga ko’ra, Internetga kirish cheklangan bo’lsa, mavjud bo’lgan kompyuterlar va mobil telefonlar, asosiy vosita hisoblanadi yoshlar uchun Internetga kirish imkoniyati sezilarli darajada kamayadi.”**

Yoki Qashqadaryolik 16 yoshli maktab o’quvchisining fikri bilan aytganda: “Universitetga o’qishga kirishga tayyorgarlik paytida Internet menga katta yordam beradi. Repetitorga shaharga boraman. U menga Internetdan olgan [o’quv] materiallarning nusxasini beradi. Agar mening tumanimdagi tezlik bunga imkon berganida, men buning uchun shaharga bormasdan, uyda o’tirib ham qilishim mumkin bo’lar edi”.

**Qoraqalpog’istonda o’tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalarning 14 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan erkak ishtirokchilari o’rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko’rib chiqaylik:**

**1-ishtirokchi:** Mening do’stlarimdan biri Moskvada ishlaydi. Shunday qilib, 14.000 so’m evaziga [taxminan. \$ 1,5] u cheksiz mobil Internetga ulanishi mumkin [u yerda]. Ammo men 40.000 so’m to’layman [taxminan. \$ 4,0] oyiga 5 Megabayt uchun. Va bu trafik menga 10 kunga yetadi, xolos.

**2-ishtirokchi:** [O’zbekistonda] Shuningdek, bizda 169.000 so’mlik [taxminan. \$ 17] cheksiz Internet ham bor.

Aksincha, shahar hududlarida yashovchi yoshlar nafaqat yaxshi raqamli infratuzilma haqida, balki Internetning turli hayot sohalarida keng tarqalganligi haqida gapirishdi. Bunga mehnat bozori ham qiradi. Tadqiqot ishtirokchilari veb-saytlar yoki agentliklar orqali qanday qilib ish topganliklari haqida gapirib berishdi. Shuningdek, savdo va ba’zi bir tovarlarni onlayn platformalar orqali sotib olish va sotish haqidagi tajriba haqida ham eslab o’tildilar.

Toshkent shahridan qatnashgan ushbu 22 yoshli universitet talabasi bo’lgan qizning qo’shimcha ishi haqidagi hikoyasi: “Ha, men bu [ish]ni Internet orqali topdim. Men kinoteatrda kassir bo’lib ishladim. Ular meni hech qanday ishlash tajribasiz ishga olishdi, meni o’rgatishdi. Ehtimol, ikki yil oldin [Internet orqali] ish topish qiyin bo’larmidi.

Yoki Andijon viloyatining qishloq hududidan 16 yoshli maktab o’quvchisi bo’lgan qizning fikri: “Yo’q, Internet orqali ish topish qishloqda qiyin. Biroq, ba’zida ishga joylashishga taklif to’g’risidagi e’lonlar Telegram orqali shaxsiy xabarlarda joylashtiriladi. Ushbu reklamalarni biz ko’ramiz ... Birgina misol: siz Inter net orqali ish topasiz, ammo bu sizning qishloqingizda emas, balki boshqa mintaqada. Shunda siz u yerga borishingiz, ko’rishingiz, [sharoitlar va ish beruvchi bilan] tanishib olishingiz va shundan keyingina bu ishni boshlashingiz mumkin”.



*Toshkent shahridan qatnashgan ushbu 22 yoshli universitet talabasi bo'lgan qizning qo'shimcha ishi haqidagi hikoyasi: "Ha, men bu [ish]ni Internet orqali topdim. Men kinoteatrda kassir bo'lib ishladim. Ular meni hech qanday ishlash tajribasiz ishga olishdi, meni o'rgatishdi. Ehtimol, ikki yil oldin [Internet orqali] ish topish qiyin bo'larmidi."*

22 yoshli universitet talabasi bo'lgan qizning qo'shimcha ishi haqidagi hikoyasi

**"Yo'q, Internet orqali ish topish qishloqda qiyin. Biroq, ba'zida ishga joylashishga taklif to'g'risidagi e'lonlar Telegram orqali shaxsiy xabarlarda joylashtiriladi. Ushbu reklamalarni biz ko'ramiz ... Birgina misol: siz Internet orqali ish topasiz, ammo bu sizning qishloqingizda emas, balki boshqa mintaqada. Shunda siz u yerga borishingiz, ko'rishingiz, [sharoitlar va ish beruvchi bilan] tanishib olishingiz va shundan keyingina bu ishni boshlashingiz mumkin."**

Andiion viloyatining qishloq hududidan 16 yoshli maktab o'quvchisi bo'lgan qizning fikri





## Gender va Internet

Yoshlar Internetdan foydalanish gender va madaniy tushunchalarga bog'liqligini ko'rsatishdi. Tadqiqotning ayol ishtirokchilari retseptlar, moda uslublari, bolalarni tarbiyalash va tikuvchilik to'g'risida onlayn ma'lumot olishlarini aytishdi. Erkak ishtirokchilar asosan avtomobil modellari yoki sport turlari bilan qiziqishlarini ta'kidladilar.

Tadqiqotda, shuningdek, Internetga kirish bo'yicha gender ayriliq qayd etildi. Yigitlar hech qanday cheklovlarni ta'kidlamagan bo'lsalar-da, ko'plab yosh ayollar Inter net va aloqa texnologiyalaridan foydalanish cheklanganligini aytishdi.

So'rovnoma ayollarga qaraganda, erkaklarning Internetdan foydalanmaslik darajasi ancha past bo'lganligini ko'rsatdi. Shunga mos ravishda, "kunlik" tarzda foydalanish darajasi erkaklarga (38,1 foiz) nisbatan ayollar (16,1 foiz) orasida pastroq. Shuningdek, respondent ayollarning 27,0 foizi erkaklarning 15,2 foiziga nisbatan Inter netda "hech qachon" suhbatlashmasliklarini bildirishgan.


**“Tadqiqotda, shuningdek, Internetga kirish bo'yicha gender ayriliq qayd etildi. Yigitlar hech qanday cheklovlarni ta'kidlamagan bo'lsalar-da, ko'plab yosh ayollar Inter net va aloqa texnologiyalaridan foydalanish cheklanganligini aytishdi.”**

Umuman olg'anda, nikoh respondentlarning Internetdan hech qachon foydalanmaslik darajasini oshirishi mumkin, ammo bu o'sishdagi farq sezilarli darajada jinsga bog'liq.

Internetdan hech qachon foydalanmaydigan respondent ayollarning soni erkaklarnikidan ancha yuqori va nikohdan keyin yanada ko'paymoqda.


#### 46-JADVAL

Internetdan naqadar tez-tez foydalanasiz? Gender belgilari krosstabulyasiyasi



#### 47-JADVAL

Hech qachon internetdan foydalanmaydigan: turmush qurmaganlar turmush qurganlarga bilan qiyoslanganda




## Internetsiz hayot

### Tadqiqotning ko'plab ishtirokchilari Internetsiz osongina yashashlari mumkinligini ta'kidladilar.

“O'z hayotingizni Internetsiz tasavvur qila olmasligingizga qay darajada rozi bo'lar edingiz?” degan savolga so'rovda qatnashganlarning atigi 26,1 foizi rozi bo'lgan. Aksincha, 54,9 foiz “umuman” rozi bo'lmagan.

#### 48-JADVAL

O'zingizning hayotingizni Internetsiz tasavvur qila olmasligingizga qanchalik qo'shilasiz?



Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida ishtirokchilar ushbu ssenariyga o'zgartirishlar kiritish haqida tezda o'ylashdi, masalan, kitoblarni yuklab olish va xat yozish o'rniga kutubxonalardan foydalanish yoki mashhur Telegram ilovasi orqali xabarlarini jo'natish o'rniga statsionar telefonlardan foydalanish.

Qishloq joylarida yashovchi tadqiqot ishtirokchilarning kundalik hayotlari uchun Internet ahamiyatsiz ekanligini izohlash oson, chunki shaharlarga nisbatan, qishloq joylarida ushbu tarmoq, odatda, past tezlikda, ya'ni besamara ishlaydi. Qishloq joylardagi yosh ayollar uchun texnik va iqtisodiy sabablarga yana madaniy cheklovlarni ham qo'shish kerak. Shunga qaramay, ko'p sonli shahar yoshlari Internetdan (yoki undan kam) foydalanmasdan hayot odamlarni yana ham yaqinlashtirishi mumkin bo'lgan foydali salohiyatini ta'kidladilar.

Internetdan holi bo'lgan hayot haqida Toshkentlik 22 yoshli ayolning fikri: “Biz toza havoda ko'proq vaqt o'tkazardik, tez-tez sayrlarga chiqar edik. Biz eng yaqinlarimizga va qadrdonlarimizga ko'proq vaqt ajratardik. Internet o'chirilganida shunday bo'ladi, chunki [oldindan to'lanadigan SIM -kartadagi] pul tug'aydi yoki elektr yo'q bo'ladi”.

Yoki Farg'onalik 19 yoshli qishloq hududidan kelgan ishtirokchi yigit aytgan fikr: “Ko'pchilik Internetdan yomon maqsadlarda foydalanadi. Internet odamlar usiz yashay olmasligi mumkin bo'lmagan narsa emas. Masalan, men to'rt oydan beri Inter netga kirmayapman. Yangiliklar haqida mahalla jamoatchiligidagi uchrashuvlarda bilib olaman. Bu ko'proq haqiqiy hayotga o'xshaydi”.

## 4.7 Tashvishlar, bo'sh vaqt va yoshlikni tugashi



### Asosiy hulosalar

- O'zbekistondagi yoshlar, odatda, o'zlarini "baxtli" deb bilsalar-da, muntazam ravishda "qayg'uga tushgan yoki tushkunlikka tushishni" tan oladiganlar soni ham kam emas (haftasiga kamida bir marta 26,5 foiz).
- Tadqiqot ishtirokchilari o'z salomatligidan qoniqish darajasi yuqori ekanligini (kamida 79,7 foiz "yaxshi") qayd etishdi, ammo sog'liqni saqlash tizimi to'g'risidagi tanqidiy fikrlar qishloq joylardagi sharoitlarning yetarli emasligi va sifatli davolanish yoki doridarmonlarga sarflanadigan harajatlarning
- O'zbekiston yoshlari tomonidan aniqlangan takomillashtirish lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar - bu sifatli ta'lim va o'qitish, yoshlarning ishsizligi va kam daromadlarga qarshi samarali choralar, shuningdek, erta turmush qurish / ajrashish, keksa va yosh avlodlar o'rtasidagi uzilishlarning ijtimoiy muammolarini hal etish.
- Qishloq joylarida va ayollar orasida bo'sh vaqtdan zavq olish imkoniyati past, chunki fermer xo'jaligi, uy xo'jaligi va parvarishlash ishlarida mas'uliyat ko'p.
- O'zbekistondagi yoshlarning yoshlik qachon tugashi haqida turli tasavvurlari aniq yoshdan (60 yoshgacha) boshlab, turmush qurgandan keyin yoxud ota yoki ona bo'lganidan so'ng deb keng doiralar ni qamrab olgan.

## Baxt va sog'liq

So'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar odatda o'zlarini "juda baxtli" (67,0 foiz) yoki "biroz baxtli" (30,2 foiz) deb hisoblashadi.


Jins, turar-joy turi yoki yoshi baxtning umumiy holatini sezilarli darajada o'zgartirmaydi

Shu bilan birga, so'rovnomada shahar va qishloq joylarida muntazam ravishda "qayg'uga yoki tushkunlikka tushganligini" tan olgan ko'plab yoshlar aniqlandi. Ishtirokchilarning 26,5 foizi buni haftada kamida bir marta his qilishini bildirgan ("haftada bir marta" - 7,5 foiz, "haftada ikki yoki uch marta" - 7,6 foiz, "deyarli har kuni" - 7,2 foiz), "Har kuni" - 4,2 foiz).

Dunyodagi baxt haqidagi hisobotining (World Happiness Report) (2020) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2017-2019 yillarda dunyoning eng baxtli 153 mamlakati orasida 38-o'rinni egalladi. Qozog'iston - 50, Moldova - 70, Tojikiston - 71, Rossiya - 73, Qirg'iziston - 74, Belorussiya - 75, Ozarbayjon - 89, Turkmaniston - 95 va Armaniston - 116-o'rinni egallagan MDH davlatlari orasida O'zbekistonning ko'rsatkichi eng yaxshisidir.


### 49-JADVAL

O'z hayotingiz haqida o'ylaganingizda, o'zingizni baxtli yoki bahtsiz inson deb hisoblaysizmi? (%)



## 50-JADVAL

Siz qanchalik tez-tez xafa bo'lasiz yoki tushkunlikka tushasiz?



“Hech qachon yoki deyarli hech qachon” o‘zlarini xato yoki tushkun his qilmasliklarida vo qilgan ayollarga qaraganda, erkak respondentlar ko‘proq (46,9 foiz va 33,7 foiz). Shunga o‘xshab, eng yosh ishtirokchilar (14 yoshdan 18 yoshgacha) keksa yoshdagilargan nisbatan “hech qachon yoki deyarli hechqachon” qayg‘uga yoki tushkunlik tushmasliklari haqida javob berishgan: 46,2 foiz (14-18) va 38,1 foizga nisbatan (19-24) va 33,7 foiz (25-30).


So‘rovnomada qatnashganlar o‘z salomatligidan qoniqish darajasi yuqorikanligini ko‘rsatdilar. Respondentlarning atigi 3,2 foizi sog‘lig‘ini “o‘rtacha” danpast deb hisoblashgan. So‘rovnomadako‘rsatilgan yosh guruhlarini taqqoslaganda, o‘zining salomatligini “juda yaxshi” degan ko‘rsatkich 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lganlar guruhidagi 37,0 foizdan 25 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar guruhida 21,4 foizgacha kamayganligi diqqatga sazovordir. Bundan tashqari, shahar dayashovchi erkak respondentlar

ko‘proq sonio‘zlarining sog‘lig‘ini qishloq joylaridagi yoshayollar va respondentlar bilan taqqoslagandajuda yaxshi deb ta’kidladilar.

Dalillar 10 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan o‘spirinlar orasida o‘z joniga qasd qilish va o‘zlariga shikast yetkazish darajasi yuqori va bu ko‘rsatkich o‘sib borayotganligini ko‘rsatmoqda, bunday holat yoshlar orasida ruhiy salomatlik muammolari sezilarli darajada tarqalganligini ko‘rsatmoqda. 2016 yilda o‘z joniga qasd qilish va o‘z-o‘zini shikastlash oqibatida o‘limi darajasi 10 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 100000 aholiga 19,6 ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich yildan-yilga doimiy ravishda oshib bordi va 2008 yildan beri deyarli ikki baravarga ortdi.<sup>15</sup>

## 51-JADVAL

O'z salomatligi haqida fikri




Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida ishtirokchilar O'zbekiston sog'liqni saqlashning mavjud tizimi ichida ularga ko'rsatilgan xizmatlar yuzasidan tanqidiy fikrlarini bildirdilar.

Qishloq joylarida yashovchilar mahalliy, davlat kasalxonalarida eskirgan uskunalar va tibbiyot xodimlarining malakasining pastligi bilan bog'liq sharoitlar haqida xabar berishdi. Ularning hikoyalari shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli davolanish uchun qishloq aholisi odatda shahar markazlaridagi xususiy tibbiyot muassasalariga murojaat qilishlari kerak, bu ko'pincha Toshkent shahriga kelibketish bilan tenglashtirilgan.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalarning ko'pchilik ishtirokchilari uchun ikkinchi darajali tashvish tibbiy dori-darmonlarni sotib olish va davolanish uchun sarflanadigan harajatlarning odatiy uy xo'jaliklari daromadlari bilan taqqoslanganda juda yuqori ekanligidir. Ishtirokchilar og'ir kasallik holatlarida katta miqdordagi pulni yig'ish uchun faqat oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining yordamiga ishonishlari mumkinligini ta'kidladilar. Sog'liqni saqlash tizimi faoliyatidagi kamchiliklardan tashqari, ishtirokchilar sog'liqni saqlash tizimining korrupsiyalashgan tijoratlashtirilishi va umuman tibbiyot masalalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmayotganligiga norozilik bildirdilar.

*“Biz qarindoshlarimiz va eng yaqinlarimizning sog'lig'idan xavotirdamiz. Kasal bo'lish juda qimmat bo'lganligi sababli, barcha dori-darmonlar uchun pul to'lash kerak. Qishloqda kerakli darajadagi shifoxona yo'q. Agar kim bilandir bir on narsa yuz bersa, davolanish uchun Toshkentga borishimiz kerak bo'ladi. Mahalliy shifoxonalarda esa Toshkentdagi kabi zamonaviy uskunalar yo'q.”*

Qashqadaryolik 18 yoshli kollej talabasining fikri.



**Andijonda o'tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalar paytida 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko'rib chiqaylik:**

**1-ishtirokchi:** Tibbiy ko'rikdan o'tkazishda 1 va 2-sinf o'quvchilarining bo'yi va vazni o'lchanadi va tahlil uchun qon namunasi olinadi. Qishloq vrachlik punktida ushbu tibbiy ko'rik bepul, ammo baribir ular pul olishadi. Va ular bo'yni va vazni o'lchamaydilar, va tahlil uchun qon namunalari ham olishmaydi. Ular faqat ba'zi qog'ozlar ni to'ldirishadi, xolos ...

**2-ishtirokchi:** Ammo sizlar [maktab o'quvchilari] ushbu tibbiy ko'rikdan o'tmaslik uchun baribir pul yig'ayapsizlar!

**1-ishtirokchi:** Yo'q, biz pulni yig'mayapmiz! Tibbiy shifokorlar bizdan pul talab qilishmoqda.

**3-ishtirokchi:** Bu korrupsiya. Sog'liqni saqlash sohasidagi korrupsiyani to'xtatish juda zarur.

Farg'onalik 18 yoshli yigit o'zi bilan bo'lgan voqeani aytib berdi: "Men o'zim og'ir kasal bo'lib qoldim. Menga faqat oilam va yaqinlarim yordam berishdi. Kasalxonada yotgan edim. Mening davolanishimga ota-onam katta pul sarfladilar. Ularni qarindoshlarimiz ham qo'llab-quvvatladilar. Hozir mening barcha davolanishim uchun pul to'langan. Siz hamma narsa uchun to'lashingiz kerak. Dori-darmonlar ham qimmat. O'sha paytda bizga qiyin bo'lgan. Yordam faqat yaqin qarindoshlardan kelgan. Sizga nima bo'lishi boshqa hech kimni qiziqitirmaydi."

## Asosiy muammolar: ta'lim / o'qish, bandlik / daromad, ishonch / ko'rsatma

Ushbu bo'limdagi ba'zi jihatlar ilgari allaqachon muhokama qilingan. Biroq, tadqiqot ishtirokchilari ularni o'zlarining asosiy muammolari orasida bevosita aytib o'tganlari, ushbu muammolar alohida ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Umuman olg'anda, maqsadli guruhlardagi muhokamalarning juda kichik sonli ishtirokchilari umuman tashvishlanmasliklarini aytishdi va hayotlari davomida hamma narsa yaxshi bo'lishini ta'kidladilar. Biroq, boshqa tomondan, kam sonli respondentlar o'zlarining asosiy tirikchiliklari va yashashlari ularni tashvishlantirayotganligi yoki kimdir hamma narsani qamrab oluvchi jiddiy tanqidiy fikrni bayon qildi.


Qishloq va shahar joylarida yashovchi yoshlarning aksariyati kelgusi hayotidagi o'z imkoniyatlarini oshirish uchun qaysi masalalarni hal qilishni eng ko'p xohlashlari yuzasidan juda aniq fikr bildirdilar.

So'rovda qatnashganlarning 77,6 foizi zamonaviy O'zbekistonda "ta'lim va kasbiy tayyorgarlik" takomillashtirishga muhtoj bo'lgan asosiy yo'nalishlardan biri ekanligini ta'kidladilar. Xususan, maqsadli guruh muhokamalari ishtirokchilari o'qitish sifati va mazmunini yaxshilashni talab qildilar ("Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik" bo'limiga qarang). Bundan tashqari, ular oliy ta'lim muassasalariga kirishda qanday to'siqlar borligini eslatib o'tdilar.



## 52-JADVAL

Bugungi kunda yoshlar uchun yaxshilanishi zarur bo'lgan uchta muhim yo'nalish qaysi?



Ushbu to'siqlar ko'p darajali sifatida tasvirlangan va ko'p sonli yoshlar ta'lim olish uchun nisbatan kam sonli joylar uchun raqobatlashishlarini ifodalaydi; korrupsiya va "aloqalar" (tanish-bilish) keng tarqalgan; yaxshi ta'lim olish uchun nafaqat pora, balki maktabda o'qish yillarida xususiy repetitorlik mashg'ulotlari uchun to'lovlarni amalga oshirish va oliy o'quv yurtlarida o'qish to'lovlarni to'lash imkoniyatiga ega bo'lish uchun katta pul resurslarini talab qiladi.

Yoshlar ma'lum ta'lim muassasalariga o'qishga kira olmaslikni shaxsan o'zlari va ota-onalari hamda tengdoshlari oldida obro'ni yo'qotish sifatida hayotlaridagi jiddiy muammo sifatida izohlaganlar.

Farg'onalik 18 yoshli kollej talabasi bo'lgan qiz bolaning so'zlari bilan aytganda: "Hozir biz kelajakda universitetga o'qishga kirish

kerakligidan tashvishlanayapmiz ... Maktab o'quvchilari va kasb-hunar kollejlari talabalari bir vaqtning o'zida o'qishni tamomlaydilar. Va barchamiz oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarini topshirishimiz lozimligidan xavotirdamiz ..."

Yoki Farg'onalik 14 yoshli maktab o'quvchisining fikri: "Bizni, ayniqsa, universitetga kirish muammosi tashvishga solmoqda. Agar pul bo'lsa, unda siz repetitor bilan tayyorlanish yoki nufuzli xususiy maktablarda o'qishingiz mumkin.

Ammo agar oilada ortiqcha pul bo'lmasa, u holda bola oddiy maktabda o'qiydi. O'ylaymanki, xususiy maktablarda ta'lim yaxshiroq va u yerda ko'proq bilim beriladi. Zotan, aholining tabaqalanishi holati boy va kambag'allarga taqsimlanishi hissi mavjud. Hozir hamma narsa qimmat, ammo odamlarning oyligi kam".

Va Toshkent shahrida yashaydigan ushbu 16 yoshli qiz, kollej talabasi so'zlarini ko'rib chiqing: "Shaxsan mening tengdoshlarim orasida hozirda eng asosiy tashvish – o'qishga kirishdir. Bu har kimga taalluqli deb aytish mumkin. Agar siz o'qishga kira olmasangiz, mahalla ahli [mahalla] siz haqingizda yomon gapirishadi".

Tadqiqot ishtirokchilarini tashvishga solgan yana bir jiddiy muammo yoshlar orasida ishsizlik va kam daromad bilan bog'liq bo'lgan noaniqlik edi.

So'rovda qatnashganlarning 61,8 foizi takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari orasida "ish bilan ta'minlash" ni belgiladilar.

Bunga mos ravishda, respondentlarning 36,6 foizi "tadbirkorlik" sohasi ham yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalardan biri, deb ta'qidladilar.

Bundan tashqari, "munosib turmush tarzini ta'minlay olmaslik"ni respondentlarning 29,3 foizi bugungi kunda yoshlar duch keladigan "eng katta muammolar" qatorida qayd etishgan.

Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida ishtirokchilar, shuningdek, yashash harajatlari va turg'un daromad o'rtasidagi tobora ortib borayotgan tafovutni muhokama qildilar. Ko'pchilik, bitta maosh oilani boqish uchun yetarli emas deb hisoblashini aytdi.

Farg'onalik 14 yoshli maktab o'quvchisi bo'lgan bir qizning so'zlari bilan aytganda: "Hozirgi kunda ma'lumotsiz odam – hech kim emas. Masalan, farosh ayol 300.000 - 400.000 so'm maosh oladi [taxminan, oyiga 30-40 dollar]. Va u bu pulni bir oylik ishi uchun olgunicha, hamma narsaning narxi yanada oshib ketyapti. Hozir bozorda 1 kilogramm go'sht 60.000 so'mni [taxminan \$ 6 doll.] tashkil etadi".

Yoki Andijonlik 23 yoshli turmush qurgan ayol va onaning so'zlarini o'ylab ko'ring: "Bizni nima ko'proq tashvishga solmoqda? Biz uyda o'tiramiz. Ammo bolalarimiz ulg'aymoqda, endi ularni hamma narsa bilan ta'minlash uchun ko'proq pul topishimiz kerak. Qo'shimcha daromad olish uchun [imkoniyatlar] imkon topish muammosi bizni tashvishga solmoqda. Bitta odamning daromadi oilaning harajatlari uchun yetarli emas".

*"Bizni nima ko'proq tashvishga solmoqda? Biz uyda o'tiramiz. Ammo bolalarimiz ulg'aymoqda, endi ularni hamma narsa bilan ta'minlash uchun ko'proq pul topishimiz kerak. Qo'shimcha daromad olish uchun [imkoniyatlar] imkon topish muammosi bizni tashvishga solmoqda. Bitta odamning daromadi oilaning harajatlari uchun yetarli emas."*

Andijonlik 23 yoshli turmush qurgan ayol va onaning so'zlari



Maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida ko‘plab ijtimoiy muammolar haqida gapirildi. Tadqiqot ishtirokchilari jamiyatda ishonchning yo‘qligi haqida o‘zlarining tashvishlarini bildirdilar va o‘zlarini ijobiy asoslantirish, shuningdek, hayotni boshqarish va psixologik qo‘llab-quvvatlashga intilishlari haqida gapirdilar.

Oilaviy masalalarda yosh ayollar, ayniqsa, erta yoshda turmush qurish va ajrashish darajasi ko‘tarilishidan xavotirda, ammo ularga tengdosh erkaklar esa “munosib” sherik, ya‘ni ular buzilgan deb hisoblamaydigan yosh ayolni topish qiyin, deyishadi (yuqoriga qarang).

Bundan tashqari, mamlakat bo‘ylab tadqiqot ishtirokchilari bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi masofani, umuman olg‘anda, jamiyatda yosh va keksa avlodlar o‘rtasidagi uzilishni tanqid qildilar. Yoshlar oqsoqollarning vakolatiga va odatdagidek ularni hurmat qilishga intilishlariga qarshi chiqishni istamaydilar. Biroq, ular (maqomga asoslangan) kattalikka asoslangan mavjud ijtimoiy institutlar asosiy qarorlarni qabul qilishda kattalar (oqsoqollar) jamoasiga imtiyoz berishini va shu bilan yoshlarning ovozi o‘chirishini tanqidiy ravishda ta‘kidladilar. Buning natijasida, yoshlarning ijtimoiy hayotda ishtirok etish va jamiyatning yanada mustaqil a‘zolari bo‘lib yetishish qobiliyati cheklanadi.

Qashqadaryolik 24 yoshli yigitning fikrini ko‘rib chiqing: “Bizning mentalitetimiz juda o‘ziga xos ... Qarorni qabul qilish uchu qarindoshlar birga yig‘ilishadi. Agar 8ta qarindoshlardan 7 nafari bunga rozi bo‘lsa, 1 nafari bunga qarshi bo‘lsa, unda biror narsani boshlashni yoki amalga oshirishni istagan kishi buni qilolmaydi. Shuning uchun yoshlarimiz orasida mustaqil fikrlash rivojlanmagan. Ular yolg‘izlikdan qo‘rqishadi [ya‘ni, chetlatish] va ota-onalari yonida bo‘lishni afzal ko‘rishadi ... [Shunday qilib, biror bir joyda ham kelajakka ega bo‘lish uchun] o‘zingizni ota-onangizdan ajratib olish uchun jasur bo‘lishingiz kerak”.

### **Toshkent shahrilik ikki yigit, universitet talabalarining fikri, biri 20 va ikkinchisi 21 yoshda:**

**1-ishtirokchi:** Ota-onalar farzandlarini, bolalar ota-onalarini tushunishlari kerak. Barcha tortishuvlar paytida siz o‘zingizning tanlovingizni ota-onangiz bilan kelishish va muvofiqlashtirishni bilish kerak.

**2-ishtirokchi:** Ota-onalar imkon qadar bolalar bilan ko‘proq muloqot qilishlari kerak va aksincha. Va [siz] o‘z tashvishlar bilan bo‘lishishingiz kerak.

### **Va Qashqadaryoda o‘tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalarda 19 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan ikkita ayol ishtirokchilar o‘rtasidagi ushbu fikr almashinuvini ko‘rib chiqaylik:**

**1-ishtirokchi:** Hozir ajrashishlar bilan bog‘liq muammo mavjud. Ko‘p oilalar turmush qurganidan bir yoki ikki yil o‘tib ajrashmoqda.

**Moderator:** Bu nimaga bog‘liq?

**2-ishtirokchi:** Qaynanalar o‘g‘lining oilasi bilan birga yashashi va kelinlarga hadeb osilishiga bog‘liq. Shundan urush va janjallar chiqadi. Er [ayolni] olib chiqib haydab yuborishi mumkin. Ammo keyinchalik bu ayolning hayoti qanday kechadi? Bizda ayol kishi turmush qurganidan keyin o‘z uyga (tug‘ilib o‘sgan oilasiga) qaytib kelishi uyat hisoblanadi.



## Dam olishning to'g'ri miqdori

Dam olish bilan bog'liq holda, maqsadli guruhlardagi muhokamalar ishtirokchilari qishloq joylarda yashovchi yoshlarning, odatda, shaharlik tengdoshlariga qaraganda bo'sh vaqtlari qamroq bo'lishiga rozi bo'lishdi. Ko'rsatilgan asosiy sabab shundan iborat ediki, qishloqdagi uylar, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va uy hayvonlari uy xo'jaliklaridagi barcha a'zolarni o'ziga doimiy va to'laqonli jalb etilishini talab qiladi.

Bundan tashqari, bo'sh vaqtni o'tkazish imkoniyati jinsga bog'liq, chunki ayollar, odatda, ularning zimmasiga uy sharoitida ko'proq vaqt talab qiladigan vazifalar, uydagi yumushlar va shu jumladan, agar ona bo'lsa, bola tarbiyasi yuklanishi haqida xabar berishdi. Shu bois tadqiqotda ishtirok etgan yosh ayollar barcha odatiy uy vazifalaridan qutulib, yolg'iz qolish

uchun vaqt topganlarida, ko'proq dam olishlarini bildirishdi. Bundan farqli o'laroq, yigitlar tashqariga chiqib, jamoatchilik bilan muloqot qilishni afzal ko'rishdi.

Vaqtдан tashqari, tadqiqot qatnashchilari qishloqlarda bo'sh vaqt o'tkazish uchun imkoniyatlar yo'qligi, masalan, kafelar, restoranlar, Internet-klublar va hokazolarning mavjud emasligini ta'kidladilar. Qishloqlarda "vaqtni yaxshi o'tkazish" aksariyat jamoat tadbirlariga, xususan to'ylar, tug'ilgan kunlar yoki milliy bayramlarni (masalan, Navro'z) nishonlashga qaratilgan. Shunga ko'ra, tadqiqotning qishloq hududlarida yashovchi qatnashchilari va, ayniqsa, yosh ayollar, asosan bo'sh vaqtlarini oila a'zolari va qarindoshlari bilan o'tkazishini ta'kidladilar.

Shahar hududlaridan tadqiqot ishtirokchilari ham, shuningdek, o'qishdan, ishdan yoki oilaviy majburiyatlardan ozod bo'lgan paytlarida bo'sh vaqtlarini do'stlari bilan o'tkazishlari haqida aytib o'tdilar.

Yoshlar bo'sh vaqt va o'yin-kulgi cheklangan bo'lishi kerak, degan fikrga qo'shiladi. Tadqiqotning ko'plab ishtirokchilari bekorchilik, masalan, g'iybat qilish, Internetda vaqtni yo'qotish yoki video o'yinlar ni o'ynash qabilar salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, degan tushunchaga ega. Ular "bekorchi"ga aylanib qolmaslik, keyin esa ishsizlik yoki huquqbuzarlik holatiga tushib qolmaslik uchun, yoshlar o'z ota-onalari va mahalla jamoatchiligi tomonidan qattiq nazoratga muhtoj bo'lishi mumkinligini qayd etishdi.

Bu fikr Qashqadaryolik 23 yoshli yigitning quyidagi izohida o'z aksini topdi: "Men ko'ngilxushlik qilish, asosan, ertasi kuni haqida o'ylamaydigan, hech qanday ishi bo'lmaganlar uchun ekanligiga qo'shilaman. Shaharliklar biz [qishloq aholisi]ga qaraganda ko'proq dam olishadi, chunki ularda [ishlashga] yerlari va uy hayvonlari yo'q. Ularning yashash sharoitlari o'zgacha ..."

**Shuningdek, 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasida bo'lib o'tgan maqsadli guruhlardagi muhokamalar vaqtida bo'lgan ushbu fikr almashinuvini ko'rib chiqaylik:**

**Moderator:** Qachon dam olish mumkin?

**1-ishtirokchi:** Atrofda hech kim bo'lmaganda dam olaman!

**2-ishtirokchi:** Men o'zim yolg'iz qolsam.

**3-ishtirokchi:** Ha. Men ovqat eyman, yotaman, televizir ko'raman.

Yoki Qoraqalpog'istonlik 18 yoshli yigit, kollej talabasining fikri: "Bu [dam olish] ba'zi bayramlar paytida yuz beradi. Yaqinda mening do'stlarimdan birining tug'ilgan kuni bo'ldi va u tug'ilgan kunini yaxshi nishonladi ... Mana bu "o'yin-kulgi va ko'ngilxushlik" deb nomlanadi. Biroq, o'yin-kulgi va ko'ngilxushlik deb nimani hisoblash har bir insonning o'z idrokiga bog'liq. Va agar siz ko'p vaqtni do'stlaringiz bilan o'yin-kulgi va ko'ngilxushlikka bag'ishlasangiz, unda buning oxiri yomon tugashi mumkin. Negaki hayot faqat o'yin-kulgi va vaqtichog'likdan iborat emas".



**Farg'ona viloyatining qishloq joylarida o'tkazilgan maqsadli guruhlardagi muhokamalar davomida 19 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayol ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilgan fikr almashinuvi ham muhim xulosalarni chiqarishga imkon berdi:**

**1-ishtirokchi:** Hamma narsada doimo me'yor bo'lishi kerak. Kishi ko'p vaqt zavqlanmasligi lozim.

**2-ishtirokchi:** Chunki bu salbiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, agar yosh qiz faqat ko'ngilxushlik qilsa, uy vazifalarini bajara olmaydi.

Shuning uchun u tanbeh eshitishi mumkin.

**3-ishtirokchi:** Bunday qiz haqida mish-mishlar tarqaladi, unga hech kim uylanmaydi ...

**Moderator:** Xo'sh, siz uchun ko'ngilxushlik qilish va dam olish nimani anglatadi?

**4-ishtirokchi:** Oilaviy tadbirlarda, bayramlarda va tug'ilgan kunlarda qatnashish.

**5-ishtirokchi:** Siz oilaviy ravishda yig'ilganda.

## Yoshlikni tugashi

Va nihoyat, yoshlar o'zlarining yoshligi qachon tugashi to'g'risida turlicha tasavvurlarga ega.

Ba'zi maqsadli guruhlardagi muhokamalarning ishtirokchilari bu shaxsiy tanlov yoki kimningdir "qalb" holatiga bog'liq bo'lishini ta'kidladilar. Boshqalar ma'lum bir yoshni nazarda tutgan, ammo ularning oralig'i 25 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan oralikda juda xilma-xil edi.

Yoshlarning yana bir qismi ma'lum hayotiy voqealar, masalan, kasbini tanlash, nikohdan keyin o'z oilasi vazifalari va majburiyatlarini o'z zimmasiga olish yoki ota-ona bo'lish kabi voqealar yoshlikning tugashini anglatishi haqida aytdilar. Boshqalari esa jismoniy yoki ijtimoiy qarishni birinchi o'ringa qo'yishdi,

yoshlikning tugashini paydo bo'layotgan sog'liq muammolari yoki ota-onaning vafoti bilan bog'lashdi.

Qashqadaryolik 16 yoshli maktab o'quvchisi bo'lgan bir yigitning so'zlari bilan aytganda: "Yoshlik o'z oilangni boqish kerak bo'lganda, farzandli bo'lgandan keyin tug'aydi. Yoshlik butunlay yo'q bo'lib ketadi, deb aytmagan bo'lardim, ammo hozirgi kabi beparvo hayot bo'lmaydi".

Yoki Toshkent shahrilik 20 yoshli yigit, universitet talabasi so'zlari bilan aytganda: "Ko'pchilik yoshlikni yosh tushunchasi deb tushunadi. Ammo, oxir-oqibat, yoshlik – bu qalb holatidir".

*“Yoshlik o‘z oilangni boqish kerak bo‘lganda, farzandli bo‘lgandan keyin tug‘aydi. Yoshlik butunlay yo‘q bo‘lib ketadi, deb aytmagan bo‘lardim, ammo hozirgi kabi beparvo hayot bo‘lmaydi.”*

Qashqadaryolik 16 yoshli maktab o‘quvchisi bo‘lgan bir yigitning so‘zlari



*“Ko‘pchilik yoshlikni yosh tushunchasi deb tushunadi. Ammo, oxir-oqibat, yoshlik – bu qalb holatidir.”*

Toshkent shahrilik 20 yoshli yigit, universitet talabasi so‘zlari



# 5

## Tavsiyalar

Yoshlarning javoblari va hujjatlashtirilgan fikrlariga asoslanib, O'zbekiston yoshlar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni kuchaytirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni tuzish mumkin.



## 1. Yoshlarning eng yordamga muhtoj qatlamiga alohida e'tibor qaratgan holda, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida yoshlar bilan ishlash amaliyotini tizimlashtirish

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar bilim olish va o'qish uchun arzon imkoniyatlardan, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun xavfsiz joylardan, o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlashda cheklangan imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan, har bir yosh inson, shu jumladan, eng kam ta'minlangan yoshlar qatlamini qo'llab-quvvatlash va o'z jamoasiga daxldorligini his qilishi uchun, mahalliy darajada yoshlar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish va tizimlashtirish tavsiya etiladi.

Xususan, mavjud yoshlar tashkilotlari asosida o'spirinlar va yoshlarni ko'p funksiyali qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish va quyidagi xizmatlar ni taqdim etish uchun mavjud xodimlar ning salohiyatini oshirish tavsiya etiladi:

- Qiyin vaziyatlarda, eng yomon ahvolda bo'lgan yoshlarga e'tibor qaratgan holda, yoshlar va ularning ota-onalarini ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash.
- Yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlariga javob beradigan va ularning hayotiy ko'nikmalarini, ijodkorligini, uzluksiz ta'limga tayyorligini, bir-birlariga bo'lgan ishonch va g'ayratini, ishonch va hamjihatlikni oshiradigan to'laqonli ta'lim va bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish.
- O'rta maktabdan keyingi ta'lim imkoniyatlari, mehnat bozorining mavjud va paydo bo'layotgan tendensiyalari va daromad olish uchun ko'nikmalarga bo'lgan talablar to'g'risida yoshlarga ishonchli va aniq ma'lumotni ta'minlash uchun ta'lim va kasb bo'yicha maslahat berish.
- Yoshlarning yashash joyida o'ziga xos qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqa xizmatlar ko'rsatish. Ushbu ko'p funksiyali qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish yoshlarga, ayniqsa yosh qizlarga, bunday markazlarga tashrif buyurish imkoniyati berilishini ta'minlash uchun ota-onalar va mahalliy jamoalarga qaratilgan kuchli aloqa kampaniyasi bilan birga amalga oshirilishi kerak.



## 2. Oila va maktab darajasida qaror qabul qilishda yoshlarga nisbatan ob'yekt sifatida emas, balki sub'yekt sifatida ijobiy asoslanish va munosabatni kuchaytirish.

Butun tadqiqot jarayoni davomida yoshlar ijtimoiy tartibni qadrlashlarini va jamoaviy me'yorlarga va keksa avlod rahbarligiga rioya qilishga tayyor ekanliklarini ko'rsatdilar. Biroq, ular ushbu munosabatlarni haddan tashqari intizom va yoshlar faqat o'zlariga tayinlangan ijtimoiy rollar (qiz, o'g'il, maktab o'quvchisi va boshqalar) doirasida harakat qilishini haddan tashqari yuklamalik kerak, deb takidladilar.

Yoshlarning o'z farzandlik burchini bajarishga tayyorligi (ota-onalarga hurmat) ota-onalarning ijobiy munosabati bilan mukofotlanishi kerak, bu otaonalar yoshlarning ehtiyojlariga o'z nuqtai nazarlari bilan tushunishi, qo'llabquvvatlashi, himoya qilishi va harakat qilish uchun javobgarligini anglatadi. Ota-onalar orasida xabardorlikni oshirish va ijobiy tarbiya amaliyotini targ'ib qilish tavsiya etiladi. Amalda bu yoshlar ning rivojlanishi uchun ijobiy motivatsiya amaliyoti afzalliklarini ilgari surishni anglatadi (qo'rqitish va xo'rlash o'rniga). Rivojlanish maqsadidagi kommunikatsiya kampaniyalari uchun yoshlar asosiy hayotiy qarorlarni muhokama qilish va yetkazish, masalan, ta'lim bo'yicha intilishlari yoki kasbiy rivojlanishini rejalashtirish masalalari bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar va maktab ma'murlari o'quvchilar uchun rag'batlantiruvchi muhit yaratish usullariga o'rgatilishlari kerak. Eng muhimi, bu o'quvchilarning shaxsiy nafsoniyatini ifoda etish va ular ni amalga oshirishga undash hamda o'qituvchi va nazariyaga emas, ko'proq o'quvchilarga va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish uslubini ishga solishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

## O'qishdan ishga muvaffaqiyatli o'tishni ta'minlash maqsadida barcha yoshlar uchun asosiy, hayotiy, texnik, raqamli, innovatsion va tadbirkorlik ko'nikmalarini egallash imkoniyatlarini kengaytirish.

### 3. NEET orasida bo'lish xavfi yuqori bo'lgan yoshlarga, shu jumladan, yosh ayollar, chekka qishloqlarda yashovchi yoshlar, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan yoshlar, imkoniyati cheklangan va boshqa zaif guruhlardagi yoshlarga e'tiborni qaratib, hayotiy, texnik, innovatsion va tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish sohalarida rasmiy va norasmiy ta'limni kengaytirish.

Tadqiqot natijalari majburiy o'rta ta'limni tugatgandan so'ng yoshlar orasida NEET darajasi (54,6 foiz) juda yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Yoshlarda oliy ma'lumot olish imkoniyati cheklangan. Ular o'zo 'zini ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikni keyinchalik ish bilan ta'minlashning bir varianti deb hisoblashadi, ammo rasmiy ta'lim doirasida tegishli bilim va ko'nikmalarni olish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatmoqdalar.

Shu nuqtai nazardan va Prezidentning tashabbusi bilan qashshoqlikni kamaytirish strategiyasi sifatida O'zbekiston aholisi orasida tegishli ko'nikma va fikrlashga ega bo'lgan tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirishga asoslanib, yoshlarning mehnat bozorida imkoniyatlarini oshirish uchun tadbirkorlik qobiliyatlari hayotiy, texnik, innovatsion va norasmiy ta'limni kuchaytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ko'proq ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash va ayniqsa, qishloq joylarida yoshlarning mehnat harakatchanligiga ko'maklashish uchun til o'rganishda norasmiy treninglar o'tkazilishi kerak.

Hayotiy va tadbirkorlik ko'nikmalariga oid modullar rasmiy ta'lim dasturiga kiritilishi mumkin, shuningdek norasmiy ta'lim platformalari, shu jumladan mavjud bo'lgan Yoshlar markazlari orqali o'qitilishi mumkin. Bunday ta'lim dasturlarini Hukumat va StartUp dasturlari tomonidan mavjud imkoniyatlar bilan bog'lash mumkin. Amalda modul o'quv rejasini loyihalashtirish yoki "maktabga asoslangan kasbiy maslahat dasturlari" uchun ish beruvchilarning yanada kuchli integratsiyasini o'z ichiga olishi kerak.<sup>16</sup>

Tegishli manbalar bilan ta'minlash va ota-onalar bilan, ayniqsa qizlarning ota-onasi bilan aloqa qilish orqali hamda ularni mintaqaviy bozor talablariga yo'naltirish orqali (masalan, paydo bo'layotgan turizm yoki ayrim ishlab chiqarish tarmoqlari) barcha yoshlar, shu jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun bunday ta'lim / o'qitish modullari mavjud bo'lishi juda muhimdir. Modullar nazariy mazmun va bilimlar ni amaliy qo'llash o'rtasida muvozanatga erishishi kerak va "yosh mutaxassislar" uchun sertifikatlangan tajriba orttirishlar (stajirovkalar) yoki o'quv dasturlari orqali tegishli professional sektorga qo'shilishi kerak.

Agar ushbu shartlar bajarilsa, mehnat bozori mamlakatning yosh kadrlar resurslarini investitsiya sifatida (uzoq muddatli) iqtisodiy yutuqlarga va "demografik dividend" ni olishga yordam beradigan investitsiya sifatida birlashtirishi mumkin.<sup>17</sup>

#### **4. Kompyuter bilan ishlash ko'nikmalarini o'qitish darajasini oshirish va, ayniqsa qishloq joylarida va yosh xotin-qizlar orasida, Internetdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish.**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 37,8 foizi umuman kompyuterdan qanday foydalanishni bilmaydi va yoshlarning yarmidan ko'pi, ayniqsa qishloq joylarida va yosh ayollar hech qachon Internetdan foydalanmaydi. Shu bilan birga, ehtimollik tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot

texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish yoshlarning o'qish yoki o'rganish bilan band bo'lmaganlar orasida bo'lish ehtimolini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, Internetning texnik imkoniyatlarini (ulanish, tezlik, qurilmalar) va moliyaviy imkoniyatlarni o'z ichiga olgan funksionalligini oshirish hamda rasmiy va norasmiy ta'lim orqali axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarni oshirish tavsiya etiladi. Xususan, maktablar va yoshlar markazlarining o'zaro aloqasini ta'minlash kerak, ayniqsa qishloq joylarida. Maktablarni jalb qilishning universal imkoniyatiga erishish uchun salohiyatli yechimlardan biri O'zbekiston ITU va UNICEF - GIGA. 18 global tashabbusida ishtirok etishidir.

Axborot texnologiyalari bo'yicha o'quv dasturini va maktab o'qituvchilarining AKT salohiyatini oshirishda o'zbek va qoraqalpoq tillarida AT-malaka oshirish onlayn kurslarini ishlab chiqish bilan birga olib borish tavsiya etiladi. Shuningdek, mahalliy Yoshlar markazlarida yoshlar tomonidan boshqariladigan axborot texnologiyalari kurslarining varianti ham hayotga tatbiq etilishi mumkin.

Xususan, yosh ayollar uchun Internetning funksionalligi, shuningdek, noto'g'ri xattiharakatlarning madaniy tushunchalariga bog'liq, ayniqsa yosh ayollar uchun. Internetga qiradigan yosh ayollarni kamsitish xavfini kamaytirish uchun, madaniy me'yorlarni asraydigan soqchilar bo'lmish Internetga kirishni nazorat qiluvchi ota-onalar, erlar va qaynanalar bilan ishlash imkoniyatini ko'rib chiqish lozim. Internetni olish qishloq hududlarida ta'lim olish va bandlikka erishish uchun imkoniyatlarni kengaytirish vositasi sifatida targ'ib qilish kerak. Xususan, Internetga kira olish va kompyuterda ishlashni o'rganish yosh ayollarning faol iqtisodiy ishtirokini rag'batlantirishi va uy sharoitida tadbirkorlik salohiyatidan foydalangan holda, daromad keltirishi mumkin.

16. Jahon banki (2018 yil)

17. UNICEF (2018 yil)

18. GIGA haqida batafsil ma'lumotni quyidagi manzilda olish mumkin <https://gigaconnect.org/>

## 5. O'z fikri, muammolari va intilishlarini ifodalash, mahalliy va milliy darajalarda qarorlarni qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish uchun barqaror yoshlar platformalarini yaratish.

Tahalliy va milliy darajalarda yoshlarning hayotiga ta'sir etadigan masalalar bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ularni jalb qilish uchun barqaror institutsional platformalarni yaratish.

Sadqiqot natijalari O'zbekistondagi yoshlar ota-onalari va katta avloddan (o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarni o'z ichiga olgan) ko'rsatma va maslahat olish uchun tayyor ekanliklarini ko'rsatdi. Biroq, yoshlarning umumiy istagi shundaki, ularning ovozlari, qiziqishlari va tashvishlari "kattalar" tomonidan tinglanishi va ko'rib chiqilishidan iborat. Yoshlar o'zlarining hayotiga ta'sir qiluvchi qarorlarda faol ishtirok etishni va o'z hamjamiyatlari (mahalla) farovonligini oshirishga qaratilgan harakatlarga o'z hissalarini qo'shishni istaydilar, ular hozirgi paytda o'zlarini tovushsiz va kuchsiz his qilmoqdalar.

Shu nuqtai nazardan va Prezidentning hukumat va yoshlar o'rtasidagi doimiy muloqot yuzasidan da'vatiga asoslanib,<sup>19</sup> mahalliy va milliy darajadagi qarorlarni qabul qilishda yoshlarni jalb qilish uchun barqaror institutsional platformalar yaratish tavsiya etiladi. Xususan, yoshlarni, shu jumladan NEET yoshlarini mahalliy darajada doimiy ravishda yoshlar maslahatiga jalb qilish uchun mavjud bo'lgan "Hokim va yoshlar" (Mahalliy hokim va yoshlar) platformasini tizimlashtirish va samaradorligini oshirish tavsiya etiladi. Bunday maslahatlar va kuchli kuzatuv mexanizmi yoshlarning tinglanishini va qarorlar yoshlar ehtiyojlari va manfaatlariga javob berishini ta'minlaydi. Binobarin, yoshlar o'z jamoalariga daxldorlik hissi va Hukumatga bo'lgan ishonchni kuchaytiradilar.

Bundan tashqari, yoshlar bilan o'zaro muloqotning mavjud raqamli platformasi U-Reportni kengaytirish va institutsionallashtirish tavsiya etiladi. Ushbu platforma mamlakat bo'ylab 100000 dan ortiq yoshlarni har hafta o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovlar orqali milliy darajada qaror qabul qilishga jalb qilmoqda. Bundan tashqari, U-Report hukumatga yoshlar orasida ishonchli ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tarqatish imkoniyatini yaratadi. U-Report turli xabar almashish kanallari, shu jumladan Telegram, Facebook va SMS orqali, eng chekka hududlardagi kam ta'minlangan hamda smartfon va Internetga ega bo'lmagan yoshlar uchun ham ochiqdir.

Platformalarni ishlab chiqish yoshlarni mazmunli jalb qilish bo'yicha qaror qabul qiluvchi shaxslarning salohiyatini oshirish va yoshlarning yetakchi va yoshlar huquqlari himoyachilari sifatida salohiyatini oshirish bilan birga bo'lishi kerak. Bunga tegishli bilim va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoat oldida nutq so'zlash, muloqot qobiliyatlari, huquqiy va siyosiy savodxonlik qiradi.

## 6. Yoshlar orasida muloqot qilish uchun platformalar yaratish va yoshlarning raqamli faolligini rivojlantirish yo'lida ularni qo'llab-quvvatlash

Ijtimoiy muammolarga kelsak, yoshlar, ayniqsa, jamiyaddagi ishonch, gender munosabatlari va erta yoshda turmush qurish / ajrashish masalalarini muhokama qilish zarurligini ta'kidladilar. Shu bilan birga, ko'plab yoshlar bunday nozik mavzular haqida o'zlarining fikrlari va his-tuyg'ularini baham ko'rishda maxfiylik buzilishi va ijtimoiy tamg'alanishdan qo'rqishadi.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 27 dekabrda yoshlar bilan uchrashuvi haqidagi murojaati.

Shu nuqtai nazardan, yoshlarning ijtimoiy faolligini targ'ib qilish va ular ning shaxsiy daxlsizligiga bo'lgan xavfdan qo'rqmasdan, o'z tashvishlarini ifoda eta olishi mumkin bo'lgan platformalar ni yaratish tavsiya etiladi. Bu yoshlar, yosh bloggerlar, podkastlar yoki moderatsiya qilingan muhokamalar o'rtasida tengdoshlararo fikrlar almashinuvi shaklida bo'lishi mumkin.

Bunday yondashuvlar ishtirokchilarning anonim bo'lishiga kafolat beradi, shuningdek, ularga O'zbekistonning boshqa mintaqalaridagi yoshlar bilan bog'lanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, yoshlar telefon yoki onlayn ishonch telefonlari orqali kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislardan maslahat olishlari mumkin bo'lgan professional konsultatsiyalar uchun platformalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu professional yordam qo'llab-quvvatlash va ijobiy turtki berish uslubiga amal qilgan tarzda ko'rsatilishi juda muhimdir.

## **Yosh ayollar uchun ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarni yaratish**

### **7. Yosh ayollarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlash.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, NEET yoshlari orasida yosh ayollar nomutanosib ravishda ko'proq ko'rsatilgan. Ularning mehnat bozorida harakatchanligi va Internetga kirish imkoniyati ham past darajada. Yosh ayollar turmush qurganlaridan keyin fuqaro huquqlaridan yanada kuchli mahrum bo'ladilar.

Yoshlar ijtimoiy gender me'yorlarining tubdan o'zgarishini istamasalar ham, ular erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqlar ni amalga oshirishda mavjud bo'lgan tengsizlikni tan olishadi va oilani yosh oilaning faqat bitta a'zosining maoshi bilan ta'minlash qiyinligi masalasini ko'tarishadi.

Shu nuqtai nazardan, ayollarning iqtisodiy, siyosiy va jamoat sohalarda faol ishtirokini targ'ib qiluvchi C4D (rivojlanish uchun kommunikatsiya) kampaniyalarini o'tkazish tavsiya etiladi. Kampaniyalar, ayniqsa, ota-onalar / qaynanalar va erlarga qaratilgan bo'lishi kerak, va ta'lim olishdan oldin qizlarni turmushga bermasliklarini targ'ib qilishlari va / yoki turmush qurganidan keyin o'qishni davom ettirishi yoki kasb-hunar egallashiga ayollarga qarshilik ko'rsatmasliklariga yordam berishi kerak.

Bundan tashqari, otalarning bolalarni tarbiyalashda ishtirok etishi va ular ishtirokining bolalar rivojlanishi uchun ahamiyati to'g'risida xabardorlikni oshirish, bolalarni tarbiyalashni faqat ayollarning javobgarligi sifatida qabul qilishni o'zgartirish maqsadida C4D kampaniyalariga "otalikni" targ'ib qilish tavsiya etiladi.

C4D kampaniyalarini me'yoriy dalillar (masalan, teng huquqli diskursga asoslangan), pragmatik ishtirok (masalan, oila byudjetining ko'payishi) va omadga erishishning muvaffaqiyatli hikoyalari (masalan, oilalarga ishlaydigan ayollar bilan yaxshiroq bo'lishi haqida) bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Boshqa yoshlar ham ushbu muvaffaqiyatli hikoyalar ular uchun ham erishilishi mumkin deb hisoblashlari uchun, ushbu voqealar mahalliyashtirilishi kerak (masalan, "bu yerdan unchalik uzoq bo'lmagan oila"), ko'z yetadigan keyingi bosqichga (masalan, "yaxshi amaliyot o'tash") va yoshlarning harakatlarini tegishli shaxslar (tengdoshlari, erlari, ota-onalari, qaynanalari) tomonidan ma'qullashini aks ettirishi kerak.

## 8. Bolalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va ish sharoitida moslashuvchanlikni ta'minlash orqali ayollarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalardagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash.

Ijtimoiy, gender va madaniy me'yorlardan tashqari, oila haqida g'amxo'rlik va uy sharoitida mehnat qilish ayollarga o'qishni davom ettirish va / yoki ish bilan ta'minlash uchun imkoniyatlardan foydalanishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun bolalarni tarbiyalash bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish, shu jumladan davlat bolalar bog'chalari sonini ko'paytirish, uy sharoitidagi xususiy bolalar bog'chalari va o'zaro yordam bo'yicha bolalar bog'chalari tavsiya etiladi. Bunday bolalar bog'chalarida onalar o'zlari va ayrim qo'shnilarining bolalari uchun bir hafta davomida navbatma-navbat g'amxo'rlik qilish orqali bir-biri uchun bo'sh vaqt yaratadi.

Bundan tashqari, har ikkala ota-onaning ish tartibini diversifikatsiya qilish, moslashuvchan ishlash jadvali, uy sharoitida ishlash va otalar uchun bolani parvarishlash yuzasidan ta'til berishni joriy qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

## Yoshlarga va ularning oilalariga asosiy xizmatlarni taqdim etish uchun sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish.

### 9. Yoshlarga asosiy tibbiy xizmatlarni qamrab oladigan tibbiy sug'urtani joriy qilish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning sog'lig'i bilan bog'liq muammolaridan biri bu davolanish bilan bog'liq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita harajatlar va og'ir kasallik paytida davolanish uchun har qanday ijtimoiy yordamga ishonib bo'lmazlikdir.

Shunday qilib, tibbiy sug'urta tizimini tashkil etish va yoshlar uchun asosiy tibbiy xizmatlar ushbu sug'urta bilan qoplanishini ta'minlash tavsiya etiladi.

### 10. Tibbiy kadrlarni kuchaytirish (salohiyati va miqdori), ayniqsa qishloq joylarida.

Bundan tashqari, yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarida tibbiy kadrlarning yetishmasligi va malakasi pastligi masalasini ko'tarishdi. Shunday qilib, sog'liqni saqlash kadrlari salohiyatini kuchaytirish tavsiya etiladi, ayniqsa qishloq joylarda. Qishloqlarda ishlaydigan tibbiyot xodimlarini rag'batlantirish va sog'liqni saqlash xodimlari uchun uzluksiz ta'limni takomillashtirish bo'yicha imtiyozli siyosatni o'z ichiga olishi kerak. Xususan, Hukumat tashabbusi bilan barcha viloyat va tuman markazlarini optik tolali aloqa bilan ta'minlash, teletibbiyot va o'rganish imkoniyati uchun masofaviy aloqani rivojlantirish taklif etiladi. Teletibbiyot va masofadan o'qitish uskunolari orqali maslahat xizmatlarini ko'rsatish va onlayn muhokamalar qishloq joylarida tibbiyot xodimlarini ish joylarida o'qitish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

## **Yoshlar siyosatini asosli ishlab chiqish va tatbiq qilish maqsadida O'zbekistonda yoshlarning ahvolidning kelgusi batafsil tadqiqotlarini o'tkazish.**

### **11. Yoshlar hayotiga ta'sir qiladigan muhim masalalar bo'yicha qo'shimcha dalillarni olish Amalga oshirilayotgan islohotlarning yoshlar farovonligiga ta'sirini nazorat qiladigan va baholaydigan yoshlarni rivojlantirish milliy indeksini yaratish tavsiya etiladi.**

Ushbu tadqiqotning davomi sifatida quyidagi tadqiqotlarni o'tkazish tavsiya etiladi:

- O'zbekistondagi NEET yoshlarining ulushi katta. Bilimlardagi hal qiluvchi bo'shliqlar quyidagi jihatlarda saqlanib qoladi - NEET guruhining xususiyatlari (masalan, ob'yektiv va sub'yektiv imkoniyatlar yoki jins va mintaqa ta'siri), ish joyiga yoki o'qishga kirish va chiqishning tizimlashtirilgan usullari va NEET bo'lishning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini, ayniqsa, gender va geografik taqsimlash bilan.
- O'z qishloqlari yoki shaharlaridan chiqib ketmaslik uchun yoshlar orasida keng tarqalgan afzallikning kelib chiqishi va oqibatlarini. Geografik harakatchanlikni ijtimoiy harakatchanlik bilan bog'laydigan ko'plab dalillarni hisobga olgan holda, ushbu kontekstning ko'chib o'tishi orqali ijtimoiy o'zgarishlarni rad etadigan va qo'rquvni targ'ib qiluvchi ijtimoiy tarbiya bilan qanday bog'liqligini O'zbekiston sharoitida yaxshiroq anglab yetish juda muhimdir.
- Erning ota-onasi bilan birgalikda yashaydigan ko'plab yosh oilalar uchun qaynananing rolini yaxshiroq anglash maqsadida empirik ma'lumotlarni to'plash tavsiya etiladi (patrilokallik). Qaynanani yosh oilalar asosiy qarorlarni muhokama qilishlari kerak bo'lgan va ularning oilaviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxs sifatida ifodalash mumkin. Qaynanalar kamroq darajada konservativ / to'xtatib turuvchi yondashuvni qo'llagan taqdirda, turmush qurgan yosh ayollarning qo'shimcha ma'lumot olish yoki ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshirish mumki bo'lar edin. Shu bilan birga, yetarli darajadagi ilmiy tushunchalarsiz bunday o'ta dolzarb bo'lgan ijtimoiy-madaniy guruhga nisbatan xatti-harakatlarning o'zgarishini keltirib chiqarishda zarar yetkazish xavfi katta.

# Bibliografiya

2017-2020 yillarda O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Tizimi o'rtasida kelgusi hamkorlik bo'yicha harakatga yo'naltirilgan yo'l xaritasi [online](#) mavjud

Ajvad, M. va boshqalar (2014) *Ko'nikmalar yo'li: O'zbekistonda ishga joylashish uchun ko'nikmalar*. Jahon Banki. Vashington.

O'zbekiston hukumati (2018) . *O'zbekiston ta'lim sektori rejası (TSR) 2019-2023*. Toshkent

Xalqaro Yoshlar Jamg'armasi (2017 yil) Global yoshlar farovonligi indeksining hisoboti [online](#) mavjud

O'zbekiston Respublikasining Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni (2016 yil) [online](#) mavjud

5106-sonli Prezident Farmoni (2017 y.) Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llabquvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. [online](#) mavjud

4947-sonli Prezident Farmoni (2017 y.) "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" [online](#) mavjud

Hamdo'stlik (2016 yil) Yoshlarning rivojlanishi indeksi bo'yicha hisoboti. [online](#) mavjud

TransMonEE Database ma'lumotlar bazasi (2018 yil), <http://transmonee.org/database/>. dan olingan

UNICEF (2014 yil), Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bo'yicha huquqlar. [online](#) mavjud

UNICEF (2018 yil) O'zbekiston 2030 avlodi. Demografik dividend olish uchun bolalar va yoshlarga sarmoya kiritish [online](#) mavjud

UNICEF (2019 yil) O'zbekistondagi boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'rganishi: natijalar, qiyinchiliklar va imkoniyatlar: O'zbekiston milliy o'rganish yutuqlarini baholash tadqiqotining qisqacha mazmuni, 4-sinf, 2018 yil. Toshkent

UNICEF (2020) O'zbekistonning bolalari va yoshlari uchun mos bo'lgan milliy ijtimoiy himoya tizimini yaratish: 25 [online](#) mavjud

O'zA (2019) O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tmoqda. [online](#) mavjud

Jahon banki (2018) O'zbekiston - Ta'lim sohasi tahlili: 100. [online](#) mavjud

Jahon banki va UNICEF (2018 yil) "O'zbekiston fuqarolarini tinglash" uy xo'jaliklari milliy tadqiqotlari ma'lumotlari asosidagi hisob-kitoblar.



# Ilova

## O'zbekiston yoshlari o'rtasida NEET determinantlari (aniqlovchilari)

NEETning salohiyatli aniqlovchilarini o'rganish uchun mehnat bozori natijalari bo'yicha an'anaviy tadqiqotlar o'tkazildi va quyidagi regressiya modeli taxmin qilindi:

$$NEET_i = \alpha + \beta X_i + \gamma H_i + \delta S_i + \varnothing I_i + \varepsilon_i$$

bu yerda NEET - bu binar (ikkili) o'zgaruvchi, respondent NEET guruhi bo'ladimi, X - bu shaxsiy xususiyatlar to'plami (jinsi, yoshi, oilaviy holati, turar joy turi, sog'lig'i), H - inson kapitali bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv to'plami, S - yumshoq ko'nikmalar bilan bog'langan boshqaruv elementlari, I qattiq (IT) ko'nikmalarni egallaydigan vektor va e - bu stoxastik xato atamasi. Bog'liq o'zgaruvchining binar

xususiyatini hisobga olgan holdagi tenglama (1) ishonchli standart xatolar bilan Stata 15-da logistik regressiya modeli yordamida baholanadi.

**Ta'riflovchi statistika 1** - jadvalda keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, namunada respondentlarning deyarli 37 foizi NEET guruhiga qiradi. Ayol respondentlar tanlovning 58 foizini tashkil qiladi, namunadagi o'rtacha yosh esa 21 yosh. Respondentlarning deyarli 55 foizi turmush qurgan va 48 foizi shahar hududida yashaydi. E'tiborlisi shundaki, biz respondentlar ota-onalarining eng yuqori ma'lumotga ega bo'lganlari o'rtasida 6 foizli farqi borligini aniqladik.

**2-jadvalda** NEETning potentsial aniqlovchilari sifatida shaxsiy xususiyatlar o'rganilgan. 1-ustunda gender va NEET o'rtasidagi

### 1-JADVAL

#### Ta'riflovchi statistika

O'zgaruvchan	Tavsif	Ma'nosi	Doimiy rivojlanuvchi	Minimal	Maksimal
NEET	Agar respondent NEETda bo'lsa = 1, aks holda 0	0.37	0.48	0	1
Ayol	Agar respondent ayol bo'lsa = 1, aks holda 0	0.58	0.49	0	1
Yoshi	Respondentning yoshi	21.64	4.82	14	30
Oila qurgan	= 1 agar respondent turmush qurgan / sherik bilan birga yashasa, 0 aks holda	0.55	0.50	0	1
Shahar	= 1 agar respondent shaharda yashasa, 0 respondent qishloqda yashasa	0.48	0.50	0	1
Salomatlik	O'zining fikriga ko'ra o'z salomatligining holati shkalasi (0 juda yomon - 4 ta juda yaxshi)	3.29	0.58	1	4
Onaning ma'lumoti	repondentning onasi oliy ma'lumotga ega bo'lsa, 0 aks holda	0.12	0.32	0	1
Otaning ma'lumoti	respondentning otasi oliy ma'lumotga ega bo'lsa, 0 aks holda	0.18	0.39	0	1
Universitet	Agar respondent oliy ma'lumotga ega bo'lsa = -1, aks holda 0 = 1, agar respondent quyidagi ko'nikma yoki qobiliyatlarga ega bo'lsa:	0.04	0.20	0	1
Moslashish	Turli vaziyatlarga moslashish va moslashuvchan bo'lish	0.82	0.39	0	1
Hal qilish	nizolarni / bahslarni hal qilish va oldini olish	0.84	0.36	0	1
Ijodiy	ijodiy fikrlash ko'nikmalari, masalan, muammolarni qanday hal qilish va odatiy holatdan farqli tarzda o'ylash	0.84	0.36	0	1

O'zgaruvchan	Tavsif	Ma'nosi	Doimiy rivojlanuvchi	Minimal	Maksimal
Tanqidiy	tanqidiy fikrlash qobiliyatlari	0.84	0.37	0	1
Qaror	qaror qabul qilish ko'nikmalari	0.86	0.34	0	1
Vaqt	vaqt cheklovlari ostida ishlash va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish	0.87	0.34	0	1
Yetakchilik	yetakchilik qobiliyatlari	0.76	0.43	0	1
Maqsadlar	maqsadlarni belgilash va ularga erishish	0.90	0.30	0	1
Jamoada ishlash	jamoalarda ishlash	0.90	0.31	0	1
Vaqtning boshqarish	vaqtning boshqarish ko'nikmalari	0.90	0.30	0	1
Kompyuterda ishlash ko'nikmalari	Respondentning shaxsiy kompyuterdan foydalanish ko'nikmalari, (1 - Bilmayman; 5 - juda yaxshi bilaman)	2.78	1.52	1	5
Internet	Respondentning Internetdan foydalanish chastotasi, (1 - Hech qachon; 5 - har kuni)	2.51	1.76	1	5

ikki tomonlama regressiya modeli keltirilgan. Kutilganidek, ayol respondentlarning taxminlari ijobiy va ahamiyatli (1 foiz darajasida) ayol respondentlarning NEET bo'lish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, ikki tomonlama OLS regressiyasidan R -kvadrat (bu yerda xabar qilinmagan) shuni ko'rsatadiki, faqat jins NEETdagi o'zgarishlarning deyarli 11 foizini izohlaydi.

## 2-JADVAL

NEETning aniqlovchilari: individual xususiyatlar

**2-ustunda** yosh va uning mehnat bozori natijalari o'rtasidagi bir maromdagi bo'lmagan aloqani baholash uchun yoshi va uning kvadrati atamasi qo'shiladi. NEETga tushib qolish ehtimoli respondentlar 24 yoshga to'lguncha yoshi oshgan sari ortib boradi. Ushbu chegaraga erishilgandan keyin yosh NEETga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

**3-ustunda** nikoh/oila qurish va NEET o'rtasidagi bog'liqlik baholanadi. Aniqlanishicha, nikoh insonning NEETda bo'lish ehtimolini oshiradi. Ushbu o'zgaruvchi ijobiy va 1 foiz darajasida ahamiyatga ega. Nihoyat, 4 va 5-ustunlarda shahar aholisi va o'z salomatligiga o'zi bergan baho salomatlik holatini bashorat qiluvchi sifatida kiritilgan. Ikkala o'zgaruvchi ham 1 foiz darajasida salbiy va ahamiyatli. Umuman olg'anda, shaxsiy xususiyatlar NEETdagi o'zgarishlarning qariyb 26 foizini izohlaydi.

**3-jadvalda** natijalar gender belgisi bo'yicha ajratilgan. Natijalar 9-jadvalda keltirilgan natijalar bilan deyarli bir xil, ammo oila qurish erkak respondentlar uchun NEET holatining ahamiyatsiz bashoratchisi bo'lib tuyulmoqda.

**4-jadvalda**, ehtimol, NEET bo'lishi mumkin bo'lgan inson kapitalini to'plashning roli baholanadi. 1-ustunda biz ota va onaning eng yuqori ma'lumotlarini nazorat qilamiz. Ota-onaning eng yuqori ma'lumot darajasi oliy ma'lumotga ega bo'lganda, NEET ehtimoli pasayadi. Biroq, respondentning eng yuqori ma'lumot darajasi nazorat qilingandan so'ng, ota-onaning ma'lumotlari NEETga ta'sir qilmaydi. Bu shuni anglatadiki, respondentning ta'limi ota-ona ta'limining mehnat bozori natijalariga ta'sirini vositachilik qiladi. Va nihoyat, 3-ustunda, agar respondent ta'lim muassasasidan qoniqsa / qoniqqan bo'lsa, ikkilamchi o'zgaruvchi qo'shiladi. Ta'limdan qoniqish NEET ehtimolini pasaytirishi kuzatilmogda.

### 3-JADVAL

Jinsi bo'yicha NEET aniqlovchilari

	Ayollar	Erkaklar
Yoshi	1.837 (7.29)***	1.565 (6.01)***
Yoshi <sup>2</sup>	-0.037 (7.08)***	-0.032 (5.71)***
Oila qurgan	1.435 (10.48)***	-0.255 (1.36)
Shahar hududi	-0.384 (3.08)***	-0.523 (3.62)***
Salomatlik	-0.367 (3.31)***	-0.241 (2.00)**
Doimiy	-20.806 (7.14)***	-18.581 (6.16)***
N	1,532	1,120

\* p<0.1; \*\* p<0.05; \*\*\* p<0.01

## 4-JADVAL

NEET aniqlovchilari: inson kapitalining to'planishi

	I	II	III
Ayol	1.660	1.665	1.667
	(16.17)***	(15.59)***	(15.36)***
Yoshi	1.995	2.150	2.290
	(10.96)***	(11.37)***	(12.75)***
Yoshi <sup>2</sup>	-0.041	-0.044	-0.047
	(10.79)***	(11.11)***	(12.40)***
Oila qurgan	0.746	0.784	0.761
	(6.74)***	(6.85)***	(6.62)***
Shahar	-0.327	-0.289	-0.270
	(3.50)***	(3.01)***	(2.78)***
Salomatlik	-0.332	-0.326	-0.328
	(3.98)***	(3.82)***	(3.78)***
Oliy ma'lumot (ona)	-0.377	-0.076	-0.045
	(2.41)**	(0.45)	(0.27)
Oliy ma'lumot (ota)	-0.303	-0.128	-0.130
	(2.40)**	(0.97)	(0.97)
Oliy ma'lumot (respondent)		-2.934	-2.928
		(9.14)***	(9.15)***
Mamnun ta'lim			-0.583
			(2.87)***
_doimiy	-23.772	-25.829	-27.006
	(11.03)***	(11.53)***	(12.61)***
N	2,544	2,544	2,515

\* p<0.1; \*\* p<0.05; \*\*\* p<0.01

**5-jadvalda** biz yumshoq ko'nikmalarning NEET holatini bashorat qilishdagi rolini baholaymiz. Shuning uchun biz har bir ustunga quyidagi ko'nikmalarni alohida kiritamiz:

1) har xil vaziyatlarga moslashish va moslashuvchan bo'lish qobiliyati, (2) nizolar / bahslarni hal qilish va oldini olish ko'nikmasi, (3) ijodiy fikrlash ko'nikmalari, (4) tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, (5) qaror qabul qilish ko'nikmalari, (6) vaqt cheklovlari ostida ishlash va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmalari, (7) yetakchilik ko'nikmalari, (8) maqsadlarni belgilash va ularga erishish ko'nikmalari, (9) jamoada ishlash va (10) vaqtni boshqarish ko'nikmalari. Ushbu

o'zgaruvchilardan faqat maqsadlarni belgilash ko'nikmalari, jamoada ishlash va vaqtni boshqarish ko'nikmalari NEET bo'lish ehtimoliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**6-jadvalda** NEETni bashorat qilishda qattiq (AT) ko'nikmalarning roli baholanadi. 1-ustunda, agar respondent kompyuterdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lsa, ikkilamchi o'zgaruvchi modelga kiritilgan. Kutilganidek, bu o'zgaruvchi salbiy va ahamiyatli. 2-ustunda, agar respondent Internetdan foydalansa, tahminiy o'zgaruvchi qo'shiladi. Ushbu ikkala ko'nikma ham O'zbekiston yoshlari o'rtasida NEETni kamaytirishda muhim rol o'ynashi kuzatilmoqda.

## 5-JADVAL

## NEETning aniqlovchilari: yumshoq ko'nikmalar

	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X
Ayol	1.677	1.678	1.669	1.675	1.671	1.669	1.669	1.678	1.676	1.696
	(15.39)***	(15.45)***	(15.40)***	(15.39)***	(15.40)***	(15.43)***	(15.37)***	(15.48)***	(15.46)***	(15.59)***
Yoshi	2.288	2.283	2.285	2.300	2.287	2.278	2.289	2.289	2.286	2.302
	(12.73)***	(12.74)***	(12.76)***	(12.79)***	(12.73)***	(12.76)***	(12.78)***	(12.80)***	(12.77)***	(12.81)***
Yoshi <sup>2</sup>	-0.046	-0.046	-0.046	-0.047	-0.046	-0.046	-0.047	-0.047	-0.046	-0.047
	(12.38)***	(12.40)***	(12.40)***	(12.46)***	(12.39)***	(12.41)***	(12.43)***	(12.45)***	(12.43)***	(12.46)***
Oila qurgan	0.766	0.763	0.755	0.752	0.755	0.749	0.758	0.748	0.757	0.750
	(6.67)***	(6.63)***	(6.58)***	(6.52)***	(6.57)***	(6.53)***	(6.59)***	(6.52)***	(6.60)***	(6.55)***
Shahar	-0.250	-0.252	-0.266	-0.272	-0.269	-0.268	-0.271	-0.268	-0.272	-0.283
	(2.56)**	(2.59)***	(2.73)***	(2.79)***	(2.75)***	(2.75)***	(2.78)***	(2.76)***	(2.80)***	(2.91)***
Salomat liq	-0.338	-0.339	-0.333	-0.341	-0.338	-0.336	-0.330	-0.336	-0.345	-0.340
	(3.85)***	(3.86)***	(3.81)***	(3.89)***	(3.85)***	(3.86)***	(3.76)***	(3.83)***	(3.93)***	(3.87)***
Onaning ma'lu moti	-0.089	-0.071	-0.059	-0.078	-0.064	-0.068	-0.074	-0.052	-0.053	-0.064
	(0.52)	(0.42)	(0.35)	(0.46)	(0.38)	(0.40)	(0.43)	(0.31)	(0.31)	(0.37)
Otaning ma'lu moti	-0.129	-0.117	-0.113	-0.112	-0.113	-0.118	-0.101	-0.121	-0.112	-0.115
	(0.96)	(0.87)	(0.84)	(0.84)	(0.85)	(0.88)	(0.75)	(0.91)	(0.84)	(0.86)
Respon dentni ng ma'lu moti	-2.938	-2.955	-2.939	-2.936	-2.938	-2.946	-2.934	-2.939	-2.935	-2.951
	(9.14)***	(9.19)***	(9.15)***	(9.15)***	(9.14)***	(9.18)***	(9.11)***	(9.13)***	(9.09)***	(9.12)***
Moslashtiring	-0.130									
	(1.00)									
Hal qilish		-0.095								
		(0.72)								
Ijodiy fikrlash			-0.107							
			(0.81)							
Muhim				-0.210						
				(1.56)						
Qaror qabul qila olish					-0.218					
					(1.47)					
Vaqtini boshqarishni bilish						-0.115				
						(0.77)				
Yetakchilik							-0.147			
							(1.31)			
Maqsadlar								-0.288		
								(1.73)*		
Jamoalar									-0.342	
									(2.13)**	
Vaqtini boshqarish										-0.324
										(1.88)*
Doimiy	-27.429	-27.382	-27.390	-27.450	-27.318	-27.292	-27.424	-27.259	-27.130	-27.370
	(12.90)***	(12.85)***	(12.88)***	(12.88)***	(12.84)***	(12.89)***	(12.92)***	(12.85)***	(12.77)***	(12.87)***
N	2,504	2,514	2,515	2,502	2,514	2,517	2,512	2,520	2,523	2,521

## 6-JADVAL

NEET aniqlovchilari: qattiq (AT) ko'nikmalarining roli

	I	II
Ayol	1.610 (14.99) <sup>***</sup>	1.447 (12.94) <sup>***</sup>
Yoshi	2.158 (11.37) <sup>***</sup>	2.260 (11.69) <sup>***</sup>
Yoshi <sup>2</sup>	-0.044 (11.18) <sup>***</sup>	-0.046 (11.48) <sup>***</sup>
Oila qurgan	0.760 (6.60) <sup>***</sup>	0.687 (5.94) <sup>***</sup>
Shahar	-0.230 (2.37) <sup>**</sup>	-0.184 (1.87) <sup>*</sup>
Salomatligi	-0.310 (3.58) <sup>***</sup>	-0.290 (3.30) <sup>***</sup>
Onaning ma'lumoti	0.013 (0.08)	0.097 (0.57)
Otaning ma'lumoti	-0.079 (0.59)	-0.071 (0.53)
Respondentning ma'lumoti	-2.674 (8.13) <sup>***</sup>	-2.610 (7.82) <sup>***</sup>
Kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega	-0.198 (5.97) <sup>***</sup>	-0.123 (3.41) <sup>***</sup>
Internetdan foydalana oladi		-0.180 (5.78) <sup>***</sup>
Doimiy	-25.287 (11.24) <sup>***</sup>	-26.261 (11.47) <sup>***</sup>
N	2,540	2,537

\* p<0.1; \*\* p<0.05; \*\*\*



